



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**DAVLAT-HUQUQIY FANLARNING
DOLZARB MASALALARI**

2026

YURISPRUDENSIYA

+ 998 55 518-57-77 (9)
t.me/Training_institute_for_lawyers

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

YURISPRUDENSIYA

malaka oshirish yo‘nalishi

**DAVLAT-HUQUQIY FANLARNING DOLZARB
MASALALARI moduli bo‘yicha**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2026

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

- | | | |
|--------------|---|---|
| M.Utemuratov | – | TDYU Davlat va huquq nazariyasi sho'basi mudiri, professor, y.f.n. |
| F.Maxmudov | – | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktor o'rinbosari, dotsent, DSc |

Taqrizchilar:

- | | | |
|--------------|---|---|
| O.Xusanboyev | – | TDYU Davlat va huquq nazariyasi sho'basi professori, y.f.n. |
| S.Yusupov | – | TDYU Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi mudiri, professor, y.f.d. |

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Kengashida tavsiya qilingan (2026-yil ____ - _____dagi ____ - sonli bayonnoma).

MUNDARIJA:

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR	19
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	82
V. KEYSLAR BANKI	91
VI. GLOSSARIY	130
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	139
VIII. TAQRIZLAR	143

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son, 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-73-son farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy

tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsad va vazifalari

Tinglovchilarda davlat-huquqiy fanlar sohasida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek davlat-huquqiy fanlarning dolzarb muammolari doirasida fanni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish, muammoli vaziyatlarga nisbatan qonunchilikni izlash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy savollarga huquqiy asoslantirilgan javob berish ko‘nikmasini shakllantirish hamda mustaqil ta‘lim orqali tinglovchiga bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga ko‘maklashish modulning maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Davlat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida:

Tinglovchi:

- ma‘muriy, konstitutsiyaviy huquqning xususiyatlarini to‘g‘ri anglash;
- O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi, ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunchilik va jamiyatda bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni konstitutsion va ma‘muriy qonunchilik bilan bog‘lay olish, qo‘llash bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etish yo‘llarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- davlat-huquqiy fanlarga doir nazariy savollar va keyslar tuzish;
- davlat-huquqiy fanlar sohasiga doir ilmiy izlanishlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish;
- davlat-huquqiy fanlar sohasiga doir qonunchilikni amaliyotda qo‘llash
- davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish;
- ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash;
- ma‘muriy yustitsiya qonunchiligini tahlil qila olish;
- ma‘muriy hujjatlarni shakllantira olish;
- davlat-huquqiy fanlar sohasiga doir muammolarni aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- huquqni qo'llash amaliyotiga, o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish;

- talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

- davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Davlat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” moduli ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida multimediy va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Davlat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” moduli o‘quv rejadagi “Fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” moduli bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar davlat-huquqiy fanlar sohasidagi dolzarb masalalarni, mazkur tizimdagi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1.	Davlat-huquqiy fanlarga nisbatan zamonaviy yondashuv	2	2		
2.	Ma'muriy tartib-taomillar	4	2	2	
3.	Ma'muriy sud ishlarini yuritish mavzusini o'qitishda amaliy materiallardan foydalanish texnologiyalari	6		2	4
4.	Zamonaviy davlat fuqarolik xizmati	4	2	2	
5.	Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizm	4	2	2	
6.	Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish mexanizmlari	2	2		
Jami		22	10	8	4

BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Davlat-huquqiy fanlarga nisbatan zamonaviy yondashuv

Ommaviy huquq sohasi bo'lgan Konstitutsiyaviy va Ma'muriy huquq tushunchasiga yangicha yondashuv. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarining mazmun-mohiyati. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy yangiliklari. O'zbekiston Respublikasi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida.

Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar.

2-mavzu. Ma'muriy tartib-taomillar

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy tartib-taomillarning qonunchilik asoslari. Ma'muriy tartib-taomillar mavzusidan nazariy savollar tuzish. Ma'muriy tartib-taomillar mavzusidan muammoli savol tuzish. Muammoli savol tuzishda amaliyot materiallaridan foydalanish. Savollar tuzish uchun tegishli manbalardan foydalanish metodikasi.

3-mavzu. Ma'muriy sud ishlarini yuritish mavzusini o'qitishda amaliy materiallardan foydalanish texnologiyalari

Ma'muriy sud ishlarini yuritishning qonunchilik asoslari. Ma'muriy sud ishlarini yuritish mavzusida ma'muriy sud materiallaridan foydalanish. Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda amaliyotdan materiallar yig'ish, hujjatlar jildini tayyorlash metodikasi. Muammoli savol tuzishda amaliyot materiallaridan foydalanish. Dars mashg'ulotlariga amaliyotdan mutaxassis jalb qilish, darsning effektivligini baholash, talabani amaliyot bilan tanishtirish orqali bilimini oshirish.

4-mavzu. Zamonaviy davlat fuqarolik xizmati

Zamonaviy davlat fuqarolik xizmatining qonunchilik asoslari. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etish. Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish. "IRAC" usuli asosida dars o'tish. Muammoli vaziyatni og'zaki muhokama qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Muammoli vaziyatni yozma muhokama qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Muammoli vaziyatni muhokama qilishning asosiy mezonlari. Muammoli vaziyat asosida talabaning bilimini aniqlash.

5-mavzu. Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizm

Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizmning huquqiy asoslari. Siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. Mavzuga doir amaliyot materillarini tahlil qilish.

6-mavzu. Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish mexanizmlari

Ma'muriy islohotlarining ustuvor yo'nalishlari. Davlat va mahalliy boshqaruv tizimining bugungi holati. Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish,

fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish. Davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, global indikatorlar va ilg'or xorijiy tajriba.

KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI

“Davlat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” fanida ma'muriy sud materiallaridan foydalanish, sud protsesslarida qatnashish, ma'muriy tartib-taomillarga oid amaliy materiallar bilan amaliyotda tanishish, davlat xizmatiga oid amaliy materiallaridan foydalanish va bevosita davlat fuqarolik xizmati organlarida tanishish ko'chma mashg'ulotning mazmunini tashkil etadi.

O'QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta'lim berish ko'zda tutilgan:

- binar ma'ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- devorsiz maktab;
- online ma'ruza;
- trening, videotrening;
- ma'ruzalar va suhbatlar;
- aqliy hujum va bumerang, tanishuv usuli;
- dalil va argumentlar asosida fikrini asoslash, tinglash va eshitishga moslashish;
- kichik guruhlarda idrok xaritasida ishlash (hamkorlikda ishlashga o'rganiladi).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Materialni og‘zaki bayon qilish metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish o‘qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o‘ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o‘qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda o‘qituvchining tinglovchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo‘yish, rejani e‘lon qilish, tinglovchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi.

Suhbat metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish jaraeni: ular e‘tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob‘ektlarni o‘zaro taqqoslash, puxta o‘ylash va savollarga to‘g‘ri javob tayèrlashdan iborat. O‘qituvchining rahbarligi: mavzuni qo‘yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to‘ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoèn bo‘ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o‘zlashtirishda tinglovchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

“SWOT-tahlil” metodi


Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	• Kuchli tomonlari
W- (Weakness)	• Zaif kuchsiz tomonlari
O- (opportunity)	• Imkoniyatlari
T-(Threat)	• To‘siqlar

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma‘ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.


Metodni amalga oshirish tartibi



“Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish

mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).



“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

F	• Fikringizni bayon eting
S	• Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	• Ko‘rsailgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• Fikringizni umumlashtiring

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon,

qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to'g'ri javob” bo'limiga yozish so'raladi.

4. “To'g'ri javob” bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so'raladi. Shundan so'ng “yakka xato” bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to'g'ri javob” va “guruh bahosi” o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab

qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Munozara” metodi

Ta‘lim tizimida tizimlarda nutq o‘qitish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oya muhim o‘rin egallaydi. Bu bajariladigan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishish jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi. Tinglovchilar tomonidan “o‘z so‘zi” o‘ziga xos uslub asosida izchil, savol fikr yuritiladi.

Munozara vaqtida tinglovchilar o‘zlariga ishongan holda savollarni munozara qilishadi. Munozara uchun shunday sharoit yaratishi kerakki, unda tinglovchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq aytish, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari lozim.

Masalan: Ma‘muriy ixtiyoriylik ma‘muriy hujjat qabul qilishga qanday ta‘sir qiladi?

Munozara usulida quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- ❖ Yangi bilimlarni shakllantirish
- ❖ O‘g‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish
- ❖ Mavzu yuzasidan fikr almashish asosida tegishli bilimlarga ega bo‘lish

“Pinbord” metodi

Pinbord inglizchadan: pin – mustahkamlash, board –doska ma‘nosini bildiradi. Bu usulda munozara yoki suhbat amaliy usul bi-lan bog‘lanib ketadi. Metod maqsadi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifasini bajarish. Bunda tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mushohada qilish va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Portfolio”metodi

“Portfolio” – (ital. portfolio – portfel, ingl.hujjatlar uchun pap-ka) ta‘limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy

ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'in-disi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshi-rish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshqalar	Tinglovchilar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshqalar
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshqalar

Muammoli metod

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Davlat-huquqiy fanlarga nisbatan zamonaviy yondashuv

Reja:

1. Ommaviy huquq sohasi bo‘lgan Konstitutsiyaviy va Ma‘muriy huquq tushunchasiga yangicha yondashuv.


2. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarining mazmun-mohiyati. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy yangiliklari. O‘zbekiston Respublikasi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida.

3. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar.

Tayanch iboralar: Konstitutsiyaviy va Ma‘muriy huquq, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi.

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimining eng yetakchi sohasi hisoblanadi. Chunki, ushbu huquq sohasi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar o‘zining salmog‘i va ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Konstitutsiyaviy huquq davlat va jamiyat tuzimining asoslarini tashkil etuvchi hamda davlat hokimiyatini amalga oshirish, shuningdek inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini o‘rnatish va muhofazalash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimimizning mustaqil huquq sohasi va qonunchilik tarmog‘i hamda alohida yuridik fani hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy huquqning uchta tavsifda tushunchasi mavjudligini ta’kidlash o‘rinlidir.

Birinchi, Konstitutsiyaviy huquq O‘zbekiston huquq tizimining mustaqil huquq sohasi va mustaqil qonunchilik tarmog‘idir. Konstitutsiyaviy huquqda har bir huquq sohasi uchun zarur bo‘lgan barcha belgilar mavjud, ya’ni u:



Ikkinchidan, Konstitutsiyaviy huquq O‘zbekiston huquq fanining bitta sohasi hisoblanadi. Milliy huquq tizimimizdagi huquq fanlariga tegishli bo‘lgan barcha xususiyatlar Konstitutsiyaviy huquq faniga ham tegishli bo‘ladi.

Uchinchidan, Konstitutsiyaviy huquq maxsus o‘quv kursi ham hisoblanadi. Uning o‘quv kursi sifatidagi hajmi va mazmuni har xil darajadagi o‘quv muassasalari uchun turli xil bo‘lishi mumkin. Mustaqil huquq sohasi va qonunchilik tarmog‘i sifatidagi Konstitutsiyaviy huquq, milliy huquq fanlari tizimidagi huquq fanining mustaqil sohasi hisoblangan Konstitutsiyaviy huquq va Konstitutsiyaviy huquq o‘quv kursi bir-biridan o‘z mazmuniga ko‘ra farq qiladi.

Konstitutsiyaviy huquq fanining tushunchasini tavsiflashda uning predmetini aniqlash kerak bo‘ladi. Ma’lumki, huquq predmeti deganda, ijtimoiy hayotda vujudga kelib, qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan erkin ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Umume’tirof etilgan ushbu qoidaga asoslanib aytish mumkinki, Konstitutsiyaviy huquqning predmeti, ya’ni uning tartibga solish doirasini qisqacha qilib aytganda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy asoslarini belgilaydigan, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini o‘rnatadigan, davlat organlarini tashkil etish tamoyillarini belgilash bo‘yicha vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Yuqorida aytilganlardan Konstitutsiyaviy huquqqa quyidagicha ta’rif berish mumkin. Konstitutsiyaviy huquq deganda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy asoslarini belgilaydigan, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini o‘rnatadigan, davlat organlarini tashkil etish tamoyillarini belgilash bo‘yicha vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar yig‘indisi tushuniladi.

Ushbu huquqiy normalar xalqaro hujjatlarda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, joriy qonunlari va qonunosti normativ hujjatlarida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Bunday ustuvor yo‘nalishlarni va oliy qadriyatlarni aniqlaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi. Bu oliy qadriyatlarga konstitutsiyaviy institutlar mos bo‘lishi kerak. Konstitutsiyaviy institutlar esa o‘z navbatida jamiyat va davlat tuzilishining prinsiplarini, davlat hokimiyati organlari tuzilishi va tizimini, davlat hokimiyati tashkil etilishi va nazorat qilinishini o‘zida aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u, avvalambor, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soladi. Ana shunday munosabatlar inson, jamiyat va davlat o‘rtasida kelib

chiqadi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi o‘ziga xos predmetiga ega. Uning predmetini, asosan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi – mustaqil huquq sohasi bo‘lib, u milliy huquqiy tizimning o‘zagi, yadrosini tashkil etadi. Huquqshunoslik fanida Konstitutsiyaviy huquqning predmetini aniqlashda uch yondashuvni ko‘rsatish mumkin. Birinchi yo‘nalish: konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning predmetini davlat hokimiyatini amalga oshirish tashkil etadi. Konstitutsiya tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning aksariyatini davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish masalalari tashkil etadi. Ikkinchi yo‘nalish: konstitutsiyaviy huquqning predmetini, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tashkil etadi. Ya’ni davlat hokimiyati manfaatlari inson manfaatlaridan kelib chiqishi kerak. Uchinchi yo‘nalish: ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish tashkil etadi. So‘z “Shaxs-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solish to‘g‘risida ketmoqda. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi predmeti uchta katta ijtimoiy munosabatlar guruhidan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi: birinchidan - konstitutsiyaviy tizimni tashkil etish, ta’minlash va himoya qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni; ikkinchidan - insonlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini tartibga solish, himoya qilish, qo‘riqlash va kafolatlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni; uchinchidan - “shaxs-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi eng muhim munosabatlarni tartibga soladi.

So‘nggi yillarda davlat boshqaruv sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ma’muriy organlarning xususiy shaxslar bilan munosabati davlat organlarining fugarolarga xizmat qilishi tamoyili asosida shakllanib bormoqda. Ma’muriy huquq ommaviy huquqning bir tarmog‘i sifatida birinchi navbatda uning subyekti, davlat boshqaruv munosabatlari tizimi bilan belgilanadi, chunki davlat boshqaruv jamiyat manfaatlari, ehtiyojlari, maqsadlari, rag‘bat va normalarining toifalari orqali amalga oshiriladi. Ma’muriy huquq davlat boshqaruv nazariyasi, boshqaruvning umumiy ta’limoti, boshqaruv siyosati, boshqaruv psixologiyasi va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, ma’muriy huquq sohasi davlat (ijroiya) boshqaruv sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ma’muriy huquq ma’muriy faoliyatni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning “ta’sir doirasiga” kiradigan davlat va jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarda qonun ustuvorligini belgilaydi.

Ma’muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda, birinchi navbatda, qonunchilik normalari mustahkamligi va aholining huquqiy ongi hamda madaniyati shunga bog‘liqligini ham namoyon etadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham davlat hokimiyatining

konstitutsiyaviy bo‘linishi va samarali ijro hokimiyatining tashkil etilishi, davlatchilikni mustahkamlash zaruriyati, zamonaviy huquqiy demokratik davlatni barpo etish, davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyotining o‘zgarishi - bularning barchasi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv sohasidagi ma‘muriy-huquqiy va ma‘muriy-protsessual o‘zgarishlarni ta‘minlashga qaratilgandir.

Ommaviy huquq davlat va uning organlari tashkil etilishi va faoliyatining huquqiy mexanizmi bilan bog‘liq bo‘lgan turli darajadagi sohalarni o‘z ichiga oladi: konstitutsiyaviy huquq, ma‘muriy huquq, jinoyat huquqi, moliya huquqi, soliq huquqi, protsessual huquq, sud tizimi, xalqaro ommaviy huquq va boshqalar. Ommaviy huquqni tartibga solish predmetiga, masalan: davlat tuzilishining asoslari, davlat va uning institutlari faoliyati; fuqarolik jamiyati institutlari; mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari; qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish jarayoni; sud tizimi, xalqaro munosabatlar kiradi. Ma‘muriy huquq ommaviy huquqning bir tarmog‘i sifatida, birinchi navbatda, uning subyekti, davlat-boshqaruv munosabatlari tizimi bilan belgilanadi, chunki davlat boshqaruvi jamiyat manfaatlari, ehtiyojlari, maqsadlari, rag‘batlantirishlari va normalari toifalari orqali amalga oshiriladi.

Ma‘muriy huquq odatda boshqaruv huquqi sifatida tushuniladi. Shu ma'noda, rivojlangan huquqiy tizimga ega bo‘lgan har bir mamlakat ma‘muriy huquqqa ega, chunki u ma‘muriyat faoliyatini tartibga soluvchi normalar to‘plami tizimi hisoblanadi. Huquqiy ta‘sir mexanizmida ma‘muriy huquq alohida o‘rin tutadi, bu uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish uchun zarur vosita sifatida harakat qilishida ifodalanadi.

Ma‘muriy huquq atamasi arabcha “ma‘muriy” - boshqaruv lotincha “administratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “boshqaruv huquqi” ma‘nosini anglatadi.

Ma‘muriy huquq atamasi arabcha “ma‘muriy” - boshqaruv lotincha “administratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “boshqaruv huquqi” ma‘nosini anglatadi. Demak, ma‘muriy huquq bir paytning o‘zida boshqaruv huquqi hamdir. Ma‘muriy huquq asosan ijro hokimiyati organlarining davlat boshqaruviga oid faoliyati hamda ularning jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarini o‘rganib, uning ta‘sir doirasi sud yoki parlament vakolatlariga hamda ularning hokimiy vakolatlariga daxl qilmaydi.

Xalq manfaatlari va inson huquqlari ustuvorligi tamoyili asosida olib borilayotgan ushbu islohotlar mamlakatimizning Asosiy qonunini ham isloh etish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada 2023-yil 30-aprelda referendum asosida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “inson – jamiyat – davlat” tamoyili ustuvor bo‘lib, inson huquqlariga oid konstitutsiyaviy normalar miqdori 3 barobar ortganini e’tirof etish kerak. Inson huquq va erkinliklariga oid konstitutsiyaviy normalar davlat organlari va nodavlat tashkilotlar faoliyatida inson huquqlari ustuvorligini kafolatlaydi.

Bosh qomusimizga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, eng avvalo, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgani bilan, ayniqsa, e’tiborga molik. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning Muqaddimasida O‘zbekiston xalqining inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga bo‘lgan sodiqligi e’lon qilingan. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat ta’kidlangan.

Konstitutsiyamizning 20-moddasida qayd etilganidek, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Shuningdek, qonunlarning, davlat organlari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini inson huquqlari va erkinliklari belgilaydi.

Konstitutsiyaning birinchi bo‘limi “Asosiy prinsiplar” deb nomlanib, “Davlat suvereniteti”, “Xalq hokimiyatchiligi”, “Konstitutsiya va qonunning ustunligi”, “Tashqi siyosat” boblariga ajratilgan.

Konstitutsiyaning dastlabki 1-moddasida O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi.

+ **Huquqiy davlat** – huquq ustuvorligi ta’minlangan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

+ **Ijtimoiy davlat** – har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

+ **Dunyoviy davlat** – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat hisoblanadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi, deya e’lon qilinar ekan, unda inson huquqlariga oid normalar 3 baravardan ortiqqa oshdi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgilandiki, bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

Binobarin, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, davlat va inson o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinadi.

Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi mustahkamlandi. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o'z roziligisiz yuklatilishi mumkin emasligi qayd etildiki, ushbu norma odamlar hayotini yanada yengillashtiradi.

Konstitutsiyada O'zbekiston fuqarosi mamlakatdan tashqariga chiqarib yuborilmasligi yoki boshqa davlatlarga berilmasligi belgilandi. Bu norma fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarning saqlab qolinishi hamda rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi ta'kidlandi. Ushbu norma chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, ta'lim olayotgan vatandoshlarimizni Vatani bilan doimiy aloqada bo'lishiga, tili, madaniyatini saqlab qolish hamda rivojlantirishiga, ona yurti – O'zbekistonning obro'sini yanada oshirishga o'z hissasini qo'shishiga xizmat qiladi.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi.

Xususan, O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlandi. O'lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi. Ya'ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgandir. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutini qo'llanish ko'lami yanada kengayadi.

Ilk bor shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi berildi.

Har kimning yozishmalari, telefon orqali soʻzlashuvlari, pochta, elektron xabarlari hamda boshqa xabarlari sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv oʻtkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yoʻl qoʻyilishi belgilab qoʻyildi.

Har kim oʻz huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi belgilandi. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqarolar oʻz buzilgan huquq va erkinliklarini, oʻzgarar huquqlarini buzmaganda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Yagona shart – bu fuqarolar tomonidan oʻzini himoya qilishda qoʻllaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boʻlishidir.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi.

Birinchi marotaba har kimning Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib boʻlingan boʻlsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanihini taʼminlaydi.

Bulardan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning oʻrni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan boʻlsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiluvchi qoida boʻlib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni taʼminlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻzining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim oʻziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy taʼqib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar oʻtkazish, uning shaʼni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qoʻllanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning oʻz aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil boʻlsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat boʻyicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ma'muriy islohotlar 2017-yilda rasman boshlandi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Uning maqsadlari ancha "yo'naltirilgan" tarzda ishlab chiqilgan - davlat boshqaruvini markazsizlashtirish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, shuningdek iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni bosqichma-bosqich qisqartirish; mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to'g'risida ma'lumot berishning zamonaviy shakllarini joriy etish; "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xizmatlari samaradorligini, taqdim etilishi sifatini va mavjudligini oshirish.

Albatta, boshqa islohotlar singari ma'muriy islohotlar doirasida ham davlat boshqaruvi sifatini oshirish uchun ko'plab harakatlar amalga oshirildi; davlat boshqaruvi jarayonini huquqiy tartibga solish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Xususan, 2017-yilda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq, davlat boshqaruvining konseptual yangi modelining asosiy yo'nalishlari shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmoni bilan qabul qilingan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham aynan mamlakatimizda istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan konstitutsiyaviy islohotlarni nazarda tutadi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingani Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur hujjat yurtimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va ulkan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yilning 11-sentabrida imzolangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmon hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga tayanch vosita bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. Zero, farmon muqaddimasida "yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda", deb alohida ta'kidlangani bejiz emas. Natijada yurtdoshlarimizning yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish,

sogʻlom, bilimli va maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli taʼminlash ustuvor maqsad sifatida belgilangani qayd etildi.

Shu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida soʻzlagan nutqlarini yodga olsak:

“Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qatʼi nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, soʻz va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

Mana shunday huquqiy asosda “Oʻzbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uygʻun boʻlib, biz oʻz zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni toʻla va qatʼiy bajarmoqdamiz”.

Maʼlumki, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yoʻnalish boʻyicha 100 ta muhim maqsad oʻz aksini topgan boʻlib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi. Oʻz navbatida, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va oʻz vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaror ushbu hujjatning “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da sifatli va oʻz vaqtida amalga oshirilishini taʼminlashga qaratilgan. Strategiyada belgilangan yoʻnalishlarning barchasida aholi, yaʼni xalq va mamlakat manfaatlari birinchi oʻringa qoʻyildi. Jumladan, Strategiyaning IV bobi “Qonun ustuvorligini taʼminlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yoʻnalishiga bagʻishlandi. Mazkur yoʻnalish boʻyicha 16 ta maqsad (74-89-maqsadlar) doirasida 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani oʻzida qamraydi. Bunda mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, fuqarolik jamiyati institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalariga oid 41 ta maqsadli koʻrsatkichni ishlab chiqish va 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash nazarda tutilgan. Xususan, “Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish boʻyicha islohotlar” hamda “Qonun ustuvorligini taʼminlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar” kabi bandlarda bir qator vazifalar belgilandi:

– Elektron shaklda koʻrsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish;

– “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi – “Raqamli hukumat” tizimiga oʻtilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda boʻlishini taʼminlash;

– Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni toʻldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor

qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi oladigan tizim yaratish.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish deb nomlangan 78-maqсадida sog‘liqni saqlash, qurilish, transport, ta’lim sohalarida xususiy sektor ulushini kamida 3 barobar oshirish, davlat boshqaruvida mavjud bo‘lgan 5 mingga yaqin funksiyani amalga oshirish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish, majburiy talablar yagona elektron reestriga kiritilgan majburiy talablarni kamida 20 foizga kamaytirish, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funksiyalarini mahalliy ijro organlariga o‘tkazish, davlat organlari rahbarlarining o‘zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish hamda davlat nazorat funksiyalarini fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini qat’iy ta’minlashga yo‘naltirish kabi 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab berildi.

Nazorat savollari:

1. Ma’muriy va konstitutsiyaviy huquqlarning farqlarini izohlang.
2. Ma’ruza matnida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ahamiyati to‘g‘risida qanday fikrlar bildirilgan?
3. Konstitutsiyasining asosiy yangiliklari nimalardan iborat?
4. Bugungi kundagi davlat boshqaruvi samarasini oshirishdagi asosiy muammolar nimalarda ekanligini izohlang.
5. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar yuzasidan fikr bildiring.

2-mavzu. Ma'muriy tartib-taomillar

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy tartib-taomillarning qonunchilik asoslari.
2. Ma'muriy tartib-taomillar mavzusidan nazariy, muammoli va amaliyot materiallaridan foydalanish.

Tayanch so'zlar: ma'muriy harakatlar, protsessual hujjat, ma'muriy-huquqiy faoliyat, ma'muriy ixtiyoriylik, manfaatdor shaxs.

Huquqiy jarayonning keng tarqalgan ko'rinishi – bu ma'muriy jarayondir. Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy jarayon, ijro hokimiyati organlarining ma'muriy protsessual shaklda amalga oshiriladigan va aniq bir huquqiy masalalarni hal etishga qaratilgan — hokimiyat faoliyati sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu birinchi navbatda, ma'muriy jarayonning ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinganligiga asoslanadi.

Ma'muriy jarayon huquqiy jarayonning barcha umumiy xususiyatlariga ega. Lekin shu bilan birga uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir:

birinchidan, ma'muriy jarayon – ijro organlarining maqsadga muvofiq yo'naltirilgan hokimiyat faoliyatidir;

ikkinchidan, ijro organlarining hokimiyat faoliyati qonun hujjatlariga asoslanib, ularga tegishli bo'lgan aniq masalalarni hal etishga qaratilgan;

uchinchidan, ma'muriy jarayon natijasi bo'lib, ma'muriy-huquqiy aktning qabul qilinishi hisoblanadi;

to'rtinchidan, ijro organlarining hokimiyat vakolatlari ma'muriy huquq, xususan, uning protsessual normalari bilan tartibga solinadi;

beshinchidan, ma'muriy jarayon, qoida bo'yicha, soddalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

Bundan tashqari, ma'muriy jarayonning o'ziga xos xususiyatlariga — ma'lum bir ishlarning yozma yoki og'zaki tartibda olib borilishini, sirdan ko'rib chiqilishini ham kiritish mumkin.

Demak, ma'muriy jarayon — ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan hamda ma'muriy-huquqiy aktlarni qabul qilish va ijro etish orqali ma'lum bir ishlarni hal etishga qaratilgan ijro organlarining hokimiyat faoliyatidir.

Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy jarayon bilan bir qatorda, “ma'muriy-protsessual faoliyat” tushunchasi ham ko'rsatib o'tilgan. Ma'muriy-protsessual faoliyat quyidagilardan iborat:

a) ma'muriy huquq ijodkorligi jarayoni — ijro hokimiyati organlarining ma'muriy-protsessual shaklda o'rnatilgan tartibda ma'muriy normativ aktlarni qabul qilishga qaratilgan faoliyatidir;

b) ma'muriy huquqni qo'lash jarayoni — ijro hokimiyati organlarining qonun hujjatlarini ijro etishga qaratilgan va ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan operativ-farmoyish berish hamda huquqni qo'llash- aktlarini qabul qilish va ijro etish faoliyatidir;

d) ma'muriy yurisdiksiyaviy jarayon — ijro hokimiyati organlarining turli subyektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish, shuningdek, ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan ma'muriy va intizomiy majburlov choralarini qo'llashga qaratilgan faoliyatidir.

“Ma'muriy jarayon” va “Ma'muriy-protsessual faoliyat” bir-biriga yaqin va bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Lekin har qanday ma'muriy jarayon faoliyati ma'muriy-protsessual faoliyat hisoblanmaydi.

Ma'muriy jarayon, odilsudlov (fuqarolik, jinoiy, xo'jalik) singari, hokimiyat organi tomonidan qanday masalalarning hal etilishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Hal etilayotgan ishlarning mazmuni — ma'muriy-protsessual shaklga yoki uning ayrim elementlari xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Agar har qanday jarayon doirasida ma'lum bir ishlar hal etiladigan bo'lsa, unda maxsus protsessual qoidalarning zaruriyati vujudga keladi. Aynan mana shu xususiyatlarga qarab jarayonda, uning o'ziga xos bo'lgan qismi — ish yuritish ajratiladi. Davlat hokimiyati organlari, ma'lum bir ma'muriy jarayon doirasida, turli xildagi ishlarni hal etishiga to'g'ri keladi. Ularni umumiy protsessual qoidalar bilan tartibga solish mushkuldir. Shu sababli, ma'muriy faoliyatning o'ziga xos turlari, ya'ni ma'lum bir ishlarni hal etishning maxsus protsessual qoidalari mavjud bo'lib, ularning yig'indisi — ish yuritish faoliyatini tashkil etadi. Masalan, shikoyatlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini tayinlash faoliyatlari ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega, lekin bu faoliyat turlari maxsus qoidalarga ham muhtoj bo'ladi.

Demak, ma'muriy ish yuritish — ma'muriy jarayonning bir qismi bo'lib, umumiy va maxsus protsessual normalar yordamida ma'lum bir ishlarni hal etishga qaratilgan ma'muriy faoliyatning alohida turi hisoblanadi.

Ma'muriy-protsessual normalarning tasnifi. Ma'muriy-protsessual normalar. Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy-protsessual huquq bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, ba'zi huquqshunos olimlar, ma'muriy-protsessual huquqni — huquq tizimining mustaqil tarmog'iga kiritadi. Boshqalari esa ma'muriy-protsessual huquq — bu ma'muriy huquqning ichki sohasi hisoblanadi, deb ko'rsatadi.

D.N.Baxraxning fikricha esa ma'muriy-protsessual huquq — ma'muriy huquq tarkibida bo'lgan va hokimiyat faoliyatini tartibga soluvchi keng doiradagi normalardan iborat bo'lib, yagona tizimga keltirilmagandir.

V.D.Sorokin ma'muriy-protsessual huquq muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, uni o'zining predmeti, tizimi va tartibga solish uslubiga ega bo'lgan huquq tizimining mustaqil tarmog'i sifatida ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, ma'muriy-protsessual normalar — bu vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qoidalardir.

Ma'muriy ish yuritish faoliyatining turli ko'rinishlariga (huquq ijodkorligi, rag'batlantirish, ruxsat berish, yurisdiksiyaviy va h.k.lar) ega bo'lganligi sababli, protsessual normalar aksariyat hollarda, ma'muriy huquqning boshqa institutlari protsessual normalari bilan emas, balki tegishli institutlarning moddiy normalari bilan bog'liqdir. Jarayonlashtirishni keng doirada amalga oshirish bilan esa protsessual normalarni yanada yaqinlashtirish, unifikatsiya qilish va yagona tizimga keltirish mumkin bo'ladi.

D.N.Baxrax ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy-protsessual qonunchilikni alohida tarmoqqa ajratish, amaliyotda foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltirishi mumkin. Chunki bunday ajratish bir butun normalarni ikki bo'lakka, ya'ni moddiy va protsessual normalarning alohidalashuviga olib keladi.

Hozirgi vaqtda ma'muriy-protsessual huquq — ma'muriy huquqning ma'lum bir institutlari doirasida tizimlashtirilgan keng doiradagi protsessual normalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, ma'muriy-protsessual normalar — bu vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro hokimiyati organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalardir.

Ma'muriy-protsessual normalarni turli asoslarga ko'ra guruhlariga bo'lish, ya'ni tasniflash mumkin. Ularning barchasi umumiy maqsadga — davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonini o'rnatishga va tartibga solishga qaratilgandir.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar. Ma'muriy-protsessual munosabatlar — jamiyatda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, huquqiy normalarda nazarda tutilgan aniq subyektlar o'rtasidagi yuridik aloqalarni anglatadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — unda ishtirok etuvchi subyektlarning belgilangan xulq-atvorda bo'lishini nazarda tutadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — hamma vaqt ma'muriy protsessual normalar asosida vujudga keladi. Albatta, huquqiy normaning mavjud bo'lishi,

huquqiy munosabatni vujudga kelishiga yetarli emas. Huquqiy munosabatning vujudga kelishi uchun huquq subyekti (huquq layoqati va muomala layoqati) va yuridik faktlarning (harakat, harakatsizlik, hodisa) mavjud bo'lishi ham talab qilinadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlarni amalga oshirish barcha huquqiy munosabatlar singari, davlatning ta'sir choralari bilan ta'minlanadi. Ular turli-tuman bo'lib, faqatgina majburlov choralari bilan chegaralanmaydi. Ijro hokimiyati organlari faoliyatida vujudga keladigan aksariyat ma'muriy-protsessual munosabatlarni amalga oshirishda davlatning majburlov choralari qo'llash zaruriyati mavjud emas.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy-protsessual munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni huquqiy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida ifodalashga imkon beradi. Lekin bu xususiyatlar ma'muriy-protsessual munosabatlarning mazmunini to'liq yoritib bera olmaydi. Shu sababli, asosiy e'tiborni, uning alohida xususiyatlarining qisqacha tavsifiga qaratish lozim. Jumladan:

birinchidan, ma'muriy-protsessual munosabatlar — davlat boshqaruvi sohasida ijro hokimiyati organlarining vakolatlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladi hamda moddiy normalar singari, aniq ifodalangan boshqaruv xususiyatiga egadir;

ikkinchidan, bu munosabatlar — protsessual huquqiy munosabatlardir. Agar ma'muriy-protsessual munosabatlarning birinchi xususiyati ularni moddiy normalarga yaqinlashtirsa, ikkinchi xususiyati bu ikkala norma o'rtasidagi aniq chegarani belgilab beradi.

Ma'muriy akt — ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasi.

Ma'muriy akt amaldagi qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat deb nomlanadi.

Ma'muriy hujjat — ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasi.

“Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunning eng asosiy qismi ma'muriy hujjatlarni qabul qilish, bekor qilish, o'zgartirish, haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq normalar tashkil etadi. Mazkur qonunning 4-moddasida “ma'muriy hujjat” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan.

Ma'muriy hujjatning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ma'muriy hujjat ma'muriy organ tomonidan qabul qilinadi;
2. Ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq;
3. Ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi yoki tugatadi;
4. Ma'muriy hujjat muayyan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud bir qancha shaxslardan iborat jamoaga qaratiladi;
5. Ma'muriy hujjat muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishining fuqarolar uchun bir qator **afzalliklar** tug'diradi. Buni quyidagilar bilan asoslash mumkin.

1. Ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilingani fuqarolarga yengillik tug'diradi. Bunda, fuqaro har qanday holatda unga ma'muriy hujjatda ko'rsatilgan ta'sir chorasining mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Ya'ni, ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilingani tufayli fuqaro xohlagan vaqtda unga murojaat etishi mumkin bo'ladi.

2. Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi orqali, eng avvalo, ma'muriy organning qarori aniq ifodalanadi. Qaror shunchaki yozib qo'yilmaydi. Balki, asoslantirib beriladi.

3. Ma'muriy hujjatni yozma tarzda qabul qilish jarayonida ma'muriy organ mansabdor shaxsi uning mazmuniga jiddiy e'tibor qaratishiga to'g'ri keladi. Buning boisi shundaki, ma'muriy hujjatning mazmuni fuqaroga tushunarli bo'lishi lozim.

4. Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi ma'muriy organning mansabdor shaxsi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yozma qabul qilingan ma'muriy hujjatdan norozi bo'lgan fuqaro uning ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat bilan murojaat etgan taqdirda, noqonuniy tarzda qabul qilingan ma'muriy hujjat ishni ko'rib chiqish jarayonida dalil bo'lib xizmat qiladi. Yozma tarzda qabul qilingan ma'muriy hujjatda ma'muriy organning qarori mustahkamlab qo'yiladi. Uni har xil talqin etishning imkoni esa kamayadi.

5. Ma'muriy hujjatlarning qonuniyligini isbotlab berish majburiyati fuqarolar zimmasida emas, balki ma'muriy organ mansabdor shaxsi zimmasidadir. Agar barcha ma'muriy hujjatlar yozma emas, og'zaki tarzda qabul qilinganda edi, bunday ma'muriy hujjatlar noqonuniy tarzda qabul qilingan bo'lsa ham ma'muriy organ mansabdor shaxsi tomonidan uning qonuniyligini isbotlab berish oson kechar edi. Bu esa ma'muriy organ va uning mansabdor shaxsiga qaraganda kuchsiz taraf hisoblanmish fuqaro uchun katta zarar keltirishi mumkin edi.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi

Qonunning 52-moddasiga binoan u yozma shaklda qabul qilinadi. Ushbu moddaning ayni shu qismida ta'kidlanishicha, qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat boshqa shaklda, shu jumladan boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan qabul qilinishi mumkinligi hollari nazarda tutilishi mumkin.

Ma'muriy hujjatning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ma'muriy hujjat ma'muriy organ tomonidan qabul qilinadi;
2. Ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq;
3. Ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi yoki tugatadi;
4. Ma'muriy hujjat muayyan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud bir qancha shaxslardan iborat jamoaga qaratiladi;
5. Ma'muriy hujjat muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Ma'muriy akt qonuniyligi shartlari:

- a) shakliy qonuniylik,
- b) haqiqiy (mazmun-mohiyati yuzasidan) qonuniylik
- v) ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat)ni qo'llash qonuniyligi.

Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat)ni quyidagi ko'rinishlarda qo'llash noqonuniy, ya'ni ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat)ni suiiste'mol qilish deb tan olinadi:

- a) mavjud bo'lmagan faktlar asosida ma'muriy akt qabul qilish yoki ma'muriy aktni qabul qilishdagi muhim faktlarni aniqlashda xatolikning mavjudligi kabilar;
- b) jamiyat manfaatlariga zid mazmundagi ma'muriy aktning qabul qilinishi;
- v) ma'muriy akt qabul qilish tartibidagi xatolik;
- g) to'g'ri protseduraning buzilishi;
- d) o'z ma'muriy ixtiyoriyligi (diskretsiyon vakolati)ni qo'llamasligi (ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat)ning passiv suiiste'moli)dan iborat bo'ladi.

Ma'muriy hujjatlarning shakliga qo'yilgan talablar bilan bir qatorda ularning mazmuniga ham talablar belgilangan. Ya'ni, ma'muriy hujjatlarning mazmuni quyidagicha bo'lishi kerak:

1. Qonuniy;
2. Asoslangan;
3. Adolatli;
4. Aniq;
5. Tushunarli.

Ma'muriy shikoyat-ma'muriy akt ijrosi:

- Ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritish (MTTtQ 62-70 m)
- Ijro ishini yuritish (MTTtQ 71-83 m)

Ma'muriy hujjatni qabul qilishda ma'muriy organ har jihatdan e'tiborli bo'lishi kerak. Bunda asosiy e'tibor ma'muriy hujjatni asoslantirishga qaratilishi kerak. Sababi:

1. Qabul qilinayotgan qarorning, eng avvalo, mazmunan kelib chiqish asoslari ko'rsatib o'tilishi kerak;
2. Fuqaro o'ziga nisbatan qabul qilinayotgan qaror nimaga asoslanilayotganini bilish imkoniga ega bo'lishi kerak;
3. Yuqori turuvchi organ va sudlar ma'muriy hujjat ustidan keltirib o'tilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish paytida qarorning asosli ekanini tekshirish maqsadida aynan asoslantiruvchi qismga e'tibor qaratadilar;
4. Asoslantirish orqali qaror qabul qilishga asos bo'luvchi sabablar ko'rsatib o'tiladi. Ushbu sabablar aniq bayon etilishi lozim. Agar qarorda fuqaroning talabi qanoatlantirilishi rad etilsa, rad etilish sabablari aniq bayon etilishi hamda mazkur sabablar qonun hujjati normalari bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Ma'muriy jarayon to'g'risida fikr yuriting.
2. Ma'ruza matnida ma'muriy protsessual faoliyat tushunchasi to'g'risida qanday fikrlar berilgan?
3. Baxrax va Sorokin kabi olimlarning ma'muriy protsessual huquq to'g'risidagi fikrlarini tahlil qiling.
4. Yo'llarda o'rnatilgan turli yo'l belgilari ma'muriy akt bo'la oladimi? Shu masalani tahlil qiling.
5. Zamonaviy ma'muriy huquqning, avvalgi 90-yillardagi ma'muriy huquqni tushunishdan farqini izohlang.

3-mavzu. Ma'muriy sud ishlarini yuritish mavzusini o'qitishda amaliy materiallardan foydalanish texnologiyalari

Reja:

1. Ma'muriy sud ishlariga oid masalalarning huquqiy jihatlari.
2. Ma'muriy sud ishlariga oid ta'lim berishda interaktiv metodlar.
3. Viktorina, savol-javob va texnologiyalardan foydalanish ma'lumotlari.

Tayanch iboralar: Ma'muriy sud, ma'muriy sud ishlarini yuritish, ma'muriy nizolar, ma'muriy da'vo.

Hozirgi kunda mamlakatda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, sud ishlarini yuritilishini takomillashtirish, fuqarolar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud tomonidan himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad davlat organlari, jumladan, sud hokimiyatining xalq va uning manfaatlari uchun xizmat qilishini ta'minlash, fuqarolarning sudlarga bo'lgan ishonchini oshirishdir. Shaxs va jamiyat, fuqaro hamda davlat o'rtasidagi munosabatlarda sud organlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yangi O'zbekistonda sud organlari faoliyatini zamon talablari darajasida takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi. Fikrimizning dalili sifatida, 2017-yil 1-iyundan O'zbekiston sud tizimi tarixida ilk bor ma'muriy sudlar tashkil qilinganligini keltirish mumkin. Ma'muriy sudlar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni ko'rishga vakolatli bo'lib, ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar hamda korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi islohotlar tendensiyasi talab va ehtiyojlari, ma'muriy sudlar faoliyatini ham milliy va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Yuqoridagi dasturda mamlakatimizni rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishlari belgilab olinib, har bir yo'nalish doirasida qator vazifalar ishlab chiqildi. Xususan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining II-yo'nalishi - Malakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, deb nomlandi. Ushbu yo'nalishdagi muhim strategik ahamiyatga ega vazifalardan biri - davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish

hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirishdan iboratdir.

Bu vazifa quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- ma'muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirish lozim;

- sud majlislarida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish;

- sud tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat'iy nazar qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish;

- sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish.

- nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish.

- sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalarning hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish.

- sudyalr korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish.

- Sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 29-yanvarda imzolangan "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi ma'muriy sudlar faoliyatini yanada takomillashtirishga huquqiy asos bo'ldi. Mazkur qarorda belgilangan masalalar ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda jamoatchilikning ma'muriy sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga mustahkam zamin yaratadi. Qarorda ma'muriy sud ishlarini yuritishni "sudning faol ishtiroki" tamoyili asosida amalga oshirish vazifasi belgilandi. Bu fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlaydi.

Bunda ma'muriy sud sudyalarining "sudning faol ishtiroki" tamoyili asosida ishlashi nizolarni ko'rib chiqayotgan sudyaga alohida vazifa yuklaydi. Ushbu tamoyilning amaliyotga tatbiq qilinishi qator qiyinchiliklarga olib keladi, nazarimizda. Xorijiy mamlakatlarning ma'muriy sudda ish yurituvida bu jarayon qanday kechganini o'rganish lozim. Xususan, 2021-yil 1-iyuldan Qozog'iston Respublikasining Ma'muriy protsessual kodeksining qabul qilinishi mamlakatning sud hokimiyati tizimida ma'muriy yustitsiyaning bir qator muammolariga olib keldi. Demak, sudning faol roli prinsipining tub mohiyati nimani anglatadi? Tortishuvchanlik tamoyilida fuqarolik sudlarida asosiy aktiv rolni sud majlisidagi taraflar (advokatlar, yuridik konsultantlar) olib boradi, sud esa ish yuzasidan aniq faktni aniqlab, qaror chiqaradi, xolos.

Tergov protsesslarida sudya tergov bosqichlarini nazorat qiladi va dalillarni tekshiradi, ya'ni hamma protseduralarda sudya markaziy figura hisoblanadi. Ba'zi hollarda taraflar o'rtasida tenglik buzilishi mumkin, taraflardan biri ish yurituv hujjatlari va dalillar bilan ustunlik qilib qoladi. Ana shunday vaziyatlarda taraflarning tengligini bir xilda saqlab turish vakolati sudyalarda bo'lishi lozim. Shundagina sud protsessining shikoyat berishdan tortib, adolatli qaror qabul qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarida eng asosiy rolni sudyalar o'ynaydi. To'g'ri, Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga binoan, hamma qonun oldida tengdir. Biroq mavzuimiz doirasidagi "tenglik" sud protsessi ishtirokchilarining huquqiy maqomi va huquqiy imkoniyatlari borasida ketmoqda. Bu demakki, sudyalarda shunday tashabbus bo'lishi kerakki, ular ma'muriy ish yurituviga kelib tushgan ish yuzasidan o'zlari har qanday dalil va ko'rsatmalarni yig'ishi zarur.

Qozog'iston Ma'muriy protsessual kodeksining 16-moddasi sudlarining faol ishtirokini quyidagi 3 bosqich orqali ifodalaydi:

- har ikkala taraf himoyasini ta'minlash, barcha faktik holatlarni to'liq tadqiq qilish, ma'muriy ishni to'g'ri va xolis muhokama qilish uchun zaruriy bilimga ega bo'lish, sud majlisida taraflar uchun har qanday tushuntirishlarni, ariza va iltimosnomalarda cheklovlar qo'ymaslik;

- ma'muriy sudlarda ko'rilayotgan ish yuzasidan huquqiy asoslangan dastlabki fikrlarini bildirish uchun imkoniyat yaratish;

- ma'muriy sudlarda shaxsan o'zi ish bo'yicha qo'shimcha materiallar va dalillar yig'ish imkoniyatini kengaytirish. Demak, Qozog'iston davlati qonunchiligi "sudning faol ishtiroki"ni taraflarning sud protsessida maksimal darajadagi erkinligi bilan baholaydi. Rivojlangan Germaniya davlatining ma'muriy sudlarida "kutilmagan qarorlar" qabul qilish qoidasi o'rnatilgan. Bunda sudning qarori faqatgina taraflarning bergan ko'rsatma va tushuntirishlarigagina asoslanib qolmasdan, balki sud tomonidan to'plangan materiallar va daliliy hujjatlar asosida qabul qilinadi.

Germaniya qonunchiligiga muvofiq, sudlarning faol ishtiroki quyidagi harakatlarda namoyon bo'ladi:

- sudya ma'muriy ish yuzasidan javobgarga yozma ma'lumot taqdim etish uchun 10 kunlik muddat beradi.

Ya'ni bunda javobgar taraf ish bo'yicha barcha zaruriy hujjatlar hamda dalillarni yozma ravishda sudga taqlim qilishi kerak. Agar javobgar belgilangan muddatda so'ralgan ma'lumotni taqdim qilmasa, u holda unga jarima qo'llaniladi va sudya ishni ko'rmasdan qoldiradi. Shuningdek, yozma yoki elektron shakldagi iltimosnomalar, e'tirozlar, tushuntirish va ishga aloqador har qanday hujjatni taqdim qilishi uchun sudya taraflarga muddat belgilaydi. - sudya ma'muriy ish yuzasidan taraf hisoblanmaydigan shaxslardan ham ishga tegishli material va hujjatlarni olish majburiyatiga ega bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Germaniyada ish yuzasidan zaruriy barcha dalillarni ishning natijasidan manfaatdor taraflar emas, balki ishni ko'rib chiqadigan sudya'ning o'zi ish materiallari uchun to'playdi.

Ushbu fan yuridik fanlar ichida nisbatan yangi fan bo'lganligi uchun uning pedagogik jihatlarida ma'lum bir yondashuvlar shakllanib ulgurmagan bo'lishi mumkin. Zero, ma'lum bir pedagogik yondashuv tegishli kadrlarni, qolaversa, shunchaki ma'lum vaqtni talab qiluvchi jarayondir. Shunga qaramasdan, ushbu fanni bir qator amaliy uslublardan foydalangan holda o'tish mumkin. Xususan, keyslarni talabalarga rolli ijro qilish uchun bo'lib berib, ularning birini da'vogar, birini javobgar mansabdor shaxslar sifatida ham boshqalarini sud jarayonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar sifatida taqsimlash mumkin.

Xususan, quyida bir qator keys va amaliy interaktiv misollar keltiriladi:

1-kazus

2018-yil 15-yanvar kuni Toshkent shahar Shayxontohur tumani ma'muriy sudida sherik arizachilar nomidan ishtirok etayotgan fuqaro Sh.Erkinov hal qiluv qarorini ijro etish bir nechta undiruvchi foydasiga turli joylarda amalga oshirilishiga to'g'ri kelishi tufayli suddan ishtirokchi arizachilarining har biriga alohida ijro etish joyini ko'rsatgan bir necha ijro varaqasini berishni so'radi.

Sud Sh.Erkinovning iltimosiga javoban qonunga ko'ra, sud hujjatini ijro etish turli joylarda yoxud bir nechta undiruvchi foydasiga amalga oshirilishi kerak bo'lsa, ijro etish joyini ko'rsatgan holda bir nechta ijro varaqasini berish sud undiruvchilarning iltimosiga ko'ra amalga oshirilishini ta'kidladi.

Shunda Sh.Erkinov sudga protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkinligini eslatib ayni paytda u sudda boshqa ishtirokchi arizachilar nomidan harakatlanayotganini aytib o'tdi. Sud qonun normasi maxsus qoida ekani, ya'ni bu holatda Sh.Erkinovga

ishtirokchi arizachilar nomidan iltimos kiritish mumkin emasligi, aksincha har bir ishtirokchi arizachi shaxsan alohida iltimosnoma kiritishi lozimligini aytib o‘tdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

2018-yil 17-yanvar kuni fuqaro A.Komilov Samarqand viloyat Bulung‘ur tumani hokimining yer ajratishni rad etish yuzasidan qabul qilgan qaroridan norozi bo‘lib tuman ma‘muriy sudiga murojaat qildi. Tuman sudi A.Komilovning talabini qanoatlantirish haqida hal qiluv qarorini qabul qildi. Sud hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach besh kun ichida ijro varaqasini berdi. Sudning ijro varaqasiga asosan Samarqand viloyati Bulung‘ur tuman hokimi tomonidan A.Komilovga belgilangan muddatda yer ajratish haqida qaror qabul qilindi.

Samarqand viloyati Bulung‘ur tuman prokurori hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib Samarqand viloyati ma‘muriy sudiga kassatsiya protestini kiritdi. Samarqand viloyati ma‘muriy sudi ishni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqib tuman ma‘muriy sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun tuman sudiga qaytardi.

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani hokimiyati vakili tuman sudidan avvalgi ijro varaqasi asosida fuqaroga ajratilgan yerni qaytarib olish maqsadida sudga sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi ariza taqdim etdi. Tuman sudi hokimiyat vakiliga sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masala hal qiluv qarorini apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqib bekor qilgan sud tomonidan hal etilishi kerakligini tushuntirib viloyat ma‘muriy sudiga murojaat qilishni tushuntirdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Muammoli savollar:

1. Birinchi instansiya sudi belgilangan holatlar, shuningdek huquqiy normalar asosida «X-PHARM»MCHJ talablarini qanoatlantirdi hamda Toshkent shahar Yunusobod tumani kadastr xizmatiga Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bodomzor ko‘chasi 37-uy manzilidagi «X-PHARM» MCHJga tegishli bo‘lgan binoni bino va inshootlarni egalik huquqini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va yangi kadastr hujjatini berish majburiyatini yukladidi.

Birinchi instansiya sudi tomonidan ishda ishtirok etish uchun Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining uchinchi shaxs sifatida ishtirok etish masalasi ko‘rib chiqilmadi. Bu ishning natijasidan manfaatdor shaxs bo‘lib, shaxsni ushbu ishni suda ko‘rib chiqish vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmadi. Shuningdek nizoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma‘lumotlar talab qilinmadi.

Ushbu ma'muriy ish bo'yicha javobgar Toshkent shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri xizmati DK va Toshkent shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadast xizmati DKning Yunusobod tumani filiali vakilining T.E.D yozma fikri bor.

Biroq, Sud majlisi sudlanuvchining vakili sifatida ishda ishtirok etish huquqini beruvchi ishonchnoma mavjudligini ko'rmadi. Bundan tashqari, birinchi instansiya sudi bu ishda Toshkent shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat xizmati DK Yunusobod tumani filialining javobgar bo'lish masalasini aniqlamadi.

Savol:

Qanday sud qarori qabul qilinishi kerak?

- O'zMSIYUK tegishli moddalari va boshqa qonun hujjatlaridan foydalangan holda javobingizni asoslang;

- ushbu hodisa bo'yicha sud qarorining asoslantiruvchi va qaror qismini bayon qiling.

2. Ariza beruvchi N.F.Z. L.V.L.manfaatlarini himoya qilish uchun Toshkent shahar Mirobod tumani majburiy ijro byurosi boshlig'ining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan shikoyat bilan sudga murojaat qildi. unda Toshkent shahar Mirobod tumani majburiy ijro byurosi boshlig'ining harakatlarini qonunga xilof deb e'tirof etishni va barcha tegishli organlarni chet elga chiqish uchun qo'yilgan taqiqlarni bekor qilishni talab qildi.

Mirobod tumani majburiy ijro byurosi ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda L.V.Lning aliment qarzlari mavjud emas, bundan tashqari, 2019-yil 1-aprelga qadar alimentni ortig'i bilan to'lab qo'yilganligi ma'lum bo'ldi. Toshkent shahar Mirobod tuman ma'muriy sudining 2018-yil 5-iyundagi qarori bilan N.F.Z. shikoyati qanoatlantirildi.

Toshkent shahar Mirobod tumani majburiy ijro byurosi boshlig'ining 2017-yil 6-apreldagi L.V.L.ning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqishni vaqtincha cheklash to'g'risidagi qarori haqiqiy emas deb topildi va bekor qilindi.

Toshkent shahar Mirobod tumani majburiy ijro byurosi zimmasiga O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish haqidagi taqiqni olib tashlash majburiyati yuklatildi.

Ushbu sud qaroriga norozi bo'lgan Toshkent shahar prokurorining o'rinbosari tomonidan sud qarorini bekor qilish va ishni yangi sud muhokamasiga yuborish yuzasidan kassatsiya protesti topshirildi..

Ariza beruvchi va sudlanuvchining vakili, sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinganligiga qaramasdan, belgilangan vaqtda kelmadi.

Savol:

Ushbu hodisada shahar ma'muriy sudining apellyatsiya instansiyasining sudlov hay'ati qanday sud qarorini qabul qilishi mumkin?

- O'zRFA ning tegishli moddalarini va boshqa qonun hujjatlarini ijro etish orqali javobingizni oqlash;

- ushbu voqea bo'yicha sud aktining motivatsion va operativ qismini belgilang.

3. Toshkent shahar Shayxontohur tumani "Shayxontohur" mahallasida istiqomat qiluvchi fuqaro S.Ismoilova 2017-yil 10-mart kuni bola parvarishi bo'yicha nafaqa olish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi nomiga ariza berdi.

Ariza beruvchining ehtiyojmandligi darajasini aniqlash va bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash (rad etish) to'g'risida xulosa chiqarish uchun "Shayxontohur" mahallasi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida tashkil etilgan maxsus komissiya S.Ismoilovanning arizasini tegishli tartibda o'rganib chiqdi. Maxsus komissiya ariza beruvchining yashash joyiga chiqqan holda oilaning moddiy va mulkiy holatini o'rganib chiqib, 2017-yil 23-mart kuni tegishli dalolatnoma tuzdi. Dalolatnomaga S.Ismoilovaga bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lashni rad etish yuzasidan xulosa kiritildi.

2017-yil 24-mart kuni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakolat bergan Komissiya maxsus komissiyaning xulosasi asosida S.Ismoilovaga bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lashni rad etish haqida qaror qabul qildi va buni tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtirdi.

2017-yil 28-mart kuni S.Ismoilova Toshkent shahar Shayxontohur tumani ma'muriy sudiga komissiya qaroridan norozi bo'lib arizasi taqdim etdi. Biroq, shikoyat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakolat bergan Komissiyaga qaratilgani sababli nizo ma'muriy sudga taalluqli emasligi aytilib sud tomonidan arizasini qabul qilish rad etildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Ushbu topshiriqlarni guruhga taklif etish orqali talabalarning o'zlarida ijodiy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish, qolversa, jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanishi mumkin.

Viktorina deb nomlangan interaktiv usul, odatda 5 turdan iborat bo'ladi. Uni necha tur qilish amaliy mashg'ulotni olib boruvchi pedagogikning o'ziga bog'liq albatta. Ammo, 5-tur bo'lishi vaqt nuqtai nazaridan ham darsni to'liq qamrab olishga yetadi.

Jumladan uning 1-turi "savollar va javoblar" deb nomlanib, unda ikkiga bo'lingan talabalar guruhidan bittadan vakil taklif etiladi va ulargina berilgan savollarga yozma javob qaytaradi. Tegishincha savollar qisqa javoblarni talab

qiluvchi bo‘lishi lozim. Lekin “ha” yoki “yo‘q” degan darajadagi qisqa javoblarni emas.

Odatda 10 ta savol beriladi. Shundan qaysi jamoa vakili nechta savolga to‘g‘ri javob berilganligi sarhisob qilinib, turning g‘olib jamoasi aniqlanadi va doskaga yozib qo‘yiladi.

2-turda endi mazkur jamoalarning boshqa vakillaridan 2 kishidan (talabalar sonining ko‘p yoki kamligiga qarab) markazga taklif etiladi va ular “krossvord” degan bosqichda odatda 15 daqiqagacha krossvord yechadi. Krossvord savollari tegishli mavzu doirasida bo‘lishi juda muhim. Ular 15 daqiqa davomida krossvord yechish bilan band paitida pedagog boshchiligida jamoa 3-turga o‘tib turishi mumkin.

3-tur “chiqib ketishgacha savollar” deb nomlanib, unda jamoalardan eng ko‘p vakil ishtirok etishi mumkin. Odatda 5 kishigacha. Ular xona markaziga taklif etilib, har bir jamoa alohida-alohida joylashadi va pedagog ularga birin ketin savollar berishni boshlaydi. Savolga javob beraolmagan jamoa vakili bittaga qisqarib boradi va yakunda hech bir vakili qolmagan jamoa yutqazgan deb topiladi ikkinchisi esa aksincha yutgan deb hisoblanadi. Tegishincha ballar doskada yuritib boriladi.

4-turdan so‘ng yoki oldin, vaziyatga qarab haligi krossvordchilarni taklif etib, ularning natijalarini ham tahlil qilish mumkin. Agar ular hali ham tugatmagan bo‘lsa va qo‘shimcha vaqt berishni so‘rasa, albatta bu qanoatlantirilishi kerak. Shunday qilib 4-turda fan va uning mavzusi doirasidan kelib chiqib, “blits savol-javob” degan qism boshlanadi. Unda har bir jamoadan bittadan vakillar taklif etiladi va ular savollarga birincha javob berishi shart bo‘ladi. Zero ushbu turning avvalgi savol-javoblardan farqi ham tezkorlik va zukkolikdadir. Tegishincha, 10 ta savoldan eng ko‘pini tezkorlik bilan javob bergan jamoa g‘olib hisoblanadi. Odatda savollar “ha” yoki “yo‘q” degan qisqa javoblarga asoslanadi. Chunki blitsda uzundan uzun javob berish o‘ta murakkab. Zero raqib jamoa, javobni “ilib ketishi” mumkin.

Va nihoyat, 5-tur “pantomima” deb nomlanib, talabalarda aktyorlik mahoratini talab qiladi. Darvoqe aktyorlik mahorati bo‘g‘usi huquqshunos uchun o‘ta zarur. Chunki sudda ham sahnadagi kabi ma’lum “rol”ni ishonarli etib ijro qilish sudda masalani o‘z mijozni foydasiga hal qilishda ahamiyatlidir.

Odatda pantomiada ham qisqa so‘zlar yashiriladi va aktyorlik mahoratiga ega bo‘lgan jamoa vakili, o‘sha so‘zni jamoaga o‘z imo-ishoralari orqali namoyish qiladi. Masalan, “uchinchi shaxs” degan so‘z yashirilgan bo‘lsa, o‘sha so‘zni ko‘rsatayotgan shaxs imo-ishorada uchinchi shaxs so‘zini jamoadoshlariga tushuntirishi kerak. Bunda vaqt masalasini raqib jamoa nazorat qilib turadi. Zero, pedagog, ijro qilayotgan pantomimachiga nazar solib turishi kerak. Aks holda talabalar ham g‘irromlik qilishi mumkin.

Umuman olganda ushbu uslub ma'muriy sud ishlarini yuritish fani uchun har bir seminar darsi uchun ham to'g'ri kelavermaydi. Ushbu metoddan odatda 7-8-amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Zero ungacha talabalar ma'muriy sud ishlari yuritishning muhim nazariy va tushunchaviy qimslarini anglab olishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligi haqidagi huquqiy asoslarni aytib bering.
2. Ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishlilik tushunchalarini farqli jihatlarini yoritib bering.
3. Ma'muriy akt elementlarini yoritib bering.
4. Ma'muriy huquqiy munosabatlarning o'ziga xos taraflarini yoritib bering.
5. Ma'muriy sud amaliyoti boshqa sud amaliyotlaridan farqli jihatlari nimada deb o'ylaysiz.

4-mavzu. Zamonaviy davlat fuqarolik xizmati

Reja:

1. Zamonaviy davlat fuqarolik xizmatining qonunchilik asoslari.
2. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish. Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish.
3. “IRAC” usuli asosida dars o‘tish. Muammoli vaziyatni og‘zaki muhokama qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Muammoli vaziyatni yozma muhokama qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Muammoli vaziyatni muhokama qilishning asosiy mezonlari. Muammoli vaziyat asosida talabaning bilimini aniqlash.

Tayanch iboralar: davlat xizmati va davlat fuqarolik xizmati, “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida amalga oshirilgan ishlar, davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari, malaka talablari.

Davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi. Bu huquqiy nomlari qonunchilik va qonunosti hujjatlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini huquqiy tartibga solish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, kompleks ravishda turli qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi. Jumladan, davlat xizmati sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar konstitutsiyaviy, ma‘muriy, moliyaviy, mehnat va boshqa qonunchilik sohalari bilan tartibga solinadi.

Davlat xizmatini tashkil etish asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi belgilab beradi. Konstitutsiyani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, milliy davlatchiligimizni tashkil etish va rivojlantirishda “davlat xizmati instituti” katta ahamiyatga egadir. Davlat xizmatini to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz mumkin. Chunki davlat xizmati ijtimoiy muvozanatni, ichki va tashqi xavfsizlikni hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda barcha tuzilmalarning funksiyalanishini ta‘minlashda xizmat kiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi belgilab bergan asosiy vazifalarni bajarishda davlat xizmati katta rol uynaydi. U demokratik muvozanatni, huquqiy davlatning asosiy tomoyillariga rioya qilishni hamda inson huquqlari va erkinliklarining muhofazasini ta‘minlaydi. Davlat xizmati orqali davlat siyosati olib borilayotgan islohotlar demokratik tarzda hayotga tatbiq qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatini tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri bu - davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligidir. Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, rahbarning davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish tamoyili uning shaxsiy va boshqa siyosiy guruh a’zosi sifatidagi tor manfaatlardan chekinish uchun bir qator quyidagi talablarni qo‘yadi: birinchi talab - rahbar siyosiy betaraflik, qonunga ongli ravishda bo‘ysunish pozitsiyasiga ega bo‘lishi va shu asosda davlatga, uning bosh manbai bo‘lgan xalqqa, jamiyatga halol xizmat qilishi lozim; ikkinchi talabi – aynan bir davlat organi yoki shaxsga emas, o‘zining korporativ guruhiga ham emas, faqat qonunga, davlatga, u orqali xalqqa xizmat qilishdir; uchinchi talabi - davlat xizmatining ommabopligi, ya’ni unga davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining umumiy majmuasini ta’min etuvchi umumxalq xizmati mohiyatini beruvchi xarakter baxsh etish. Xuddi shunday yondashuv davlat xizmatini professionalizm, ijtimoiylik, ahloqiylik, ma’naviylik va boshqa meyorlariga to‘la mos kelishi lozim; to‘rtinchi talabi esa - davlat xizmatining ochiq oshkoraligi hisoblanadi.

Davlat qonunchiligiga binoan fuqarolar davlat xizmatida bevosita ishtirok etishlari mumkin. Bunday ishtirok davlat xizmatida ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi, 37-moddasida esa O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egaligi hamda davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanishi mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 40-moddasiga binoan esa har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egadir. Shu holatni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish huquqiga faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarigina ega bo‘ladilar.

Davlat xizmatini o‘tashda barcha fuqarolar bir xildagi huquqlarga ega bo‘lib, millati, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa belgilaridan ka’tiy nazar qonun oldida tengdirlar. Davlat xizmatida fuqarolarning faoliyat ko‘rsatishida, mansab yoki lavozim bo‘yicha harakatlanishida davlat tomonidan teng sharoitlar yaratib beriladi. Barcha davlat xizmatchilari bu sohada fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini umumiylikini ta’minlash maqsadida o‘z faoliyatlarini Konstitutsiya va amaldagi qonunlar asosida, Konstitutsiya va qonunlardan kelib chiqadigan talablarni xayotga tadbiq qilgan holda tashkil qilishlari lozim. Davlatimiz oldiga qo‘yilgan maqsadlarning ruyobga chiqishi ko‘p jihatdan davlat organlarini va ularning faoliyatini, ya’ni

davlat xizmatini o'tashni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Qonuniylik tamoyili - davlat xizmatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi huquq meyorlariga asoslanishi hamda jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini ta'minlagan holda amalga oshirilishi; davlat xizmatchilari amaldagi qonunchilik hujjatlariga tayanib, faqatgina davlat organlarining vakolat doirasida o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari, qonunchilik bilan ularga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishlari, belgilangan huquqlardan to'g'ri foydalanishlari, belgilangan tartibga rioya qilishlari lozim.

Demak, O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgan tamoyillar va boshqa holatlar asosida ya'ni xalq hokimiyatchiligi (7–14 moddalar), inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari (19–64 moddalar), ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi (83–90–modda), mahalliy davlat hokimiyat organlari (120–127-modda), sud hokimiyati (130–140-modda) va boshqalar) asosida tashkil etilishi va rivojlanishi lozim.

Davlat xizmatini asosiy tomonlarini, uning tashkiliy asoslarini va funksiyalanishini ta'minlash bevosita uning tamoyillariga borib taqaladi. Davlat xizmatining tamoyillari nafaqat davlat xizmatining, balki butun davlat organlarining tizimining funksiyalanishini, uni tashkil etishning muhim tomonlarini belgilab beradi. Davlat xizmatining tamoyillari - bu davlat xizmati tizimidagi davlat organlari, davlat xizmatchilarining vazifa va funksiyalarini o'zida ifoda etuvchi qat'iy qoidalardir. Davlat xizmatining tamoyillari davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy yo'nalishlari umumiy ko'rinishini ochib beradi va ularni davlat xizmati huquqiy institutining normalarida mustahkamlaydi.

Davlat xizmati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgan davlat hokimiyatining tizimi asosida, ya'ni hokimiyatning qonun chikaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi asosida tashkil qilinadi. Huquqiy demokratik davlat qurishning muhim belgilaridan biri - bu davlat vakolatlarini hokimiyat organlari o'rtasida bo'linishidir. Hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil bo'lib, ularning har biri davlat oldida turgan ma'lum bir vazifa va funksiyalarni amalga oshiradilar.

Davlat xizmatini o'tashni tartibga soluvchi bir necha qonunlar bilan tanishib chiqsak. 2003-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentryabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyat to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi, "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmatni o'tash to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlar rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonunlar ham katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, davlat xizmatini tartibga solishda konstitutsiyaviy huquq meyorlaridan tashqari, ma‘muriy, mehnat, moliyaviy, jinoyat va boshqa huquq meyorlari ham ishtirok etadi. Davlat xizmati ma‘muriy huquqning asosiy va rivojlanib kelayotgan institutlaridan biri hisoblanib, davlat xizmatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma‘muriy-huquqiy meyorlar yig‘indisidan iboratdir.

Demak, O‘zbekistonda davlat xizmatini tartibga solishning huquqiy asoslari turli darajadagi meyoriy hujjatlardan iborat bo‘lib:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Konstitutsiya davlat xizmatining vujudga kelishi uchun asos bo‘ladi, zero unda umumiy qoidalardan tashqari, ayrim toifadagi davlat xizmatchilariga taalluqli maxsus norma ham o‘rin olgan;

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Bu meyoriy hujjatda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy tamoyillar va davlat xizmatchilariga ham taalluqli umumiy qoidalar mavjud;

3. Davlat xizmati va davlat xizmatchisiga taalluqli normalar amaldagi qonunlar, masalan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunda ifodalangan;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan hamda tasdiqlangan davlat xizmatiga oid hujjatlar. Bu hujjatlar umummiqyosda yoki muayyan bir tashkilot, muassasaga tegishli bo‘lishi mumkin;

5. Idoralarda davlat xizmatini tashkil etishga doir ichki meyoriy hujjatlarda (nizom va yo‘riqnomalar) davlat xizmatini tashkil etishning huquqiy asoslari aks ettirilishi mumkin;

Umuman olganda, davlat xizmatchilari tomonidan xizmatni o‘tashning qonun hujjatlarida belgilangan normalarida davlat xizmatini o‘tash uchun samarali mexanizm yaratilgan bo‘lishi davlat organlari va xizmatchilari tomonidan xizmatni o‘tash jarayonida bu qonun xujjatlariga to‘la amal qilinishi, davlat xizmatchisining kasbiy mahoratini, malakasini, bilim darajasini, undagi o‘z ishiga bo‘lgan mas‘uliyatini oshirishga xizmat qilib, davlat xizmati oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy kafolatlarini belgilaydi.

Davlat xizmati nima? U qanday faoliyat?

Davlatimiz tanlagan taraqqiyot yo‘li – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurishdir. Davlatning taraqqiy etishi eng avvalo davlat xizmatini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Huquqshunos olim Ye.V.Oxotskiy aytganidek, **“Davlat qanday bo‘lsa, davlat xizmati va davlat xizmatchilari**

ham shunday bo‘ladi” yoki “Davlat xizmatchilari, ularning intilishi va qiziqishlari qanday bo‘lsa, davlat ham shunday bo‘ladi”¹. Chunki davlat xizmatini o‘tash jarayoni tabiatan davlat xizmatchilari tarkibining sifatiga va professionallik darajasiga bog‘liqdir.

Huquqshunos olimi D.N.Baxrax xizmatga ta’rif berib, “Insonlarning, shuningdek, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo‘nalishlaridan biri – bu xizmatdir. Bu tushuncha turli ma’nolarda: insonning faoliyat turi sifatida, ijtimoiy-huquqiy institut sifatida, davlat organlarining maxsus tizimi ma’nosida ishlatilishi mumkin. Xizmat – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta’minlashdan, shuningdek aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatishdan iborat, deb ko‘rsatib o‘tgan. Davlat xizmati deganda, davlat tashkilotlari organlari, birlashma, korxonalar, muassasalar xizmatchilarining davlat funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan hamda haq to‘lanadigan mehnat faoliyatini tushunish mumkin. Davlat xizmati tushunchasi keng ma’noda davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanuvchi barcha shaxslarning faoliyatidir.

Davlat xizmati deganda, davlat tashkilotlari organlari, birlashma, korxonalar, muassasalar xizmatchilarining davlat funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan hamda haq to‘lanadigan mehnat faoliyatini tushunish mumkin². Davlat xizmati tushunchasi keng ma’noda davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat budjetidan mablag‘ bilan ta’minlanuvchi barcha shaxslarning faoliyatidir.

V.M.Manoxinning fikricha, “davlat xizmatining mohiyatini, o‘ziga xos xususiyatlarini, davlat xizmatining vazifa va funksiyalarini – davlat xizmati va davlat vazifalari, funksiyalari, davlat faoliyat shakllarining o‘zaro nisbati orqali aniqlanishi mumkin”³.

Huquqshunos olim M.Kozlovning nazdida, “davlat xizmati deganda, davlat organlarida amalga oshiriladigan hamda ishchilar mehnatidan mazmuni va shakli jihatidan farq qiladigan har qanday faoliyat tushuniladi”⁴.

Davlat xizmatiga bunday yondashish insonlar mehnat faoliyatining ikki shakliga asoslanadi:

- birinchidan, moddiy boyliklarni, tovarlarni (ishlarni) bevosita yaratish;

¹ Охотский Е.В. Государственная служба в Парламенте. – М., 2002.

² Бахрах А.П Административное право. – М.,1993.

³Манохин В.М. Государственная служба. – М., 1966. – С.5.

⁴Административное право.Под ред.Ю.М.Козлова. – М.,1973. – С.136-137.

- ikkinchidan, boshqaruvni, rahbarlikni, kontrol va nazoratni amalga oshirish. Bu ma'naviy boyliklar yaratilishi yoki davlat organlarining funksiyalari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyatdir.

Insonlar tomonidan olib boriladigan xizmatlar ichida davlat va mahalliy organlarda amalga oshiriladigan xizmat asosiy o'rinni egallaydi.

Davlat va mahalliy organlardagi xizmatning zaruriyati davlatning mavjud bo'lishidan, uning vazifa va funksiyalaridan, shuningdek davlat organlarini tashkil etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Aynan xizmatchilar ko'pgina davlat organlari tuzilmasida, muassasa va tashkilotlarida, boshqaruv hamda boshqariluvchi tizim ichida personal sifatida harakat qiladi. Ularning o'z vazifalarini vijdonan bajarishi davlat va jamiyatda huquqiy tartibotni o'rnatish uchun xizmat qiladi.

Davlat xizmati tushunchasini yuridik adabiyotlarda bir necha ma'noda ko'rib chiqilgan, jumladan, D.N.Baxraxning ta'biri bilan aytganda, "davlat xizmati – ijtimoiy ma'noda, ijtimoiy kategoriya bo'lib, davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko'rsatmasiga ko'ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish"⁵ hisoblanadi.

Yodda tuting!

Davlat xizmati bu davlat organlari va tashkilotlarida ma'lum bir mansabni egallab turgan shaxs tomonidan ommaviy manfaatlar yo'lida davlat vazifa va funksiyalarini ma'lum bir haq evaziga amalga oshiriladigan professional faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davlat xizmat munosabatlarning umumiy tomonlarini tartibga soluvchi qonunning yo'qligi va hech bir qonunchilik hujjatida davlat xizmatiga ta'rif berilmaganligi sababli bu faoliyatning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini yuridik adabiyotlardan ko'ramiz.

Ko'pgina darsliklarda davlat xizmati davlat organlari xodimlarining davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan mehnat faoliyati sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Davlat xizmatiga bunday yondashish insonlar mehnat faoliyatining ikki shakliga asoslanadi:

- birinchidan, moddiy boyliklarni, tovarlarni (ishlarni) bevosita yaratish;
- ikkinchidan, boshqaruvni, rahbarlikni, kontrol va nazoratni amalga oshirish. Bu ma'naviy boyliklar yaratilishi yoki davlat organlarining funksiyalari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyatdir.

Davlat xizmati tushunchasi keng ma'noda davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish bo'lib, u davlat organlari

⁵Бахрах Д.Н. Административное право. – М.,1993 – С.102.

apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat budjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanuvchi barcha shaxslarning faoliyatidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, davlat xizmatining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

➤ davlat xizmati davlat xizmatchisining davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan professional faoliyatidir;

➤ ushbu faoliyatni olib borish jarayonida davlat organlarining kompetensiyasi amalga oshiriladi;

➤ bu faoliyat davlat organlarining funksiyalanishini ta‘minlashga qaratilgandir;

➤ bunday faoliyat mansab majburiyatlarining ijro etilishini ta‘minlaydi.

Davlat xizmati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning bir necha o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

➤ birinchidan, bu munosabatlar davlat-huquqiy munosabatlar bo‘lib hisoblanadi, ya‘ni davlat-xizmat munosabatlari ommaviy huquq (davlat, ma‘muriy) me‘yorlari bilan tartibga solinadi va ko‘pgina holatlarda xususiy-huquqiy tartibga solinishdan xolidir;

➤ ikkinchidan, davlat-xizmat munosabatlari alohida huquqiy munosabatlar bo‘lib, davlat xizmatchilarining maqomiga bog‘liqdir;

➤ uchinchidan, davlat-xizmat munosabatalari – davlat xizmatchilarining ishonch, xizmat va sadoqat munosabatlaridir;

➤ to‘rtinchidan, davlat-xizmat munosabatlari – davlat hokimiyat munosabatlaridir;

➤ beshinchidan, davlat-xizmat munosabatlari – davlat lavozimini boshqarish bilan bog‘liq, ya‘ni davlat xizmatchisi davlatning funksiyalarini amalga oshirib, ma‘lum bir davlat vazifalarini bajaradi.

Davlat xizmatchisi – nafaqat malakali boshqaruvchi, balki vakolati doirasiga davlat vazifalarini amalga oshirish va davlat hokimiyati organlarining vakolatlarining malakali ijrosini ta‘minlash kiradigan mansabdor shaxs hamdir⁶.

Davlat xizmatchisi – bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig‘i va manfaatlari bo‘yicha uning nomidan harakat qiluvchi insondir⁷.

Davlat xizmati o‘z ichiga quyidagi turlarni oladi: davlat fuqarolik xizmati va davlatning maxsus xizmati.

Davlat xizmatining prinsiplari :

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

⁶ Хожиев Э.Т. Давлат хизмати. – Тошкент: ТДҮОИ, 2004.

⁷ Стариков Ю.Н. Служебное право. – М.: БЕК, 1996. – С.131

- adolatlilik, halollik va xolislik;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik.

Davlat xizmatining asosiy prinsiplari:

- ijroni ta'minlamaslik yoxud xizmat vazifalarini tegishli ravishda bajarmaslik hamda o'z vakolatlari doirasidan chetga chiqqanligi uchun javobgarlik;
- davlat xizmatchilarining nazorat ostida bo'lishi va hisobdorligi;
- davlat xizmati to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi;
- davlat xizmati (ga qabul qilinish) uchun teng imkoniyatlar taqdim etilishi;
- davlat xizmatiga qabul qilish va yuqori lavozimga ko'tarilishdagi ochiqlik;
- davlat xizmatchilarining ijtimoiy va huquqiy himoyalanganligi.

Davlat xizmatining asosiy funksiyalari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat xizmatini axborot bilan ta'minlash funksiyasi;
- davlat xizmati tizimining istiqbolini belgilash funksiyasi;
- rejalashtirish funksiyasi;
- tashkil etish funksiyasi;
- farmoyish berish funksiyasi;
- rahbarlik qilish funksiyasi;
- muvofiqlashtirish funksiyasi;
- kontrol qilish funksiyasi;
- tartibga solish funksiyasi;
- hisobga olish funksiyasi.

Davlat xizmatchilari quyidagilarga majbur:

- xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat'iy rioya etish;
- o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- o'z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki hujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- o'z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil

bo'lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

- o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barham berish;

- normativ-huquqiy hujjat va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini og'ishmay bajarish;

- o'z xizmat faoliyatiga biror-bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga barham berish;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlarini va an'analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashish;

- o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obro'siga yoki davlat organining nufuziga zarar yetkazishga qodir bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;

- xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik;

- davlat organida xabarlarini va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish.

- Davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadi.

- Davlat xizmatchilari o'zlarining o'z xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga yoki ularga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatni amalga oshirmasligi, shuningdek lavozimni egallamasligi kerak.

- Davlat xizmatchisi har qanday holatlarda ham o'z xizmat mavqeidan mumkin bo'lmagan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

- Davlat xizmatchilari o'z rahbarini manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik yuzasidan choralar ko'rish maqsadida tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etishi to'g'risida xabardor qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoniga muvofiq davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etish maqsadida 2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika

komissiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilishi, yoshlarning salohiyati, iste’dodi va tashabbuslarini to’laqonli ro’yobga chiqarish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mahalla, ta’lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar tizimida mukofot jamg’armasi 600 million so’m miqdorida xorijiy tillar (“Ibrat farzandlari”) bo’yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual o’yinlari yuqori saviyada tashkil etilishi, yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida g’olib bo’lgan yoshlarni o’z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “Yoshlar daftari” jamg’armasi mablag’lari hisobidan ta’minlash amaliyoti yo’lga qo’yilishi, yoshlar o’rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug’ullanishga qo’shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo’naltirilishi, 2024-yil 1-iyundan boshlab Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla — tuman — viloyat — respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g’oyalari saralanadigan “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o’tkazish amaliyotini yo’lga qo’yish, bunda, nogironligi bo’lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g’oyalari alohida e’tibor qaratilishi, respublika bosqichida saralashdan o’tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishi; g’olib bo’lgan biznes loyiha va g’oyalari egalari Yosh tadbirkorlarni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborilishi belgilandi.

Shuningdek, qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo’nalishi doirasida 2024-yil 1-mayga qadar adashgan yoshlarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning hayotda o’z o’rnini topishiga ko’maklashish maqsadida Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoshlarni probatsiya hisobidan chiqarish amaliyoti joriy etilsin va ularni profilaktik hisobga olish asoslari keskin qisqartirilishi, yo’l harakati qoidalari buzilishi holati yuzasidan yuboriladigan qaror va xabarnomalar bo’yicha Yo’l harakati xavfsizligi xizmatiga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron murojaat qilish imkoniyati yaratilishi belgilandi.

Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo’nalishi bo’yicha Qurolli Kuchlar, sohaga mas’ul boshqa vazirlik va idoralarning kiberxavfsizlik hamda epidemiologik barqarorlikni ta’minlash bo’yicha salohiyatini keskin oshirish maqsadida kiberxavfsizlik infratuzilmasining muhim elementlari hisoblanuvchi axborot tizimlari attestatsiyasi va ekspertizasi uchun har bir vazirlik va idorada mas’ul shaxslar

javobgarligini belgilash, mazkur yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikalarini zamonaviy tahdid va tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish choralari ko‘rib borilishi, mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirish, mas‘ul idoralarni zamonaviy texnika va tibbiyot apparaturalari bilan bosqichma-bosqich ta‘minlash dasturi amalga oshirilishi, fuqarolar shaxsiy ma‘lumotlarining himoyasini kafolatli ta‘minlash bo‘yicha, shuningdek bank va to‘lov tizimlari uchun firibgarlikka qarshi va zamonaviy biometrik tizimlar joriy etilishi beldilandi.

Bundan tashqari davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish maqsadida Saylov jarayonlarini raqamlashtirish uchun “E-SAYLOV” axborot tizimini ishlab chiqilib, to‘liq ishga tushirildi.

So‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmatini samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, bu boradagi ta‘limda ham. Masalan ushbu kichik mavzuda ta‘kidlanganidek “IRAC” usulida “Issue” – muammo, “Rule” – qoidalar, “Application” – qo‘llash, “Conclision” - xulosa usuli bo‘lib, yuridik adrlarni tayyorlashda, ularni amaliyotga yaqinlashtirishda juda samarali pedagogik usul hisoblanadi. Bunda davlat xizmati masalalarini ham tahlil qilishda foydalanish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5843-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4472-sonli Qarorining qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasini xorijiy ekspertlarning tavsiyalari va keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtirish orqali O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatining asosiy tushunchalari, reglamentlari va kafolatlarini qonun bilan mustahkamlash vazifasi qo‘yildi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi va jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

Hammamizga ma‘lumki, uzoq yillardan beri “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish dolzarb masala bo‘lib kelayotgan edi. Buni “IRAC” usulida muammo sifatida baholash mumkin. Davlat xizmatining umumiy jihatlarini, asoslarini, uning turlarini, tashkiliy-huquqiy mexanizmini, uni o‘tash tartibini, shuningdek davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilab beruvchi

yagona qonunning yoʻqligi koʻp muammolar keltirib chiqarayotgan edi. Davlatning taraqqiy etishi eng, avvalo davlat xizmatini toʻgʻri tashkil etishga, bogʻliqdir. Davlat organlarining samarali faoliyat olib borishi koʻp jihatdan bu qonunning qabul qilinishini taqozo etadi. Huquqshunos olim Y.V.Oxotskiy aytganidek, “Davlat xizmatchilari, ularning intilishi va qiziqishlari qanday boʻlsa, davlat ham shunday taraqqiy etadi”. Mazkur qonun loyihasi bir necha marta qayta ishlab chiqildi, lekin ayrim sabablarga koʻra qabul qilinmadi. Shuningdek, “Davlat xizmati toʻgʻrisida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish 2017—2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida va Oʻzbekiston Respublikasida Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasida nazarda tutilgan edi. Mazkur qonunning “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi qonunga qanday bogʻliqligi bor degan savol tugʻiladi. Yoki qonun loyihasining nomi shunday tahrirda oʻzgartirildimi? Davlat xizmati bilan davlat fuqarolik xizmatini farqi bormi? Chunki respublikamiz qonunchilik hujjatlarida asosan davlat xizmati atamasi qoʻllanib kelingan, lekin davlat xizmati va davlat xizmatchisi tushunchasi hech bir qonunchilik hujjatida keltirilmagan. Faqat nazariy asoslari huquqshunos olimlar tomonidan keltirib oʻtilgan edi. Davlat xizmati tushunchasiga koʻpchilik olimlar turlicha taʼrif berishgan xorijiy mamlakatlar qonunchiligini hamda huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatining tizimiga kirib, uning bir turi hisoblanadi. Jumladan, Armaniston Respublikasining qonunchiligida davlat xizmati tizimi fuqarolik xizmati, sud, diplomatik xizmat, mudofaa boʻyicha maxsus xizmat, milliy xavfsizlik, politsiya, soliq, bojxona xizmati va bir qator davlat xizmati turlaridan iborat. Qirgʻiziston Respublikasi davlat xizmati tizimiga esa davlat fuqarolik xizmati, harbiy, huquqni muhofaza qilish va diplomatik xizmat turlarini oʻz ichiga oladi. Rossiya davlat xizmatining tizimi davlat fuqarolik, harbiy va huquqni muhofaza qilish xizmati kabi turlardan iborat. Germaniya Federativ Respublikasida davlat fuqarolik xizmati ommaviy xizmat deb yuritiladi. Davlat xizmatining bunday turlarga boʻlinishi har bir davlatning qonunchiligida maxsus qonunlar bilan tartibga solinadigan davlat xizmati turlari mavjudligini bildiradi. Bizning mamlakatimiz qonunchiligida ham harbiy xizmat, huquqni muhofaza qilish xizmatlari, soliq, bojxona xizmati va boshqa bir zator davlat xizmatining turlari alohida qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan, ammo davlat fuqarolik xizmati va uni tashkil etish mexanizmini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati mavjud emas edi. Ayrim davlatlarda davlat fuqarolik xizmatiga oid munosabatlar shu davlatning Davlat xizmati toʻgʻrisidagi qonuni bilan yoki alohida Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisidagi yoxud Ommaviy xizmat toʻgʻrisidagi qonunlar bilan tartibga solingan hamda davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatining turi ekanligi belgilangan. Shuningdek, prezident, bosh vazir,

gubernatorlarning, sudyalarning hamda davlat siyosiy mansablarini egallovchi boshqa shaxslarning faoliyati davlat fuqarolik xizmati hisoblanmasligi ta'kidlab o'tilgan.

2022-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, qonun davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senati a'zolarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari xodimlarining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a'zolarining, sudyalarning va sud tizimi xodimlarining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi a'zolarining, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o'tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan harbiy xizmatchilarning hamda davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilandi.

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda quyidagi asosiy tushunchalarga ta'rif berildi:

davlat organi — Davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma;

davlat fuqarolik xizmati — davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi;

davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi — davlat organining vakolatlarini lozim darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar majmui;

davlat fuqarolik xizmati lavozimi — davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozim;

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari — davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart boʻlgan odob-axloq normalari majmui;

malaka talablari — davlat fuqarolik xizmatining muayyan malaka darajasi berilishi va (yoki) davlat fuqarolik xizmatining muayyan lavozimini egallash uchun talabgor boʻlayotgan nomzodlarga nisbatan davlat organi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari

- Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
- davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;
- qonuniylik;
- adolatlilik;
- xalqqa xizmat qilish;
- davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'ulligi;
- inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- xolislik, professionallik va kompetentlik;
- davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq davlat fuqarolik xizmati sohasida davlat boshqaruvida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining, maxsus vakolatli davlat organining (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi) va davlat organlarining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari belgilandi.

Qonunda Davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi belgilangan bo‘lib, Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisi ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e‘tiboran davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomiga ega bo‘ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo‘qotishi, qarindoshining sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni o‘tash chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi bilan

bog'liq bo'lgan qo'shimcha huquqlar, majburiyatlar va cheklovlar alohida qonunchilik bilan belgilanishi kabi normalar mustahkamlangan.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhleri va toifalaridan kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining quyidagi malaka darajalari beriladi:

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhleri	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining toifalari	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari
Siyosiy	Rahbar kadrlar	Oliy darajali maslahatchi 1-darajali maslahatchi 2-darajali maslahatchi 3-darajali maslahatchi
Boshqaruv	Boshqaruv kadrlari	1-darajali xizmatchi 2-darajali xizmatchi 3-darajali xizmatchi
Yordamchi	Mutaxassislar	4-darajali xizmatchi 5-darajali xizmatchi 6-darajali xizmatchi

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlari malaka darajalari, qoida tariqasida, izchil tartibda, oliy ma'lumotga va muayyan ish stajiga, malaka oshirish kurslarini tugatganligi to'g'risidagi sertifikatga, malaka komissiyasining ijobiy xulosasiga ega bo'lgan taqdirda beriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida nomzodni davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlash orqali amalga oshiriladi, bundan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini qonunchilikda nazarda tutilgan boshqacha tartib bo'yicha egallash mustasno.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga quyidagi rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin:

- ✚ lavozim maoshiga qo'shimcha ustamalar;
- ✚ pul mukofoti;
- ✚ navbatdan tashqari malaka darajasini berish;
- ✚ minnatdorchilik e'lon qilish;
- ✚ qimmatbaho sovg'a, esdalik yoki ko'krak nishoni yoxud yorliq bilan mukofotlash.

Davlat fuqarolik xizmatchisi alohida xizmatlari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlat tomonidan ularga mehnat ta'tili va ijtimoiy ta'tillar berish, hayoti va sog'lig'ini

majburiy sug'urta qilish, hayotiga, sog'lig'iga va mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, davlat pensiya ta'minoti orqali ta'minlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga quyidagi ijtimoiy himoya choralari kafolatlanadi:

- + tibbiy xizmat ko'rsatish;
- + rotatsiya tartibida boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlarning, shu jumladan yashash va transport xarajatlarining o'rnini qoplash;
- + xizmat uy-joylari, xizmat transporti bilan yoki uy-joy va transport xarajatlari uchun pulli kompensatsiya bilan qonunchilikda belgilangan hollarda hamda tartibda ta'minlash.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga qonunchilikka muvofiq boshqa ijtimoiy himoya choralari ham qo'llanilishi mumkin. Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga qonunchilikda belgilangan asoslarda va miqdorlarda to'lanadigan barcha turdagi ijtimoiy nafaqalar tatbiq etiladi.

Bunda talaba o'z fikrlarini qog'ozga tushurish, kerakli so'zlarni tanlash hamda fikrlarini adabiy yoki huquqiy bayon etish ko'nikmasi rivojlanadi. Bunda talaba(lar)ga muammoli vaziyatni hal etishi uchun ma'lum vaqt, kerak bo'lsa to'liq dars vaqtini ajratish kerak bo'ladi. Chunki muammoli vazifalar qonunlarni qidirib topishni, tegishli moddalarni aniqlashni, ularni tahlil qilishni talab qiladi. Shuning uchun ushbu masalada talabani shoshiltirmaslik joyiz. Asosiysi natija!

Masalan muammoli vaziyatga oid quyida bir qator misollarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

1-kazus

2018 yil may oyida Buxoro viloyati Buxoro shahar moliya bo'limining boshlig'i A.Axmedov attestatsiyadan o'tgandan so'ng, Buxoro viloyati Qorako'l tumani moliya bo'limi boshlig'i lavomiga tayinlandi. 2019-yil mart oyida Romiton tumani moliya bo'limi boshlig'i K.Raimov o'z lavozimidan ozod etilgandan so'ng, ushbu lavozimga A.Axmedov tayinlandi. 2019-yilning mart oyida A.Axmedov attestatsiyadan o'tishi belgilandi. Axmedov esa bundan bir yil oldin attestatsiyadan o'tganligi, bu attestatsiyadan o'tishi qonunga zid ekanligini aytib, norozilik bildirdi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering, degan mazmundagi kazus berilgan bo'lsa, tabala bunda fabulaning har bir gapini tahlil qilishni, jumladan huquqiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Hususan, "2018-yil may oyida Buxoro viloyati Buxoro shahar moliya bo'limining boshlig'i A.Axmedov attestatsiyadan o'tgandan so'ng, Buxoro viloyati Qorako'l tumani moliya bo'limi

boshlig‘i lavomiga tayinlandi”. Bunda talaba tahminan quyidagi fikrlarni yozishi mumkin. Bunda A.Axmdovning attestatsiyadan o‘tishi huquqiy jarayon hisoblanib, bizning nazarimizda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinishi kerak. Shu bilan birga 2018-yilda xali O‘zbekistonda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinmaganligini e‘tiborga olsak, biz ta‘kidlagan huquq normasi ishbu amaliy holatda qo‘llab bo‘lmaydi.

Tegishincha, Mehnat kodeksi normalarini mazkur, dastlabki gapning huquqiy asosi bo‘lishini ta‘kidlashimiz mumkin. Hususan Mehnat kodeksining tegishli moddalarida attestatsiya masalalarining asosiy jihatlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Uning tashkiliy va texnik jihatlari esa, odatda qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishini ta‘kidlash joiz.

Shu tariqa, talaba aniq huquq normasi va uning moddasini keltirmasa ham o‘zi asoslay olgan fikr mulohazalari bilan kazusni huquqiy echim yo‘li sari olib borishi lozim.

Quyida talabaga boshqa kazuslarni ham mustaqil ishlash uchun berib, uni vaqti-vaqti bilan to‘g‘irlab, yonaltirib borishi kerak.

2-kazus

Chilonzor tumani Xalq ta‘limi bo‘limi boshliq o‘rinbosari N.Miraliyeva 2015-yil may oyida attestatsiyadan o‘tdi. 2015-dekabr oyida bola parvarishlar ta‘tiliga chiqdi. Oradan ikki yil o‘tib, 2017-yil dekabr oyida ishga chiqdi. Unga kadrlar bo‘lii tomonidan attestatsiyadan o‘tganiga uch yil to‘lishi munosabati bilan 2018-yil feval oyida attestatsiyadan o‘tishi haqida xabar berishdi. Ammo N.Miraliyeva endi ishga chiqqanligi. Attestatsiyadan esa ishga chiqqandan keyin 3 yildan keyin o‘tkazilishi kerakligini aytib, e‘tiro bildirdi. Lekin kadrlar bo‘limi inspektori Boshqarma boshlig‘ining buyrug‘iga attestatsiyadan o‘tkaziladigan xodimlar sifatida uning familiyasi kiritilganligini aytib, attestatsiyadan o‘tishi shartligi, agar attestatsiyadan o‘ishdan bosh tortsa, uni attestatsiyadan o‘tmagan deb hisblanishi haqida ma‘lumot berildi. Shundan so‘ng N.Miraliyeva bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligiga shikoyat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

3-kazus

Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari katta leytenant V.Yusupovga 2018-yil may oyida navbatdagi maxsus unvon berish uchun attestatsiyadan o‘tishi haqida xabar berildi. Ammo V.Yusupov 2016-yilda attestatsiyadan o‘tganligi, undan tashqari hozirgi kunda xizmat safarida ekanligi, attestatsiya belgilangan kuni yetib kela olmasligini aytdi. V.Yusupov attestatsiya belgilangan vaqtda yetib kela olmadi. Attestatsiya komissiyasining xulosasiga ko‘ra, unga navbatda unvon berilishi rad etildi.

Shuningdek, uni egallab turgan lavozimiga muvofiq emas deb topildi. Attestatsiya komissiyasining ushbu qaroridan norozi bo'lgan V.Yusupov O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qildi. Vazirlik tomonidan chiqarilgan qaror noqonuniy deb topilib, attestatsiya komissiyasining qarori bekor qilindi. Shuningdek, qaytadan navbatdagi attestatsiya o'tkazilishi belgilandi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Odatda dars jarayonida pedagog dastlabki kasusni o'zi namuna bo'lib ko'rsatib berishi kerak. Songra boshqa kazuslarga javobni talabalardan talab qilishi mumkin bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlat fuqarolik xizmatchilari egallab turgan davlat lavozimidan qat'iy nazar rioya qilishi shart bo'lgan kasbiy xizmat odob-axloq normalari, prinsiplari va qoidalarini tahlil qiling.

2. IRAC uslubi to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring.

3. Keyslar davlat xizmati masalalarni tahlil qilishda qanday qo'llanilishi kerak deb o'ylaysiz?

4. O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini boshqarishning huquqiy asoslarini tahlil qiling.

5. Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini tahlil qiling.

6. Davlat organining tashabbusi bilan qanday asoslarga ko'ra davlat fuqarolik xizmat munosabatlarinig tugatilishi mumkin.

5-mavzu. Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizm

Reja:

1. Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizmning huquqiy asoslari.
2. Siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar.
3. Mavzuga doir amaliyot materillarini tahlil qilish.

Tayanch iboralar: inson huquqi, yashash huquqi, Konstitutsiya, konstitutsiyaviy nazorat, jamoatchilik nazorati, odil sudlov.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixiy tajribasi haqida so‘z yuritishdan oldin “Konstitutsiya nima?” degan savolga javob berish maqsadga muvofiq.

Konstitutsiya — xalq irodasi va erkinligini ifodalovchi, yaxlit jamiyatning yoki alohida ijtimoiy guruhlarning manfaatini konstitutsiyaviy tuzum asosida mustahkamlovchi, shaxsning huquqiy maqomi va uning davlat bilan o‘zaro munosabatining huquqiy asosini belgilovchi yoxud davlat qurilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, ommaviy-huquqiy organlar (davlat va mahalliy hokimiyat hamda o‘zini o‘zi boshqarish) organlari, saylov tizimi, sud tizimining huquqiy maqomini belgilovchi mamlakatning asosiy qonunidir.

Insonni ulug‘lash va uning huquqlarini hurmat va muhofaza qilish g‘oyasi muqaddas kitoblar “Avesto” va musulmon huquqining asosiy manbalaridan bo‘lgan – Qur‘oni karim, Sunna, Ijmo, Qiyosda har tomonlama o‘z ifodasini topgan.

Ko‘hna o‘timishimizga nazar tashlasak, insonning sha’ni, qadr-qimmatini, obro‘sigina va boshqa moddiy va nomoddiy ne‘matlariga bo‘lgan huquqlari nafaqat qonun-qoidalar, shuningdek, axloqiy normalar vositasida muhofaza qilingan. Bu boradagi dastlabki huquqiy, axloqiy manba – zardushtiylik dinining muqaddasi kitobi “Avesto”dir. O‘sha davrdagi yangi diniy-falsafaiy, huquqiy ta’limot sifatida “Avesto” xalq va arkoni davlat uchun siyosiy va huquqiy tafakkur mezoni hamda amaliyot uun manba bo‘lib xizmat qilgan. Zardo‘st ta’limotiga ko‘ra, insonni hayotdan mahrum qilishga hech kimning haqqi yo‘q, deyiladi.

“Avesto” xalqimiz tarixining eng qadimgi davrlardagi hayoti, turmush tarzi, axloqiy qoidalari, urf-odatlarini, diniy e’tiqodi, kasbiy xislatlari, boshqa xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy munosabatlar o‘rnatish tartiblari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ilk bor aynan shu kitobda inson va u bilan

bog'liq huquqiy muammolar, jamiyat a'zolarining haq-huquqlari va ularni muhofaza qilish kerakligi tilga olinadi. "Avesto"ga ko'ra, insonning asosiy burchi haqqoniy hayot tarzi bo'lishi kerak. Samimiyat, xolislik, o'zaro hurmat kabi qadriyatlar insonlar o'rtasidagi ustuvor axloqiy qadriyatlarga aylanishi kerak. G'arazgo'ylik, hasadgo'ylik, manmanlik, fitna-fasod Avesto'da qattiq qoralanadi.

Musulmon huquqida inson huquqlari va erkinliklari o'ziga xos mafkuraga asoslanadi. Islomda qonunning ijodkori va insonning barcha huquqlari manbai Xudo va faqat Xudo hisoblanadi, deb tan olinishi va bunga astoydil e'tiqod qilinishi tufayli inson huquqlari har tomonlama e'zozlanadi va muhofaza qilinadi. Ularning vujudga kelishi ilohiy ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli inson huquqlari har tomonlama e'zozlanadi va muhofaza qilinadi. Ularning vujudga kelishi ilohiy ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli hech qanday rahbar yoki hukumatning, hech qanaqa assambleya yoki hokimiyatning Xudo in'om qilgan inson huquqini qandaydir usul bilan cheklashiga, bekor qilishiga yoki o'zgartirish kiritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Inson huquqlarini hurmat va muhofaza qilishga qaratilgan insonparvarlik g'oyalari o'tmishdagi davlatchiligimiz taraqqiyotida ham o'z ifodasini topgan. Qadimgi So'g'diyona va Xorazm davlatchiligidan tartib, Somoniylar, Xorazmshohlar, Temur va temuriylar davlatida inson huquqlari yuksak darajada e'zozlangan. Bu davlatlarning boshqaruvida inson huquqlariga, ijtimoiy adolatga, qonun ustuvorligiga amal qilingan.

"Temur tuzuklari"da inson huquqlari qadrlanib, ularni himoya ilish huquqiy jihatdan ta'minlangan, oddiy fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kafolatlangan. "Agar (har yer va elning) amaldorlari va kalontorlari oddiy fuqaroga jabr-zulum qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo'lsa (bunday vaqtlarda), yetkazilgan zararni kalontorlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar", deyiladi "Temur tuzuklari"da.

Bugungi O'zbekiston qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Konstitutsiyaviy qoidalarning mustahkamligi va o'zgarmasligi muammolari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga 2003-yilga qadar deyarli o'zgartirish kiritilmadi. Bu ko'proq o'sha paytdagi o'tish davri jamiyatning transformatsiyalashuvi jarayoni bilan bog'liq bo'lgandi. Ya'ni eski bir tizimdan

yagisiga o'tish jarayonidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy yo'nalishlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq edi.

Barcha konstitutsiyaviy qoidalar mustahkam va barqaror emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham jamiyat bilan birgalikda rivojlangani bois zarurat tugilsa, u ham o'zgarib, takomillashishi kerak. Zamon, davr va jamiyat o'zgargach inson ehtiyojlari ham o'zgaradi. Demak, Konstitutsiyani takomillashtirishga ham zarurat tug'ilar ekan. Mutaxassis olimlarning e'tiroficha, respublikamizda Konstitutsiyaning barqarorligi unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritmaslik bilan emas, aksincha uni jamiyat talabiga moslashtirish, takomillashtirishda ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish jarayoni ham bevosita davlat va jamiyat boshqaruvi, yangi siyosiy-huquqiy islohotlar, ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etishga ehtiyoj tug'ilishi natijasida tadrijiylik asosida amalga oshirilib kelinayotganini nazardan qochirmaslik kerak. Xususan, 2003-yildan boshlab Konstitutsiyamizni takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlar asosan:

1. Parlament maqomi, tuzilishi va faoliyati.

Prezident maqomi va vakolatlari.

Vazirlar Mahkamasining maqomi va faoliyati.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati.

Sud tizimi.

Saylov tizimi.

Shaxs huquqi, jamoatchilik nazoratini isloh etishga bag'ishlandi.

Konstitutsiyani takomillashtirish masalasi konstitutsiyashunos olimlar tomonidan tanqid qilingani ham bejiz emas. Masalan, rus olimi M.Mityukov Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga qarshi munosabat bildirib, buni siyosiy va huquqiy g'araz deb atab, "bizning jamiyatimizdagi fojia Konstitutsiyani takomillashtirishdan emas, balki uning muhim demokratik imkoniyati, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va davlat institutlarining yuridik imkoniyatlarining ochib berilmaganligida ko'rinadi, deb yozadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qonunlarimizning asosiy manbai sifatida rivojlantirish va takomillashtirish mohiyatan hamda bosqichma-bosqichlik asosida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

1. Konstitutsiya va qonunlarni takomillashtirish. Yangi qonunlarni qabul qilish.

2. Konstitutsiyaviy normalarning ta'sirini oshirish.

3. Konstitutsiyaviy normalar va vakolatlarning to'liq amalga oshirilishiga erishish.

4. Konstitutsiyaviy huquq doirasida ilmiy izlanishlarni kuchaytirish va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo'lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, mustaqil demokratik davlatimiz, erkin jamiyatimizning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari Asosiy qonun – Konstitutsiyada to'liq ifoda etiladi. Mustaqillik yillarida Konstitutsiya asosida inson qadri ulug'lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi, bu borada boy tajriba to'plandi.

O'zbekiston bugun o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uning maqsadi, ko'lamiga monand va munosib bo'lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo'lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o'ta ahamiyatlidir, adolatli jamiyat qurish yo'lida ulkan qadamdir. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish, bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining mazmun-mohiyatiga chuqur singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida "Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir", deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda, referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko'rilmagan hajmda jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan sinchkovlik bilan muhokamadan o'tkazilganligi, buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ushbu takliflar asosida shakllanganligi yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi xalq ovoz berganidan keyin qo'shimcha hujjatlarsiz yoki tartibtaomillarsiz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan referendum yakunlari rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bevosita xalq tomonidan qabul qilinsa, tariximizda to'g'ridan-to'g'ri amalga

kiritiladigan birinchi hujjat bo'ladi. Buning eng ahamiyatli tomoni, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga munosabat bildirilganida barchaning ovozi bir xil maqomga va kuchga ega ekanligidir. Ya'ni, Konstitutsiya loyihasini muhokama qilish jarayonida fuqaro qaysi kasbda, qanday lavozimda ekanligidan qat'i nazar, har bir insonning tanlovi va fikri ahamiyatli va hal qiluvchi bo'ladi. Darhaqiqat, Yangi O'zbekiston sharoitida yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining eng muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog'liq o'zgarishlar bilan muhim ahamiyatga ega. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida huquqiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilanmoqda.

Davlat faoliyati qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash uchun Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi belgilanmoqda hamda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda. Bu borada ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalash, uy-joyga ega bo'lishga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirilishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yangi qoidalar ham yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz loyihasida belgilanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida barchaning – bir tomondan davlat va uning organlari tizimi, ikkinchi tomondan inson, fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlari aniq va lo'nda qilib, hamma uchun tushunarli tarzda bayon etilayotganligi O'zbekistonning yanada barqaror bo'lishiga va har qanday tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon bo'la olish qobiliyatini mustahkamlashga asos bo'ladi.

Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekanligi uning siyosiy-huquqiy hujjatligi, parlamentda qabul qilinishining alohida tartibiga ega ekanligi yoki umumxalq ovozi (referendum) asosida qabul qilinishi, davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy strategik yo'nalishlarini, insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilashida ham namoyon bo'ladi. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egaligini belgilovchi normalar Yaponiya, Singapur, Braziliya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Ushbu qoida barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslarni Konstitutsiyaga muvofiq ish ko'rishga, qarorlar qabul qilishga majbur qiladi, fuqarolarning Konstitutsiyada

belgilangan huquq va erkinliklarining boshqa qonun hujjatlari bilan cheklanishi yoki chegaralanishining oldini oladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil), Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiya (1984-yil) kabi xalqaro hujjatlarga asosan inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning or-nomusi, shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga olib keladigan, hayoti va sog'ligini xavf ostiga qo'yadigan, unga jismoniy, ma'naviy yoki ruhiy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish taqiqlanishi shaxs sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishning asl mohiyatini tashkil etadi. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, ayniqsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'z faoliyatida har qanday holatda ham inson sha'ni, or-nomusi, va qadr-qimmatiga daxl qilmasligi, kamsitmasligi, aksincha, ularga insoniy munosabatda bo'lishlari lozim. Masalan, shaxsiy tintuv tintilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan mutaxassis hamda xolislar ishtirokida o'tkazilishi ham inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan maxsus qoida hisoblanib, uni buzish tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, milliy qonunchilikda inson sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsa, fuqarolik qonunchiligida esa ularga yetkazilgan zararni qoplashga doir maxsus normalar nazarda tutilgan.

Ta'kidlash kerakki, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12, 19, 21, 22-moddalarida insonning huquq va erkinliklariga nisbatan faqat qonunda nazarda tutilgan davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi va ma'naviyatini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar qo'llanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgartirishga ko'ra, fuqarolarning huquqlarini cheklash faqat qonun bilan belgilangan tartib va asosda amalga oshiriladi. Jamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda inson huquq va erkinliklarini cheklash qonunda belgilangan tartib va asoslarga muvofiq amalga oshirilgandagina qonuniy hisoblanadi. Huquqlarni cheklash asoslari esa, avvalambor, jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlashga, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Masalan, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonunga asosan 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli O'zbekistonda karantin rejimi e'lon qilinib, aholining harakat erkinligi qat'iy cheklandi va bu cheklov aholi salomatligini saqlash, pandemiyaning keng tarqalishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshirilgan edi. Ushbu normaning Konstitutsiyamizda aks ettirilishi belgilangan holatlarda individual huquqlar, ya'ni alohida shaxsga tegishli huquqlardan

jamoaviy huquqlarni ta'minlash ustuvor ekanligini nazarda tutadi. Bunda aholi salomatligi, turli xil xavf-xatar va tahdidlardan xalqimizni himoyalash, barqaror rivojlanishni ta'minlash va farovonlikka erishish maqsadida bunday cheklovlar nazarda tutiladi.

Har bir davlat o'z fuqarosi qayerda bo'lishidan qat'i nazar, uni himoya qilishga majburdir. Shu nuqtai nazardan, hech bir davlat o'z fuqarosini hududidan majburan chiqarib yuborilishiga yoki boshqa davlatga berishga yo'l qo'ymaydi. Aynan shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 23-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi 41 mumkin emas", degan insonparvar norma belgilanmoqda. Fuqaroning o'z mamlakati hududidan majburiy chiqarib yuborilishi deganda, uning erki-xohishiga zid ravishda siyosiy, diniy, milliy, mafkuraviy, madaniy va boshqa qarashlari yoki faoliyatini yoxud boshqa vajlarni asos qilib yashab turgan mamlakatidan majburiy chiqarib yuborilishini anglatadi. Bundan tashqari, surgun yoki badarg'a kabi jazo chorasi sifatida ham o'z uyini tark etishga majbur qilinishi tushuniladi. Sho'rolar davrida siyosiy tuzumga yoqmaydigan yoki o'zgacha fikrlaydigan fuqarolarni Vatanidan tashqariga surgun qilish amaliyoti bunga yorqin misol bo'la oladi. 1930-yillarda mamlakatimizda 5,5 mingdan ziyod oilalar siyosiy tuzumning qurbonlariga aylanib, "quloq" qilinganligi, zo'ravonlik bilan o'z vatanidan, qarindoshurug'laridan judo etilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Inson huquqi va qadrqimmatini oyoq osti qiluvchi amaliyotlar tarixda bo'lganligini inobatga olib, davlat o'z fuqarolarini jazo yoki siyosiy chora sifatida o'z hududidan majburan chiqarib yuborishi mumkin emasligi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 4-protokoli hamda Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasida ham to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. O'z fuqarosini boshqa davlatga bermaslik (nonextradition) deganda, xalqaro huquqda davlat o'z fuqarosini sodir etgan jinoyati uchun boshqa davlatga ushlab bermasligi tushuniladi.

So'nggi o'quv yillarida shakllangan amaliyotga ko'ra, dars paitida amaliy materiallar sifatida avvalgi davrlardagi kabi o'qituvchilar tomonidan kazuслar "ijod" qilinmasidan, bakim amaliyotda yuz berayotgan ishlardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bunda, ijtimoiy tarmoqlarda aks etgan turli bahsli holatlar, OAV orqali uzatilayotgan turli nizoli holatlarni tahlil qilish mumkin.

Bunday yondashuv talabalarda real amaliyotni tahlil qilish ko'rinishida juda qiziqarli bo'lishi, unga yechim topishi va huquqning inson hayotida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishini anglab yetishiga zamin yaratadi. Shu jumladan huquqning eng katta sohasi bo'lgan Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarni ham tahlil qilish talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Konstitutsiyaviy qadriyatlar shunchaki Konstitutsiyada aks etish bilan cheklanmay, balki o'zining hayotiy ifodasini topishi kerak. Bunga konstitutsiyaviy qadriyatlarni ta'minlash mexanizmi orqali erishish mumkin.

Quyidagilarni konstitutsiyaviy qadriyatlarni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar qarash maqsadga muvofiq.

Huquq ijodkorligi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas. Konstitutsiya asosida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquq ijodkorligi orqali amalga oshiriladi. Huquq ijodkorligi davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquq normalarini qabul qilish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan faoliyatidir. Huquq ijodkori normativ-hujjatlar loyihalarini tayyorlash va ularni qabul qilishda konstitutsiyaviy qadriyatlarni hisobga olishi kerak bo'ladi.

Konstitutsiyaviy nazorat. Konstitutsiyaviy nazorat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan qonun hujjatlarining konstitutsiviyeligini baholash va aniqlashga qaratilgan faoliyatdir. Konstitutsiyaviy nazorat orqali kerak bo'lsa huquq ijodkorligi natijasida konstitutsiyaviy qadriyatlarga zid tarzda qabul qilingan huquq normalari konstitutsiyaga zid deb topilishi mumkin.

Parlament nazorati. Parlament nazoratining obyekti davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati parlament nazorati obyektidir. Parlament nazorati orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ijro etishga qaratilgan faoliyatini o'rganish orqali konstitutsiyaviy qadriyatlar mos keluvchi qonunosti hujjatlarining qabul qilinish holati bilan tanishish va buni tegishli qaror qabul qilishda inobatga olishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati. Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda jamoatchilik manfaatlarini, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyektlaridan biri bo'lib, bu orqali konstitutsiyaviy qadriyatlarning ta'minlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Odil sudlov. O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari

to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. Inson huquqlari va erkinliklari singari konstitutsiyaviy qadriyatlar poymol etilganda odil sudov orqali ularning tiklanishiga erishish mumkin.

Davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Yuksak huquqiy ong va madaniyat barcha jamiyat a'zolari tomonidan konstitutsiyaviy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini tushunish va ularga amal qilishda asosiy omildir. Bunda, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyati muhim ahamiyatga ega. Zero, davlat xizmatchilarining faoliyatida konstitutsiyaviy qadriyatlarning hurmat qilinishi va poymol etilmasligi uchun, eng avvalo, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyati yuksak darajada bo'lishi zarur. Buning uchun esa davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Saylov jarayoni va subyektlari.
2. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibini samarali tartibga solishda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilinishining ahamiyati nimadan iborat?
3. Nohukumat sektorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qanday turlari mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi tartibini izohlab bering.
5. Sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarni saylash va tayinlash tartibini muhokama qiling.

6-mavzu Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish mexanizmlari

Reja:

1. Ma’muriy islohotlarining ustuvor yo‘nalishlari. Davlat va mahalliy boshqaruv tizimining bugungi holati.

2. Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish.

3. Davlat boshqaruvi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar, global indikatorlar va ilg‘or xorijiy tajriba.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash va davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma’lumotlar bazalari yaratildi. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun www.license.gov.uz, «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishni ta’minlash uchun birdarcha.uz veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko‘rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subektlarini ro‘yxatga olishning tartib-taomillari 4-martaga, ro‘yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi. Shu bilan birga, so‘nggi yilda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarning obektiv tahlili, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, aholi bilan ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot natijalari mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli hal etishga ehtiyoj vujudga kelganligini ko‘rsatdi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli Bu, birinchi navbatda, quyidagi holatlarga taalluqlidir:

- bir qator idoralarning vazifalari deklarativ xususiyatga egaligi va ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi;

- faqat holatlarni qayd etish va statistikani to‘plashdan iborat bo‘lib qolgan faoliyatni baholashning samarasiz tizimi va bu ko‘pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi;

- hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib keluvchi davlat funksiyalarining haddan tashqari markazlashtirilganligi;

byurokratlashtirish va yuqori sarf-xarajatlarga olib kelayotgan innovatsion rivojlanishning past darajasi;

- xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalari qo'shib olib borilishi, sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi imtiyoz va preferensiyalarni tanlab taqdim etish amaliyoti;

- hududlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim rahbarlarda lozim darajada mas'uliyat va tashabbuskorlikning mavjud emasligi.

Ushbu kamchiliklar iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu borada Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmon 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblandi hamda mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo'nalishi belgilab berildi.

Birinchi yo'nalish ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha komissiya hamda davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi.

Komissiya ishchi guruhlar tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etadi, shuningdek, Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi va «Yo'l xaritasi»ning to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat olib boradi.

Shu bilan bir qatorda, Komissiyaga davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish bo'yicha takliflar tayyorlash jadvalini tasdiqlash vazifalari yuklatildi, unga asosan 100 dan ortiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish rejalashtirildi.

Ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan.

1. Kutilayotgan islohotlarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va samarali hal etishga qodir bo'lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendensiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini yaratish, shu jumladan, quyidagilar orqali yaratish:

- ortiqcha va o'ziga xos bo'lmagan vazifa, funktsiya va vakolatlarni bartaraf etish, takrorlash va parallelizmni tugatish hisobiga davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish hamda nomarkazlashtirish;

- davlat boshqaruvini byurokratiyadan xoli qilish va uning sarf-xarajatlarini pasaytirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining faoliyat samaradorligini va shaffofligini oshirish;

-strategik rejalashtirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar tizimini joriy etish;

- iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish hamda boshqaruvning sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va aholining ishchanlik faolligini oshirishga qaratilgan bozor mexanizmlarini kengaytirish;

- jamoatchilik va parlament nazoratining, eng avvalo, korrupsiya ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan samarali shakllarini joriy etish.

2. Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini yanada oshirish, shu jumladan, quyidagilar orqali yanada oshirish:

davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aniq tartibga solishga qaratilgan ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish;

jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, so'zsiz, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga yangi kuch bag'ishlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ulug'vor g'oyani hayotga to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

Ma'muriy islohotlar doirasida ixcham boshqaruv tizimini shakllantirishda adliya organlari va muassasalarining o'rni beqiyos. Bu borada «Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada

oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida»gi Prezident Farmoni qabul qilinganligi so'zimiz isbotidir.

Farmonga ko'ra adliya organlarining quyidagi qo'shimcha 4 ta faoliyat yo'nalishlari belgilandi:

aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rib borish;

joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish;

fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirib borish;

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish.

Farmon bilan, tuman (shahar) adliya bo'limlariga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi:

aholi tomonidan ko'tarilayotgan dolzarb muammolarni ko'rib chiqish va hal etish uchun har oyda mahallalarda «Adliya kuni» tadbirlarini o'tkazish. Bunda olis hududlardagi mahallalarda har oyda kamida ikki marotaba sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatib borish;

uyma-uy yurish va «Huquqiy ko'mak» aksiyalarini o'tkazish orqali fuqarolar kundalik hayotida aniqlanadigan huquqiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

«mahalla yettiligi»ga qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini oddiy va xalqchil tilda yetkazish, ular tomonidan «Online-mahalla» platformasiga kiritilgan aholining kundalik hayotidagi huquqiy masalalarga oid muammolarini hal etib borish;

aholiga, avvalambor «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» hamda «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimiga kiritilgan fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni, shuningdek tadbirkorlarni qonunchilikda belgilangan imtiyozlar, preferensiyalar, subsidiyalar, grantlar hamda ulardan foydalanish tartibi haqida xabardor qilish;

davlat organlarining tuman (shahar) bo'linmalari, hokimliklar hamda mahallalarda yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish. Farmon bilan, aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda qo'shimcha qulayliklar yaratilmoqda:

– 2024-yil yakunigacha davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni biometrik identifikatsiya qilish – Face-ID usuli ishga tushiriladi. Bunda, davlat xizmatlari

markaziga kelgan fuqarolardan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish talab etilmaydi;

– fuqarolar davlat xizmatlari markazlari hamda notarial idoralar orqali Mobile-ID tizimida bepul identifikatsiya qilinadi;

Mobile-ID – shaxsni uning telefon raqami orqali aniqlash tizimi.

– yangi davlat xizmatlari ko‘rsatishni joriy etishdan avval ular, zaruratga ko‘ra, ma‘lum hududda 6 oylik sinovdan o‘tkaziladi;

– davlat xizmatlari markazlari va Yagona portal orqali ko‘rsatiladigan 13 ta yangi xizmatlar joriy etilmoqda hamda 18 turdagi xizmatlar proaktiv va kompozit shakllarga o‘tkazilmoqda;

– ayrim davlat xizmatlaridan mahalladan chiqmay foydalanish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarga agent sifatida 15 turdagi davlat xizmatlarini ko‘rsatishga ruxsat beriladi;

Soliq qarzi mavjud emasligiga oid ma‘lumotnomalarni olish, xalqaro imtihon bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini qoplab berish va boshqalar.

– aholi gavjum joylarda, mahallalarda 24/7 rejimida onlayn davlat xizmatlarini ko‘rsatadigan interaktiv kiosklar bosqichma-bosqich o‘rnatiladi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ma‘muriy islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, davlat organlarining sohaga oid bo‘lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ularning tuzilmasi o‘rtacha 15 foizga maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida 40 ta rahbar o‘rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi.

Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yaxshilash maqsadida 30 ga yaqin turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish bekor qilindi.

“Elektron hukumat” tizimining foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralarning 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunga qadar ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish asoslari hududlarni rivojlantirish sur‘atlarini pasaytiruvchi, joylarda to‘planib qolgan muammolarning o‘z vaqtida hal etilishini ta‘minlamayapti. Ijro etuvchi hokimiyat organlari vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, qo‘mitalar, markazlar, inspeksiyalar huquqiy maqomining ayrim holatlarda aniq chegaralab

qo'yilmaganligi ularning davlat apparatidagi aniq o'zni va rolini aniqlash imkonini bermayapti.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasida ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o'tishni taklif qilinishi, hozirgi kunda davlat apparatida takrorlanish ko'p, keraksiz shtatlar borligi, markazlashuv yuqori ekanligi, oqibatda bugungi murakkab masalalarga to'g'ri yechim topish uchun ortiqcha vaqt, kuch va resurs sarflanayotganligi qayd etildi. Shuningdek, mazkur murojaatnomada davlatimiz rahbari davlat xizmatchilari sonini bosqichma-bosqich 30-35 foizga qisqarishi va iqtisod qilinadigan mablag'lar ijtimoiy masalalarga yo'naltirilishini ta'kidlab o'tdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi o'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmonining 11-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi kengashining Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarining birinchi bosqichi doirasida 2023-yil 1-yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining sonini 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqartirish bo'yicha taklifi ma'qullanishi belgilandi. Davlat organlarining sohaga oid bo'lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ularning tuzilmasi o'rtacha 15 foizga maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida 40 ta rahbar o'rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi. Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to'siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yaxshilash maqsadida 30 ga yaqin turdagi lisenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish bekor qilindi.

"Elektron hukumat" tizimining foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralarining 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida davlat boshqaruvi idoralari faqat vazirlik, qo'mita, agentlik va inspeksiyadan iborat bo'ladi. Bunda, vazirlik tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lib, tarmoqqa kiruvchi qo'mita, agentlik va inspeksiyalarga rahbarlik qiladi. Bu esa o'z navbatida, davlat organlarining bir-birini takrorlovchi funksiyasga barham beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-son qarorining 3-bandiga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan boshlab respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va ularning

o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbari vazifasini bajarishi taqiqlanishi belgilandi. Bundan tashqari, mazkur qarorda belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan funksiyalar yagona reestrini elektron tarzda yuritish imkonini beradigan “Davlat funksiyalari” avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi yuritilishi hamda vazirlik tizimida idoraviy buyruq, qaror va farmoyishlarni “E-qaror” elektron tizimi orqali qabul qilish va e‘lon qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutilgan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko‘rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas‘uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo‘naltirish, shuningdek, Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Davlat boshqaruvi samaradorligi – davlat boshqaruvi tizimi tomonidan erishilgan natijalarning belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligi darajasini hisobga olgan holda, davlat boshqaruvi tizimi tomonidan muayyan funksiyalarni bajarishning mumkin bo‘lgan, shuningdek, haqiqatda olingan natijalarining har tomonlama rivojlanishdagi tavsifidir.

Samaradorlikni uch tomondan ko‘rish mumkin:

– natijada samaradorlik – xarajatlar, ya‘ni daromad va xarajatlar, xarajatlar va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– samaradorlik haqiqiy mahsulotlarning standartlarga (normalarga) nisbati sifatida;

– ko‘zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat sifatida samaradorlik.

Melkov davlat boshqaruvi sifatini baholash parametrlari va mezonlarini tanlash muammosi haqida gapiradi, u tegishli me‘yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan parametrlar va mintaqaviy hokimiyat qarorlarining samaradorligi har doim ham bir-biri bilan statistik jihatdan bog‘liq emasligini ta‘kidlaydi (Budjet kodeksi va boshqa hujjatlar asosida qat‘iy belgilangan budjet siyosati bundan mustasno).

Davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha Kapoguzov va Suleymenova; aholiga hayotning turli sohalarida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va hokimiyat organlari faoliyatidan qoniqishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning obyektivligi borasida Fateyeva; ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashni takomillashtirish bo‘yicha Apkaniyeva; samaradorlikni mezonlar asosida baholash Dobrolyubova, Yujakov, Aleksandrov; Davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholash

tizimi to'g'risida Veld; Davlat boshqaruvi faoliyatining samaradorligi omillari Anvarova kabilarning tadqiqotlarida bayon etilgan.

Samaradorlik nuqtayi nazaridan davlat hokimiyati organlari faoliyatining ijtimoiy yaxlitlik va tizim sifatida qaraladigan har qanday jihati (tomoni) yoki xususiyatiga baho berish mumkin. Faoliyatning ajralmas va tizimli tavsifi sifatida samaradorlik nafaqat ko'rsatkich, balki tashkil etilishi va boshqarilishi kerak bo'lgan jarayondir. Samaradorlikni baholash davlat organlari, tarkibiy bo'linmalari va davlat xizmatchilari faoliyatini baholashning uzluksiz, umumiy jarayoni bo'lishi kerak, uning mazmuni: samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini tanlash; samaradorlik standartlarini ishlab chiqish (standartlar va protseduralar); samaradorlikni o'lchash; haqiqiy ishlash holatini ushbu standartlar talablari bilan taqqoslash.

Har bir tashkilot o'z oldiga ma'lum maqsadlar qo'yadi. Yakuniy natijalarni baholash jarayonida ma'lum nomuvofiqliklar aniqlanishi mumkin. Tekshiruv natijalariga ko'ra boshqaruv jarayonini to'g'rilash yoki rejalarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Samaradorlikdan asosiy maqsad tashkilot faoliyatini doimiy ravishda yaxshilashdir. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi alohida ahamiyatga ega. Samaradorlik mezonlari umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Birinchi holda, ishlash natijalarining global jihati ko'rib chiqiladi. Resurslarni minimal sarflash bilan maksimal natijaga erishish muhim. Boshqaruv samaradorligining qisman ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi ishchilarning mehnat xarajatlari darajasi;
- moddiy resurslarni sarflashning oqilonaligi;
- moliyaviy resurslarning minimal qiymati;
- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish va amortizatsiyani tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- ishlab chiqarish xarajati (minimalda saqlanishi kerak);
- ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichi;
- ishlab chiqarish sexlarining texnik jihozlanishi (texnik taraqqiyotning zamonaviy yutuqlariga muvofiqligi);
- mehnat sharoitlari va tashkiliy tuzilma bilan belgilanadigan ishchilarning mehnat intensivligi;
- xarajat stavkasiga muvofiqligi va barchasiga to'liq mos kelishi, shartnoma majburiyatlari;
- xodimlar soni va tarkibining barqarorligi;
- bir xil xarajatlar darajasida ekologik qoidalarga rioya qilish.

Tashkilotni boshqarish samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

– samaradorlik rahbariyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish darajasida namoyon bo'ladi;

– tashkilotning barcha tuzilmalari va bo'linmalarining ehtiyojlarini to'liq qondiradigan moddiy va moliyaviy resurslarni tejamkorlik bilan sarflash qobiliyati;

– olingan iqtisodiy natijalarning ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xarajatlarga optimal nisbatiga erishish;

– to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita omillarning yakuniy natijaga ta'sir qilish darajasi.

Boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholash imkonini beruvchi aniq ko'rsatkichlardir. Ularni ikki guruhga ajratiladi:

1. Xususiy (mahalliy) mezonlar:

– tovar yoki xizmatlarni to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi ishchilarning

mehnat xarajatlari;

– moddiy resurslarning boshqaruv va boshqa maqsadlar uchun sarflanishi;

– moliyaviy resurslarning narxi;

– asosiy vositalardan foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar (maqsad, amortizatsiya,

samaradorlik va shu kabilar);

– aylanma tezligi;

– qoplanish muddati (kamaytirish yoki oshirish).

2. Sifat mezonlari:

– sifat ko'rsatkichlarining eng yuqori toifasiga kiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni

ko'paytirish;

– tashkilotning ekologik javobgarligi, shuningdek, zamonaviy energiya tejovchi


texnologiyalarni joriy etish;

– mahsulotlarning jamiyatning dolzarb ehtiyojlariga muvofiqligi;


– xodimlarning mehnat sharoitlarini, shuningdek, ularning ijtimoiy darajasini doimiy

ravishda yaxshilash;

– resurslarni tejash.



“Hukumat faoliyati samaradorligi” ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston 208 ta davlat orasida 116-o‘rinni egallab, avvalgi natijani 22 pog‘onaga yaxshilagan. O‘zbekistonning, boshqa davlatlar bilan solishtirganda, tutgan o‘rni to‘g‘risida Jahon banki tomonidan ham hisob-kitob qilingan reytingda tushuncha beriladi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 44,7 %ni tashkil etadi, ya’ni 44,7 % mamlakatlarda davlat boshqaruvi samaradorligi O‘zbekistonnikidan yomonroqdir. Ikki yil avval bu ko‘rsatkich ancha past – 34,1 % edi.



Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi bo‘yicha O‘zbekiston o‘z natijasini 19 pog‘onaga yaxshilab, 130-o‘ringa ko‘tarildi. Shu bilan birga, ko‘rsatkichning o‘zi ikki yil oldingi (-0,43 %)ga qaraganda yaxshiroq bo‘lsada, salbiy zonada (-0,24) qoldi. Bu ko‘rsatkich doimo yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgarib turadi. Reyting ham 31,6 %dan 39,2 %ga ko‘tarildi.

Nazariy savollar:

1. Davlat xizmatining mohiyati nimadan iborat?
2. Mamlakatimizdagi ma’muriy islohotlar mazmunini tushuntiring.
3. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.
4. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatining asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Davlat boshqaruvi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar haqida o‘z fikringizni bildiring?

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot. Davlat-huquqiy fanlarga nisbatan zamonaviy yondashuv

Amaliy mashg‘ulotlar masalalari

1. O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ko‘ra insonning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida qonunchilikda yuzaga keladigan, bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi belgilandi.

Savol:

1. *Siz ushbu fikrga qo‘shilasizmi? Fikringizni asoslang.*
2. *Qonunchilikdan misollar keltirgan holda masalani tahlil qiling.*

2. Ma‘lumki, 90-yillardagi darsliklarda Ma‘muriy huquqning Fuqarolik huquqidan asosiy farqi uning normalari imperativligida, subyektlarning noteng huquqiy munosabatlarga kirishishida deb tushuntirilar edi.

Bugungi kunda “xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilish kerak” degan yondashuvdan kelib chiqadigan bo‘lsak, 90-yillarda tarannum qilingan yondashuv o‘z ahamiyatini yo‘qotishi kerak.

Savol:

1. *haqiqatda ham har doim davlat organlari xalqqa xizmat qiluvchi rolida bo‘la oladimi?*
2. *Ushbu doktrinani atroflicha muhokama qiling!*

3. Ayrim olimlar Ma‘muriy huquqni “batafsillashtirilgan konstitutsiyaviy huquq” deb ta‘riflashadi. Zero, Ma‘muriy huquqda oliy, uning tarkibidagi va joylardagi ijro hokimiyati organlari vakolatlari o‘rganilib, ularning kundalik ishlari huquq normasi misollarida o‘rganiladi, davlat xizmatchilari maqomi va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shu bilan birga ushbu organlarning asosiy huquqiy maqomini belgilovchi qoidalar Konstitutsiyaviy huquqda ham o‘rganilishini e‘tiborga olib, Ma‘muriy huquqni “batafsillashtirilgan konstitutsiyaviy huquq” deb ta‘riflashadi.

Savol:

- 1. Siz ushbu fikrga qo‘shilasizmi? Fikringizni asoslang.**
- 2. Unday yondashadigan bo‘lsak, har qanday huquq sohasi bu “batafsillashtirilgan konstitutsiyaviy huquq” emasmi?**

3. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida mustahkamlangan qonuniylik va manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi kabi prinsiplar bir biriga qarshi bo‘lgan prinsiplar degan fikrlar mavjud. Zero, qonuniylik prinsipiga ko‘ra, har qanday masala qonunga asosan hal etilishi kerak. Ikkinchisi esa, manfaatdor shaxs foydasini ko‘zlamoqda.

Savol:

- 1. Ushbu prinsiplar to‘g‘risida Sizning fikringiz qanday?**
- 2. Ikkinchi prinsip inson manfaatlaridan kelib chiqilganmi?**

4. Ma’muriy sudlar tizimi Germaniyada ilk bor 1863-yilda, Baden shahrida tashkil topgan va qariib ikki yuz yildan buyun faoliyat yuritib kelmoqda. O‘tgan davr mobaynida Germaniya o‘z tarixida ikkita jahon urushini ko‘rdi va chuqur inqirozlar davrini o‘z boshidan o‘tkazdi. Shunga ko‘ra, ayrim jamiyatshunoslik sohasi olimlarida ma’muriy sudlar yoki boshqa inson huquqlarini ta’minlaydigan institutlar mamlakatni qiyinchiliklardan himoya qila olmaydi degan fikr mavjud.

Savol:

- 1. Sizning fikringiz qanday shu masalada?**
- 2. O‘zbekistonga ham zamonaviy Germaniyadek bo‘lishi uchun 150-yil kerakmi?**

2-amaliy mashg‘ulot. Ma’muriy tartib-taomillar

Amaliy mashg‘ulot materiallari

1. “Ma’muriy tartib taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2-moddasi ikkinchi qismida shunday norma muslahkamlangan: “Ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirishga doir u yoki bu munosabatlar maxsus ma’muriy tartib-taomillarni belgilovchi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollarda ushbu Qonun normalari qo‘llaniladi”. Ya’ni, “maxsus ma’muriy tartib-taomillarni belgilovchi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollardagina, ushbu Qonun normalari qo‘llaniladi”. Boshqacha ta’kidlaganda, qonun, qonunosti hujjatiga ustunlikni berayotganga o‘xshaydi.

Savol:

- 1. Ushbu normani sharhlang va o'z fikringizni bildiring.**
- 2. Qonunning, qonunosti hujjatini o'zidan ustun bo'lishini ta'kidlashi prinsiplarga zid emasmi?**

2. Aksariyat olimlar va shu sohada amaliy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ekspertlar "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun prinsiplarining amaliyotdan uzulgan holda yoki O'zbekiston jamiyati realliklariga mos bo'lmagan holda yoritilganligini ta'kidlashadi.

Xususan, ishonchning himoya qilinishi prinsipi O'zbekistonda amalda qo'llab bo'lmasligini ta'kidlashadi. Bunga sabab, qonunning o'zgarishi hususiy shaxslar manfaatlarining chetga surib turilishiga sabab bo'lishi ko'rsatilmoqda.

Savol:

- 1. Ushbu prinsip mazmun-mohiyati nimadan iborat?**
- 2. Siz ushbu fikrdagi olimlar fikriga qo'shilasizmi? Fikringizni asoslang.**

3. Odatda, hududiy issiqlik ta'minoti korxonalaridan ko'p qavatli turar joylar egalari issiq suv hisoblagichlarini navbatdagi standartlashtirish jarayonidan o'tkazish to'g'risida xabarnomalar keladi. Shunga ko'ra, turg'unlar so'ngra tegishli harakatlarni amalga oshirishga zamin yaratiladi.

Savol:

- 1. Ushbu xabarnomaning kelish va unga ko'ra uskunalarni standartlashtirishdan o'tkazish jarayoni ma'muriy tartib taomillarga taalluqlimi?**
- 2. Fikrlaringizni qonundagi normalar asosidagi misollar bilan asoslang.**

4. Ma'lumki, tajbirali pedagoglar, Ma'muriy tartib-taomillarni talabalarga o'rgatishning eng samarali usuli deb, ularni Davlat xizmatlari markaziga yoki boshqa davlat organlariga murojaat bilan chiqib, biror bir xizmatning amalda ko'rsatilishini o'z tajribasida sinab ko'rish va so'ngra o'z taassurotlari bilan amaliy mashg'ulotlar davomida bo'lishi degan fikrda. Bunda talaba davlat organidan olgan javob(ma'muriy akt)ni namoyish qilish va tahlil qilish orqali amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi aytiladi.

Savol:

- 1. Siz shunday amaliy mashg'ulotlarni yo'lga qo'yishga qanday qaraysiz?**
- 2. Siz odatda o'z darslaringizni qanday olib borasiz?**
- 3. Talabalarga oldindan topshiriqlar berib borasizmi?**

3-amaliy mashg‘ulot. Ma’muriy sud ishlarini yuritish mavzusini o‘qitishda amaliy materiallardan foydalanish texnologiyalari

Amaliy mashg‘ulot materiallari

1. Ma’muriy sud ishlariga oid masalalarning huquqiy jihatlari.

Ma’lumki, O‘zbekistonda ma’muriy sudlar 2017-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmoni bilan yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda bosqichma-bosqich takomillashtirilib, aholining sudlarga bo‘lgan ishonchi oshgani sari ma’muriy sudlarning ham kundalik yuklamasi ortib bormoqda. Murojaatchilar turli darajadagi mansabdor shaxslarning hatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar qilib, ularning huquqiy va siyosiy bilimlari kengaymoqda.

Savol:

1. Avvalgi davrlarda ushbu ixtisoslik sudi yo‘q paitda, murojaatchilar qaysi instansiyaga murojaat qilganligini eslang.

2. Ma’muriy sud ish yurituvini to‘g‘risidagi Kodeks amalga kiritilmasidan avval uning o‘rnida qanday qonun mavjud edi?

2. Ma’muriy sud ishlariga oid ta’lim berishda interaktiv metodlar.

Ma’muriy sud ish yurituvini fanidan ta’lim berishda eng samarali usul bu sud jarayoni simulyatsiyasi degan fikr mavjud. Zero, simulyatsiya jarayonida talabalarda o‘zlarini sudya, prokuror, da’vogar va javobgarlar o‘rniga qo‘yish hamda o‘zida jarayonning barcha salmog‘ini xis etish ko‘nikmasi shakllanadi degan fikrlar mavjud.

Shu bilan birga, nazariy bilimlar, turli adabiyotlarni o‘qish hamda sud hujjatlari namunalarini yaratish ko‘nikmasi ham juda muhim va ular auditoriya darslarida shakllantirilishi mumkin.

Savol:

1. Simulyatsiya usulining kamchiliklari to‘g‘risida fikr yuriting.

2. Ushbu fan doirasida nazariya va amaliyot uyg‘unligi to‘g‘risida fikrlaringizni keltiring.

3. Viktorina, savol-javob va texnologiyalardan foydalanish ma’lumotlari.

Zamonaviy aksariyat pedagoglar dars jarayonida klassik uslublardan chekinish kerakligini, avvalgi davrlardagi kabi ma’ruza o‘qish va ikkinchi tomon

uni tinglash uslubi eskirgan uslub va mutlaqo ma'qullanmaydi degan fikrlar mavjud.

Shu bilan birga, ayrim ilm-fan sohalari o'qish va tahlil qilishni talab qiladi. Bunda eng samarali usul faqat o'qish bo'lishi mumkin. Pedagog ushbu jarayonda talabalar oldidagi aktyor yoki masxaraboz rovida bo'lmasligi kerak degan ham fikrlar mavjud.

Savol:

1. Zamonaviy interaktiv ta'lim metodi degani nima?

2. Yuridik kadrlarni tayyorlashda o'qish va yozishsiz zamonaviy ta'lim uslublarini foydalanish mumkinmi?

4-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy davlat fuqarolik xizmati

Amaliy mashg'ulot materiallari

1. Zamonaviy davlat fuqarolik xizmatining qonunchilik asoslari.

1.1. Bugungi kundagi aksariyat mutaxassillarda davlat xizmatchisi degan tushunchaga ijro hokimiyatining yuqori mansabdor shakxslarini kiritish bilan bir qatorda Oliy Majlis palatalari deputatlari hamda Senat a'zolarini ham, shuningdek sudyalar korpusini ham taalluqli deb hisoblaydigan qarashlar mavjud.

Vaholangki, deputatlar o'z mandatini xalqdan, saylovlar natijasida qo'lga kiritadi. Sudyalar esa, odil sudlovni neytral qolgan holda ta'minlashga o'z e'tiborlarini qaratishi kerak.

Savol:

1. Davlat xizmatchilari qatoriga sudya va deputatni kiritish qanchalik to'g'ri fikr?

2. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun mazmun-mohiyatini tahlil qiling.

2. "IRAC" usuli asosida dars o'tish. Muammoli vaziyatni og'zaki muhokama qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

2.1. Pedagogikada turli hil ta'lim uslublari mavjud. Shulardan eng samaralisi talabaga savollar berish va undan har qanday javobni olish, so'ngra uning to'g'ri bo'lmagan qismlarini pedagogik mahorat ila, talabaning sha'ni va o'ziga bo'lgan ishonchini susaytirmasdan to'g'irlash hisoblanadi. Shunday uslublar bumerang, viktorina, maqsadlar darahiti kabi uslublarni keltirish mumkin.

Ammo huquqshunoslarni tayyorlashda "IRAC" usuli g'arb va boshqa rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan.

Savol:

1. "IRAC" usulining avvalgi eslatilgan usullardan farqini izohlang.

2. Siz o‘z faoliyatingizda biror bir yangi usulni kashf etdingizmi?

2.2. Fuqaro D. yaqin qarindoshining o'limi sababli Frantsiyaga bormoqchi bo'ldi. U barcha kerakli hujjatlarni yig'ib, turar joyi bo'yicha IIVning xorijga chiqish va kirish hamda fuqarolikni rasmiylashtirish tuman bo'limiga murojaat qildi. Ushbu bo'lim xodimi fuqaro D.ning murojaati 15 ish kunida ko'rib chiqilishini aytdi. Lekin fuqaro D. dafn qilish marosimi usiz o'tmasligini va u ushbu yerga tezroq borishi lozimligini tushuntirdi. Bo'lim xodimi fuqaroning bu murojaatini rad etib, xozirda bo'limda ish ko'pligini va qandaydir tekshirish o'tkazish kerakligini tushuntirdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2.3. Fuqarolar Rajabova Noila va Rajabov Bobur sudga o'z murojaatlarida Uchtepa tuman hokimining 2019 yil 19 apreldagi 211-sonli qarorining Uchtepa tuman hokimining 2018 yil 9 sentyabrdagi 323-sonli qarorining 2.8 bandini bekor qilish to'g'risidagi qismini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Unga ko'ra, fuqarolar Rajabova Noila va Rajabov Bobur sudga ariza bilan murojaat qilib, o'z arizalarida Uchtepa tuman hokimining 2018 yil 9 sentyabrdagi “Uchtepa tumanidagi yakka tartibda qurilgan uy-joylar joylashgan yer maydonlarida fuqarolar tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarga nisbatan egalik huquqini e'tirof etish hamda yer maydonlarini tartibga keltirish to'g'risida”gi qarorining 2.8-bandida Uchtepa-2 ko'chasi 23/3-uy manzilida foydalanishdagi 640,00 kv.m. yer maydoniga hamda ruxsatsiz qurilgan, foydali maydoni 82,07 kv.m., shundan 1 ta yashash xonasi maydoni 17,80 kv.m., 2 ta oshxona, yo'lak, xammom-hojatxona, soyabonga nisbatan fuqaro Rajabova Noilaga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish hamda mulk huquqi e'tirof etilsin deb belgilanganligini, 323-sonli qaror esa O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

Vaziyatga O'zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlaridan keng foydalangan holda huquqiy yechim bering.

5-amaliy mashg'ulot. Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizm

Amaliy mashg'ulot materiallari

1. Insonning ajralmas huquqlari va zamonaviy konstitutsionalizmning huquqiy asoslari

Tabiiy huquq nazariyasiga ko'ra, insonning ajralmas huquqlari qatoriga yashash, erkinlik va mulk huquqlari taalluqlidir. Yangi davrda shakllangan ushbu yondashuvni zamonaviy olimlar yana ham rivojlantirib, har bir ushbu ajralmas

huquqning tarkibi aniqlashtirilib, davlat institutining asosiy vazifasi ushbu tabiiy huquqlarni ruyobga chiqarish ekanligi ilgari surilmoqda.

Ushbu yondashuvga tayanadigan bo'lsak, tabiiy huquqlar, huquq paydo bo'lishining teologik nazariyasiga yaqinligini anglashimiz mumkin.

Savol:

1. Tabiiy huquqlar to'g'risida fikr yuriting.

2. Teologik nazariya to'g'risida nima bilasiz?

2. Siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" jamiyki insoniyat uchun qabul qilingan global huquqiy hujjat bo'lib, ularning barcha tabiiy huquqlarini o'zida aks ettirgan hamda davlatlardan ushbu ajralmas huquqlarni ta'minlashni talab qilishidan iborat degan fikrlar mavjud.

Savol:

1. Sizning ushbu yondashuvga munosabatingiz qanday?

2. Tabiiy huquqlarni biror bir hujjat bilan mustahkamlab qo'yish mumkinmi?

3. Mavzuga doir amaliyot materillarini tahlil qilish

Jamiyatshunos olimlarning tadqiqotlari natijasiga ko'ra, qaysi jamiyatda gumanitar fanlarga e'tibor susayib, faqat aniq va texnik fanlar rivojlantirilsa, o'sha jamiyat turli ijtimoiy larzalarga moyil bo'lib qolishini, ommaviy tartibsizliklarga zamin tayrlanilishini xulosa qilgan. Ya'ni aniq va texnik fanlarni rivojlantirish bilan bir qatorda, tarix, falsafa, mantiq, huquqshunoslik va jamiyatshunoslik kabi gumanitar fanlarni ham ta'lim tizimidan chiqarib tashlash to'g'ri yo'l emasligini ta'kidlashmoqda.

Savol:

1. Ushbu masalaga sizning munosabatingiz qanday?

2. 1-bosqich huquqshunoslik fakultetlari talabalariga yana falsafa, mantiq yoki tarix fanlarini o'tish qanchalik mantiqli?

6-amaliy mashg'ulot. Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish mexanizmlari

Amaliy mashg'ulot materiallari

1. Bugungi kundagi Ma'muriy islohatlar konsepsiyasi O'zbekiston Bosh prokuraturasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda davlat boshqaruv apparati va organlarining faoliyati samaradorligini oshirish, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, bir-birini takrorlovchi funksiyalarni bajaradigan davlat

organlari, turli komissiyalarni bekor qilish yoki bir-biriga qo'shish orqali davlat boshqaruvi va xizmatini tubdan isloh qilish masalalari belgilangan.

Savol:

1. Shu munosabat bilan, "Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili asosida ishlab chiqilgan hujjat qanchalik darajada amliyotga joriy etildi degan fikrdasiz.?

2. "Ma'muriy islohatlar konsepsiyasi"ning mazmun mohiyatini tahlil qiling.

2. 2022-yilning 1-iyul sanasida arizachi Otabek Buxoro tumanlararo ma'muriy sudiga shikoyat arizasi bilan murojaat qildi. Unda aytilishicha, Otabek o'zi yoqtirgan qizi Nilufar bilan nikohni rasmiylashtirish maqsadida (ikkalasi ham hozirda Buxoro shahrida ta'lim olishmoqda) Kogon tumani FHDYO organiga murojaat qilishgan. FHDYO organi mudirasi ularni nikohdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qildi. Bunga sabab qilib esa, Otabek va Nilufarlar boshqa boshqa viloyatdan ekanliklari hamda nikohni qayd etish ariza beruvchilardan birining doimiy yashash manzilidagi FHDYO organiga berilishi kerakligini keltirgan. Bundan norozi bo'lgan Otabek Buxoro viloyat Adliya boshqarmasiga murojaat qildi. Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi Kogon tumani FHDYO bo'limining harakatlarini qonuniy deb topdi. Bundan norozi bo'lgan Otabek Ma'muriy sudga Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi mansabdor shaxsining xatti-harakatini qonunga xilof deb topishni va qarorni haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Savol:

1. Kazusdan kelib chiqib ma'muriy huquqiy munosabat tushunchasini nazariy tahlil qiling, ma'muriy huquqiy munosabat turlarini yoritib bering.

3. Kazusdan kelib chiqib davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllarini tahlil qiling.

3. Tuman hokimining 2019-yil 24-avgustdagi 77/22-sonli qarori bilan "BARLOS" MFY, Sh.Jo'rayev ko'chasi hududi tuman zahira yer fondidan fuqaro A. ga "Kitob va mebel savdo do'koni" obyektini qurish uchun 410,0 kv.metr qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni ajratiladi. Tuman hokimligi huzuridagi yer uchastkalariga egalik qilish, foydalanish va ijaraga berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish doimiy komissiyasining 2019-yil 20-avgustdagi dalolatnomasida fuqaro A.ga "Kitob va mebel savdo do'koni" obyektini qurish uchun tanlab ajratilayotgan yer maydoni joyiga borib o'rganib chiqilganligi ko'rsatilib, komissiya raisi hamda a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu qarorda yer uchastkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-sonli

Farmoni va fuqaro bilan davlat-xususiy sheriklik shartnomasi tuzmasdan “Davlat-xususiy sheriklik to’g’risida”gi Qonunining 21-moddasi asosida ajratilayotganligi ko’rsatiladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 20-apreldagi PQ-3677-sonli qarorining 1-bandiga muvofiq, 2018-yil

1-iyuldan boshlab yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish “E-IJRO AUKSION” yagona elektron savdo maydonchasida elektron auksion orqali amalga oshirilishi tartibi belgilanganligini asos qilib tuman prokurori tuman hokimining 2019-yil 24-avgustdagi 77/22-sonli qaroriga protest keltiradi. Keyinchalik, tuman prokurorining protesti qanotlantirilib, 2019-yil 24-avgustdagi 77/22-sonli qaror bekor qilinadi. Mazkur vaziyatdan norozi bo’lgan fuqaro A. ma’muriy hujjatga bo’lgan ishonchi himoya qilinishi kerakligini asos qilib ma’muriy sudga murojaat qildi.

Savol:

1. Kazusdagi kelib chiqib ma’muriy huquqiy munosabatlarning nazariy tahlilini o’tkazing hamda vaziyatda ma’muriy huquqiy munosabatlar ishtirokchilari (ma’muriy organ va manfaatdor shaxslarni aniqlagan holda) holatining huquqiy tahlilini o’tkazing.

1. 2. Kazusdan kelib chiqib davlat boshqaruvining ma’muriy-huquqiy shakllarini tahlil qiling.

V. KEYSLAR BANKI

Amaliy yo‘naltirilgan, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovasion hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar (TFO‘), ishchan va rolli o‘yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, “Case-study” va boshqalar kiradi. “Case-study” – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya’ni keyslardan foydalangan holda o‘quvchilarda aniq ko‘nikmalarni shakllantirish texnikasidir

Keys — biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida o‘quvchilardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi.

Ixtiyoriy *keys* o‘qituvchiga, uni ta’lim jarayonining ixtiyoriy bosqichlarida, jumladan, o‘qitish va uning natijalarini nazorat qilish mobaynida foydalanish *imkoniyatini* beradi.

1-masala

2021-yil oktabr oyida Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi raisi Abdurahmon Abduvaliev yaqin uch yilda O‘zbekistonda o‘sha paytda uzunligi 29 ming km bo‘lgan tuproq yo‘llari qolmasligini aytgan edi. Shuningdek, u yaqin to‘rt yil ichida hokimliklar bilan birgalikda qolgan yo‘llar – davlat va ichki xo‘jalik yo‘llari to‘liq ta’miratlanishiga ishonirdi.

2021-yilda avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash, yo‘l xo‘jaligi ob’ektlaridan foydalanish va saqlash uchun davlat byudjetidan 10,1 trillion so‘m yo‘naltirildi. 2021-yilda avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy jang‘armalarining umumiy tushumlari 4,27 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 2021-yilda 4,04 trillion so‘mdan sal ko‘proq mablag‘ o‘zlashtirildi.

Davlat moliyaviy nazorati xizmati tomonidan 2021-yilda va 2022-yilning birinchi yarmida avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlashga 34 milliard 570 million so‘mlik mablag‘larning noqonuniy sarflanishi bilan bog‘liq 45 ta holat aniqlangan. Shundan so‘ng Senatda yildan-yilga o‘tkazib kelinayotgan ob’ektlar soni va narxi oshib borayotgani, buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnomalar bekor qilinishi holatlari ko‘payib borayotgani va sohadagi boshqa muammolar qayd etildi.

Bosh prokuratura ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davrda prokuratura organlari tomonidan hududiy jamg'armalar faoliyatida 20 ta tekshirish o'tkazilib, qonun buzilish holatlari yuzasidan 6 ta taqdimnoma kiritilgan. 12 nafar mansabdor shaxs ogohlantirilib, 11 nafar shaxs intizomiy, 21 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi, qo'pol qonunbuzarlik holatlari bo'yicha 12 nafar jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Savollar:

1. Yo'l qo'mitasi raisining "hokimliklar bilan birgalikda" degan tahriri nafaqat respublika byudjetidan, balki mahalliy byudjetdan ham xarajatlar talab qilinishini bildiradimi? Ha bo'lsa, raisning bayonotini yuridik fakt sifatida baholash mumkinmi?

2. Bu holatda qancha yuridik fakt borligini aniqlashga harakat qiling va ularni tavsiflang.

3. "12 nafar mansabdor shaxs ogohlantirish oldi". Ogohlantirish nima va uni qanday qonun tartibga soladi?

4. "Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi Abdurahmon Abduvaliev yaqin uch yilda O'zbekistonda birorta ham tuproq yo'l qolmaydi, dedi". Bunday bayonotlarni huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradigan deb hisoblash mumkinmi?

2-masala

80 ga yaqin yevropalik parlamentariy Fransiya tashqi ishlar vaziri Ketrin Kolonnani Xitoyning Parijdagi elchisi Lyu Shayni "sobiq SSSR davlatlarining suvereniteti inkor etilgani" uchun persona non grata deb e'lon qilishga chaqirdi. Bu haqda parlamentariylar xatiga tayanib, Le Monde nashri xabar bermoqda.

"Elchi Shay sobiq Sovet respublikalari xalqaro huquqda haqiqiy maqomga ega emasligini oshkora tasdiqlab, ularning maqomini belgilovchi xalqaro shartnoma yo'qligini ta'kidladi. Bunday izohlar qabul qilinadigan diplomatik munozara doirasidan oshib ketadi", — deyiladi hujjatda.

Mualliflarning fikricha, xitoylik diplomatning bayonoti xalqaro huquqni buzadi va Yevropa davlatlari xavfsizligiga tahdid sifatida baholanishi kerak. "Suverenitet diplomatik o'yinchoq emas, balki xalqaro munosabatlarning asosiy elementidir", — ta'kidladi parlament a'zolari.

Lyu Shay avvalroq LCI telekanaliga bergan intervyusida sobiq SSSR mamlakatlari "xalqaro huquqda samarali maqomga ega emas, chunki ularning suveren davlat sifatidagi maqomini belgilovchi xalqaro shartnoma yo'q" deb ta'kidlagan edi. Qrimga kelsak, Lyu Shayning so'zlariga ko'ra, "bu muammoni qanday qabul qilishingizga bog'liq". Elchi yarim orol "aslida Rossiyaga tegishli bo'lgan", Sovet davrida esa "[Nikita] Xrushchev uni Ukrainaga bergan", dedi.

Savollar:

1. “Bunday izohlar qabul qilinadigan diplomatik nutq doirasidan tashqarida”, deyiladi hujjatda. Fransiya parlamentariylarining ushbu hujjatini huquqni qo'llash hujjati sifatida baholash mumkinmi?

2. Xitoyning Fransiyadagi elchisi persona non grata deb e'lon qilingan deb faraz qilsak, ushbu hujjatni huquqiy akt yoki huquqni qo'llash akti deb hisoblash mumkinmi?

3. Xitoyning Fransiyadagi elchisining xatti-harakatlarini huquqni amalga oshirishning qaysi shakliga bog'lash mumkin? Va nima uchun shunday, tushuntiring?

4. Xitoyning Fransiyadagi elchisini qanday yuridik javobgarlik kutmoqda?

3-masala

Tailand hukumati sayyohlik solig'ini joriy etishni beshinchi bor 2023-yilning iyunidan kuziga ko'chirdi. “Tailandga havo, quruqlik yoki dengiz orqali kiruvchi xorijliklar uchun 300 baht (9 dollar) to'lovi kamida sentyabr oyiga qaytarildi. Bu 2018-yilda ushbu g'oya birinchi muhokama qilinganidan beri turistik soliqni joriy etishdagi beshinchi kechikishdir. Kechikish sababi undirishga tobe bo'lmagan shaxslar toifalarini saralashdagi qiyinchilik, shuningdek, suv va quruqlik orqali sayohat qilishda innovatsiyani joriy etish muammosidir.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, yangi soliq turizm infratuzilmasini rivojlantirish va turistlarga tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Shuningdek, yig'ilgan mablag'ni kuydirish yoki ko'plab qurbonlar bilan sodir bo'lgan baxtsiz hodisada tovon to'lashga sarflanishi rejalashtirilgan.

Savollar:

1. Turistik soliqning joriy etilishi ommaviy hokimiyat namoyish qilinishining bir ining ko'rinishi deb baxolash mumkinmi?

2. "To'plamga kirmaydigan shaxslar toifalarini saralash bilan bog'liq qiyinchiliklar, shuningdek, innovatsiyani joriy etish muammosi". Bu nuanslarni qonun ijodkorligining nuanslari sifatida baholash mumkinmi? Fikrlaringizni asoslang.

3. Soliqqa tortish masalasining o'zi qonunni qo'llash bilan bog'liqmi yoki yo'qmi?

4. Ishda taraflarning qonuniy manfaatlarini aniqlang!

4-masala

2021 yil avgust oyida AQSH harbiy kontingentining Afg'onistondan chiqib ketishi natijasida tez orada Tolibon harakati Afg'onistonning 90%ini bosib

oldi, keyinchalik hokimiyatni butunlay qolga oldi. Aholining ko'pchilik qismi mamlakatni turli yo'llar bilan tark etishga urundi. Mamlakatning rasmiy shaxslari esa birinchilardan bo'lib mamlakatni tark etishdi. Tasdiqlanmagan ma'lumotlarga ko'ra, Afg'onistonning sobiq Prezidenti Ashraf G'ani Tojikistonga (gap-so'zlarga ko'ra O'zbekistonga) va u yerdan keyinchalik boshqa davlatga yo'l olgan.

Keyinroq, Toliblar Hukumatni shakllantirishdi va o'z taraqqiyot yo'lini e'lon qilishdi. E'lon qilishicha, barcha fuqarolar o'zining jinsi, irqi va dinidan qat'iy nazar teng huquqlarga ega bo'lishadi.

Savollar:

1. Yangi hukumat hokimiyat tizimi davom etishi uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb o'ylaysiz?

2. Aholi ishonchiga sazovor bo'lish uchun, Toliblar qanday boshqaruv uslublaridan foydalangani ma'qul deb uylaysiz?

3. Kazusdagi voqealar asosida Afg'on xalqining huquqiy ongi past ekan degan xulosa chiqarish mumkinmi? Fikringizni asoslang.

4. Hukumatning rivojlanish dasturini e'lon qilishi boshqaruvning qanday metodiga taalluqli deb uylaysiz?

5-masala

2022 yil yanvar oyida Qozog'istonda Hukumatni larzaga keltirgan katta namoyishlar bo'lib o'tdi. Rasmiy sabab, suyultirilgan gaz narhining oshirilganligi bo'lib, o'rta va kam daromadli aholining g'azabini keltirgan. Natijada Havfsizlik Kengashi rahbari (sobiq Qozog'iston Prezidenti) Nursulton Nazarboyev istyefoga chiqdi. Qo'shimchasiga o'sha paitdagi Mamin boshchiligidagi Hukumat ham istyefoga ketdi. Ketayotib, Hukumat yoqilgi narhini yana pasaytirdi, ammo endi bu olomoni bostirishga yetarli bo'lmadi. Faqat KHSHT kuchlari yordamida hokimiyat o'zini saqlab qoldi.

Savollar:

1. Hukumat, boshqaruvda qanday hatolarga yo'l qo'ydi deb uylaysiz?

2. Kazus mazmunidan Qozog'iston aholisining huquqiy ongi yuqori darajada rivojlangan degan xulosa chiqarish mumkinmi?

3. Mamlakatda aholi noroziligi yuzaga kelmasligi uchun davlat qaysi funksiyalarga alohida e'tibor berishi kerak deb uylaysiz?

4. Aholining gaz narhini pasaytirishni talab qilish huquqini ularning tabiiy huquqi deb baholash mumkinmi?

6-masala

2021 yil 6 yanvar kuni sobiq Prezident Trampning tarafdorlari, namoyishchilar AQShning 46-Prezidenti Jo Bayden yutgan prezidentlik saylovi natijalarini bekor qilinishiga erishish maqsadida sanksiyalanmagan harakat qilinib

AQSH Kapitoliy binosini egallab olmoqchi bo'lishdi. Xavfsizlik xizmati to'siqlaridan o'tib, namoyishchilar bir necha soat davomida binoni ishg'ol qilingan qismlari shikastlanishiga sabab bo'lishdi. Yetakchi ommaviy axborot vositalari va siyosatchilarning bayonotlariga ko'ra ushbu tartibsizliklar, Tramp tomonidan ushbu namoyishdan oldingi mitingda qilingan izohlar sabab bo'lgan. Hujum Kapitoliy binosini evakuatsiya qilinishi va yopilishiga olib keldi, shuningdek, saylovchilarning ovozlarini hisoblash hamda Jo Baydenning saylovdagi g'alabasini rasmiylashtirish uchun yig'ilgan Kongressning qo'shma majlisini qoldirilishiga olib keldi.

Savollar:

- 1. Vaziyatga umumhuquqiy baho bering.**
- 2. AQShda hokimiyatni topshirish mexanizmi qanday ekanligi to'g'risida fikr yuriting.**
- 3. AQShning sobiq prezidentiga nisbatan biror bir huquqiy sanksiya qo'llanilishi kerakmi? Fikringizni asoslang.**
- 4. Hokimiyat tomonidan sanksiyalanmagan harakat deganda nimani tushunasiz?**

7-masala

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra, mahalliy darajada hokimiyatlar bo'linishi amalga oshirilib, hokimlar faqat ijro hokimiyatiga mas'ul bo'ladi, Kengashlarni esa saylanadigan rais boshqaradi.

Mazkur o'zgarishlar joylarda huquq normalarining samarali amalga oshirilishiga erishish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Savollar:

- 1. Mazkur o'zgarishlar O'zbekiston davlat boshqaruv shaklining o'zgarishiga ta'sir qiladimi?**
- 2. Davlatning qaysi funksiyalarining ushbu o'zgarishlardan keyin yaxshilanishi kutilmoqda?**
- 3. Ushbu o'zgarishlar davlat mexanizmiga qanday ta'sir qilishi mumkin?**
- 4. Davlat bilan jamiyatning konstitutsiya asosida tartibga solinishi huquq va davlat paydo bo'lishining qaysi nazariyasiga mos keladi? Fikringizni atroflicha asoslang.**

8-masala

O'zbekiston energetika vazirligi rahbari elektr energiyasi va gazning tez-tez o'chib turishi haqida shunday fikr bildirib o'tdi: "Bizning vazifamiz-odamlarning uylarini gaz bilan ta'minlash, shuningdek, issiqlik elektr stansiyalarida tabiiy gaz yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarish hamda

elektr yenergiyasi bilan ta'minlash. Ha, e'tirozlar mavjud. Hammaga ham (yelektr va gaz) yetib bormagan, tizaida ko'plab uzilishlar mavjud. Biz buni tan olamiz, hech kim buni inkor etmaydi. Agar biz bunday ob-havo sharoitida rejalashtirilgan cheklovlarni joriy etish orqali vaziyatdan chiqmasak, ertaga bundan-da jiddiy oqibatlariga kelib chiqishi mumkin (ehtimol u navbatdagi blekautni nazarda tutmoqda) Shuning uchun biz mana shunday keskin choralarni ko'rishga majburmiz", dedi u.

Avvalroq, Veolia Energy Tashkent nima uchun poytaxtda isitish bilan bog'liq muammolar mavjudligini tushuntirib o'tgan edi. Bundan tashqari, O'zbekiston energetika vazirligi nima uchun mamlakatda tabiiy gaz yetkazib berish bilan bog'liq muammolar mavjudligiga oydinlik kiritdi. Hududgazta'minotning xabar berishicha, Toshkentning 516 mahallasida yoki 79 ming iste'molchida bosim pasaygan, shulardan 14 ming nafarida gaz ta'minoti vaqtincha to'xtatilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari Alisher Qodirov energetika sohasini xususiylashtirish ko'plab muammolarni hal qiladi, deb hisoblamoqda.

Savollar:

1. Kazus mazmuni Davlat va huquq nazariyasi fanining qaysi mavzusiga taalluqli deb uylaysiz?

2. Vazirning OAVga masala yuzasidan intervyu berishi majburiyati ko'rsatilgan huquqiy asosni ko'rsating.

3. "Hududgazta'minot" davlat hokimiyati organimi yoki davlat boshqaruvimi?

4. Oliy Majlisning shunday vaziyatlar yuzaga kelganida, vakolatlarini tushuntirib bering.

9-masala

«Huquqsiz» transport: poytaxt ko'chalarida mopedlar va skuterlar uchun «ov» boshlandi. Biroq, bu O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro Konvensiyaga ziddir. Poytaxtda skuter va mopedlar egalari ushbu transport vositalarini «A» toifasidagi haydovchilik guvohnomasisiz boshqarganliklari uchun jarimaga tortilmoqda va transport vositalari jarima maydonchasiga joylashtirilmoqda.

Biz milliy va xalqaro qonunchilikda bu boradagi qoidalar mazmunini va yo'l-patrul xizmati (YPX) xodimlarini skuterlarga "ov qilish" qonuniymi yoki nima uchun haydovchilik guvohnomamiz dunyoda tan olinmasligini batafsil muhokama qilamiz.

Bizga skuter haydovchilik guvohnomasi yo'qligi sababli jarima maydonchasiga joylashtirilgan fuqarolardan biri tomonidan yuborilgan videoda yo'l-patrul xizmati (YPX) xodimi skuterni olib qo'yish to'g'risida radio orqali

kingadir xabar beradi. Xulosa qilishimiz mumkinki, unga bunday vazifa berilgan va bundan boshqalar ham xabardor.

Savollar:

1. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun normalari nuqtai nazaridan kelib chiqib YPX hodimi harakatlarining maqsadini tushuntiring.

2. Konvensiya nima va uning O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi degan nimani anglatadi?

3. Davlat, skuterlar va mopedlardan foydalanishni ta‘qiqlash orqali qanday funksiyalarni amalga oshirmoqda?

4. YPX hodimining harakatlariga huquqiy baho bering.

10-masala

Ulan-Batordagi norozilik namoyishlari fonida Mo‘g‘uliston parlamenti ko‘mir o‘g‘irlanishi bo‘yicha tinglovlar o‘tkazadi va jinoyatchilar nomini ochiqlaydi. Bu haqda Buyuk Xural raisi Gombjavyn Zandanshatar ma'lum qildi, uning so'zlaridan iqtibos keltirmoqda Mass telekanali. *“Buyuk Xuralda ko‘mir o‘g‘irlash ishi bo‘yicha ochiq eshituvlar o‘tkaziladi. Ommaviy sud majlisida bu ishga aloqador mansabdor shaxslarning ism-shariflari ommaga oshkor qilinadi”, - dedi Zandanshatar.* Uning qo‘shimcha qilishicha, “milliy boyliklarni o‘g‘irlash bilan shug‘ullangan har qanday shaxs jazolanishi kerak”.

Avvalroq Mo‘g‘uliston prezidenti Uxnaagiin Xurelsux parlamentni ko‘mir masalalari bo‘yicha ochiq eshituvlar o‘tkazish va fuqarolarni vaziyatdan xabardor qilishga chaqirgan edi.

Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Batorda eksport qilinadigan ko‘mir o‘g‘irlanishi bilan bog‘liq mojaro tufayli ommaviy namoyishlar bo‘lib o‘tmoqda. Namoyishchilar hukumat va prezidentdan “44 trillion tugriklik ko‘mir o‘g‘irlagan o‘g‘rilar” nomini berishni talab qilmoqda.

Mo‘g‘uliston bosh vaziri Luvsannamsreyn Oyuun-Erdene norozilik namoyishlari fonida parlament va hukumatni tarqatib yubormoqchi emasligini aytdi.

Savollar:

1. Kazus mazmuniga ko‘ra, Mongoliya boshqaruv shakliga ko‘ra qanday davlat?

2. Aholini, ko‘mir mojarosi bilan bog‘liq bo‘lgan masala yuzasidan xabardor qilish qaysi prinsipning amaliy ifodasi hisoblanadi?

3. “Milliy boylikni talon-taroj qilishga aloqador har qanday shaxs, jazolanishi shart!” Mazkur yondashuvdan davlat paydo bo‘lishining qaysi nazariyasini anglash mumkin?

Davlat va huquq nazariyasi nuqtai nazaridan kelib chiqib “Shikoyat qiluvchilar hukumat va prezidentdan 44 million tugrikka teng bo‘lgan

o'g'irlikni sodir etganlarning ismlarini oshkor etishni talab qilmoqda". Xalqning bunday huquqini qanday baholaysiz?

11-masala

Fuqaro M.R. 55 yoshga to'lishi munosabati bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi shahar bo'limiga (keyingi o'rinlarda BTPJ deb yuritiladi) murojaat qilib pensiya tayinlashni so'ragan. M.R.ning mehnat daftarchasida 1977-1988-yildagi turli tashkilotlarda ishlagan davrlari haqidagi yozuvlar kiritilgan. BTPJ M.R.ning mehnat daftarchasi hamda davlat arxivi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asosan uning tashkilotlarda ishlagan davri bola parvarishlash ta'tillarini chiqarib tashlaganda 84 oydan kamni tashkil etgan. Shundan 47 oy 6 kunga sug'urta badallari to'langanligi uchun, BTPJ yoshga doir pensiya tayinlash uchun qonuniy asoslar mavjud emas deb hisoblab, 2018-yil 15-maydagi 222-sonli xat bilan M.R.ning arizasini rad qilgan. Shu sababli, M.R. sudga ariza bilan murojaat qilib, BTPJ mansabdor shaxslarining harakatlarini qonunga xilof deb topishni so'ragan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

12-masala

Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida istiqomot qiluvchi fuqaro M.Ahmedov Yakkasaroy tuman xokimiyatiga ariza bilan murojaat qildi. Arizada Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Quruvchilar mavzesi, 4 D-uy, 9-xonadonni xususiylashtirib berishni so'radi.

Yakkasaroy tuman hokimiyati uning arizasini ko'rib chiqib 2018-yil 30-sentabrda rad javobi berdi. Yakkasaroy tuman hokimligi javob xatida rad etish uchun asos qilib nizoli xonadonni xususiylashtirishda "Shodlik" M.F.Y.ning 19.07.2017-yildagi №3115-sonli ma'lumotnomasi va Yakkasaroy ma'muriy sudining 21.08.1997-yildagi hal qiluv qarori va kadastr xizmatining 13.09.2016-yildagi №134a-sonli ma'lumotnomasi taqdim qilganligini, ammo xonadonga kirib yashash huquqini beruvchi davlat orderi va uyda yashovchi shaxslarning qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan roziligi taqdim etilmaganligini keltirgan.

Arizachi M.Ahmedov oila a'zolari bilan nizoli xonadonda 1997 yildan beri yashab kelayotganligini bildirib, Yakkasaroy tuman xokimiyati xatti-harakatlarini noqonuniy deb topishni va Yakkasaroy tuman xokimiyati zimmasiga Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Quruvchilar mavzesi, 4 D-uy, 9-xonadonni arizachi M. nomiga xususiylashtirish majburiyatini yuklashni so'rab sudga murojaat qilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

13-masala

Fuqaro S.Valiyev 1984-yil 26-noyabrda tug'ilgan va bu xaqida Samarqand viloyati Payariq tumani Vatan QFY tomonidan 26.11.1984-yilda №495-sonli dalolatnoma yozuvi qayd etilgan.

Lekin, fuqaro S.Valiyevning boshqa huquqni vujudga keltiruvchi hujjatlari, shu jumladan Payariq tuman FXDYO bo'limi tomonidan 21.10.2003-yilda

№593-son bilan qayd etilgan nikoh tuzilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvida, 12.06.2002-yilda №1502-son bilan qayd etilgan farzandi Shayxov Ilg'or Shaxobiddin o'g'lining tug'ilganlik dalolatnoma yozuvidagi "Onasi" ustunida, Uchtepa tuman FXDYO bo'limining 04.12.2003-yilda №2311-son bilan qayd etilgan qizi Shayxova Iroda Shaxobiddin qizining hamda 09.10.2006-yilda №2108-son bilan qayd etilgan qizi Shayxova Farangiz Shaxobiddin qizining, 29.03.2011-yilda №715-son bilan qayd etilgan o'g'li Shayxov Abduvoxid Shaxobiddin o'g'lining tug'ilganlik dalolatnoma yozuvidagi "Onasi" ustunida, eng asosiysi Uchtepa tuman IIB XCHK va FB tomonidan 21.02.2017-yilda berilgan fuqarolik pasportini olishda Forma №1 shakldagi arizasida tug'ilgan vaqti 02.11.1981-yil deb ko'rsatilgan.

Shu munosabat bilan fuqaro S.Valiyev Samarqand viloyati Payariq tuman FHDYO bo'limiga uning tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga o'zgartirish kiritib berish to'g'risida murojaat qilgan.

Samarqand viloyati Payariq tuman FHDYO bo'limi tomonidan fuqaro S.Valiyevga dalolatnoma yozuvini o'zgartirish, tuzatish va to'ldirish to'g'risida rad javobi berilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

14-masala

2018-yilning may-iyun oylarida Baliqchi tumaniga aholining ijtimoiy holatini o'rganish uchun respublika ishchi guruhi kelgan. Ishchi guruh tomonidan "Iftixor" mahallasida 65-umumiy uyda yashovchi aholidan tushgan murojaat o'rganilib, mazkur uy viloyat Arxitektura qurilish davlat nazorat inspeksiyasi, DSENM va Yong'in xavfsizligi boshqarmasi tomonidan "yashash uchun yaroqsiz" deb topiladi va uning o'rnida eski uyda yashagan xonadon egalari uchun

16 xonadonli ikki qavatli uy qurilishi boshlanadi.

Tuman hokimining 2018-yil 12-iyun kungi "Baliqchi tumani Iftixor mahallasi hududida joylashgan yashash uchun yaroqsiz bo'lgan 65-umumiy turar joylarni buzish to'g'risida"gi 2760-sonli qarori bilan ushbu uylarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-sonli qarori

bilan tasdiqlangan “Uylar va turar joylarni uy-joy fondidan chiqarish tartibi to’g’risida”gi Nizom talablari asosida to’liq buzib tashlash ishlari boshlangan.

Qarorda buzib tashlangan xonadon mulkdorlariga 2018-2019-yillarda Baliqchi tumani “Yakkatol” MFY hududida qurilishi rejalashtirilgan arzonlashtirilgan uylar tekinga berilishi taklif qilingan. Shuningdek, uy buzilishi boshlanganidan keyin xonadon egalarini vaqtinchalikka Baliqchi tuman 6-Davlat ixtisoslashtirilgan maxsus internat yotoqxonasi va boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan joylarga joylashtirish nazarda tutilgan.

Ular bu taklifni rad qilishadi. Buning sababi bu hududda kommunal sharoitlar - gaz, elektr va ichimlik suvi yo’qligi edi. Shundan so’ng, ularga buzilgan uylar o’rnida quriladigan ko’p qavatli uylar berilishiga kelishilgan.

2018-yilning noyabr oyi oxirida yangi uylar tayyor bo’lgan va odamlar bu uylarga ko’chib kirishi boshlangan. Shu joyda muammo kelib chiqqan. Tuman hokimligi tomonidan uylar narxini 20 yil davomida har oyda ma’lum miqdordagi mablag’ni to’lab borish sharti bilan kreditga berilayotgani ma’lum qilingan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

15-masala

Rossiyadan kelgan O‘zbekistondan kelgan fuqarolar I.Salimov hamda D.Tulaganova Covid-19 (koronavirus) pandemiyasi sababli joriy etilgan cheklovchi tadbirlar tufayli karantinga joylashtirildi. Mazkur shaxslardan yuqumli va parazitar kasalliklar o’choqlarida davolash-profilaktika hamda sanitariya-epidimiologiya xizmati muassasalari rahbariyati tomonidan telefonlarining olib qo’yilishi lozimligi xususida ogohlantirildi.

Fuqarolar I.Salimov hamda D.Tulaganova mazkur ma’muriy cheklovchi tadbirlardan norozi bo’ldi. Mazkur fuqarolar telefon va boshqa aloqa vositalarini olib qo’yish inson huquqlari hamda xalqaro huquq hujjatlariga zid ekanligini bildirishdi. Fuqarolar Favqulodda vaziyatlar vazirligiga murojaat qilishdi va o‘z murojaatlarida mazkur joriy etilgan tadbirlar favqulodda holat rejimiga xos ekanligini bildirib, vazirlik tomonidan favqulodda holat e’lon qilinmaganligi sababini tushuntirishni talab etishdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

16-masala

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga 1216 ta pedagoglardan murojaat kelib tushdi. Mazkur murojaatning mazmuni xorijiy ta’limni tan olish bilan bog’liq bo’lib, murojaatchilar O‘zbekistonda kirish imtihonlaridan o’tish qiyin bo’lganligini sababli qo’shni davlatlarga kirish imtihonlarisiz nodavlat universitet hamda Top mingtalikka kiritilgan universitetlarga hujjat topshirishgan. Mazkur ta’lim turi masofaviy bo’lib 4 yillik bakalavr diplomini masofaviy o’qish orqali egallashgan.

Inspeksiya mazkur murojaat belgilangan qonunchilik talablariga muvofiq kelmasligini onlayn masofaviy ta'lim olishda ta'lim to'g'risidagi qonunda belgilangan talablarga, jumladan ta'limni tarbiya bilan birga olib borilishi prinsipiga zid keladi deb murojaatni qabul qilishni rad etgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

17-masala

Fuqaro S.Umarov Chexiya Respublikasi Praga universitetining iqtisodiyot fakultetini bitirib, O'zbekiston Respublikasiga qaytdi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasiga murojaat qilib, ta'lim olganligi to'g'risida xujjatni tan olish, nostrifikatsiya (ekvivalentligini ro'yxatga olish) qilish va tegishli hujjatni berishni so'radi. Bunga javoban O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi bu sohada masalalarni ko'rib chiqish vakolatiga ega emasligini va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Test Markaziga murojaat qilish kerakligini tushuntirdi. Davlat Test Markazi uning arizasida diplom va ilovasi notarial tarjima qilinmaganligi sababli uning xujjatlarini qabul qilishni rad etdi. Fuqaro S.Umarov bunga e'tiroz bildirib, biror bir hujjat yetishmasa, u arizachiga qaytarib berilishi kerak emas deb tushuntirdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

18-masala

A.Nazarov nodavlat ta'lim xizmatini ko'rsatish maqsadida, shuningdek ya'ni chet tillari bo'yicha o'quv kurslarini ochish uchun Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi davlat xizmatlari agentligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etdi: litsenziya berish to'g'risidagi ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi: YATTning nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili), repetitorlik faoliyatini amalga oshirish joyi manzili, bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, faoliyatini boshqa ta'lim xizmatlari, ya'ni umumiy o'rta ta'lim xizmati bilan birga olib borishi, shuningdek chet tillarni o'qitish bo'yicha kurslar ro'yxati; YATT davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi; faoliyatning litsenziyalanayotgan turi amalga oshiriladigan binolarga (xonalar) mulkiy yoki boshqa ashyoviy huquqlarning mavjudligini, shuningdek mazkur binolar (xonalar)ning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar; yong'in va sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga va sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosalari; o'quv rejalari va dasturlari; chet tillarga o'qitgan hollarda pedagogik kadrlar to'g'risida ma'lumot (ma'lumoti to'g'risidagi hujjatlarning nusxasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan bilimlar darajasi va chet tilini bilish va egallab olganlik darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi malaka

sertifikatining nusxalari); ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya talabgori tomonidan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Davlat xizmatlari agentliki ushbu hujjatlarni ko'rib chiqib, litsenziya berish uchun Toshkent viloyati hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyaga yubordi. Lekin komissiya litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilib, 3 ish kuni ichida litsenziya da'vogariga rad etish sabablari va litsenziya da'vogari ularni bartaraf etgan holda qayta ko'rib chiqish uchun ariza berishi uchun 5 kunlik muddat ko'rsatilgan bildirishnomani davlat xizmatlari agentligi orqali qaytardi. Shunda A.Nazarov litsenziya olish uchun yordam berish maqsadida advokat A.Zaripovga huquqiy yordam so'rab murojaat qildi. A.Zaripov A.Nazarovga litsenziyani rad etish sabablarini bartaraf etish uchun berilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib emasligini, shuningdek agar o'quv kursini boshqa ta'lim xizmatlari bilan olib borish maqsadi bo'lsa, u holda bu masala boshqa organga taalluqli ekanligi aytdi. Shunda A.Nazarov bergan arizasidan voz kechganligini aytib, to'langan yig'im summasini qaytarib berishlarini so'radi. Lekin uning murojaati rad etildi .

Vaziyatga huquqiy baho bering. Nazarovga huquqiy yordam ko'rsating

19-masala

Arizachi X. sudga ariza bilan murojaat qilib, o'z shikoyatida 2017-yil 10-iyul sanasida Buxoro tuman elektr ta'minoti xodimlari R. G., B. M. va majburiy ijro buyurosi vakili R. L.lar uni xonadoniga o'rnatilgan SO-2 m rusumli, zavod raqamli 29058146 elektr hisoblagichni davlat tamg'asi uzilgan deb davlat raqami

№06207-001073-sonli dalolatnoma rasmiylashtirilganligini, dalolatnoma asosida unga nisbatan 165.024 so'm qayta hisob kitob qilishgan bo'lib, qayta hisoblangan summadan tashqari elektr tarmog'i ulanish uchun 344.480 so'm qo'shimcha haq to'lashi shartligini, aslida elektr ta'minoti korxonasi elektr hisoblagichiga rasmiylashtirilgan № 06207-001073 sonli dalolatnomadan unga bir nusxasini va dalolatnoma asosida 1665024 so'mlik qayta hisob kitob qilishganligi to'g'risidagi qaror yoki ogohlantirish xati taqdim qilmaganligini, unga nisbatan tuzilgan dalolatnoma asosida hisoblangan 165.024 so'm va undan tashqari elektr tarmog'iga ulanish uchun yana 344.480 so'm qo'shimcha haq to'lanishiga e'tirozi borligini, Majburiy ijro byurosi Buxoro tuman bo'limiga nisbatan davlat ijrochisining xatti-harakatini g'ayriqonuniy deb topishni, 165.024 so'mlik qayta hisob kitob qilingin summani noqonuniy deb topishni so'ragan.

Savol: Mazkur kazusni ma'muriy protseduralarning protsessual qoidalari asosida tahlil qiling.

20-masala

Arizachi fuqaro N.Ravshanov ma'muriy sudga ariza bilan murojaat qildi. Arizada Yakkasaroy tumani, Nukus ko'chasi, 40-uyning 1/3 qismi unga 2016-yil 20-fevral kuni berilgan qonun bo'yicha merosga bo'lgan xuquq xaqidagi guvohnomasiga asosan tegishli ekanini, mazkur uyning 1/3 qismi vorislik huquqi asosida 4 kishiga tegishli bo'lganligini, 02.02.2016-yilda Toshkent shahar xokimining "Toshkent shahrining markaziy qismida obodonlashtirish va buzish ishlarini olib borish haqida"gi 23-sonli qaroriga asosan Yakkasaroy tumani, Nukus ko'chasi, 40-uy buzilganligini ma'lum qiladi.

Arizada, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.05.2016-yildagi 97-son qaroriga asosan buzilish hududiga tushgan hududlardagi uy-joylar o'rniga turar joylar berilishi xaqida ko'rsatilgan bo'lsada, uning oilasi asossiz ravishda uy-joy bilan ta'minlanmasdan qolib ketganligini, bu holat yuzasidan bir necha marotaba hokimiyatga murojaat qilganligini, lekin foydasi bo'lmaganligini, undan tashqari mazkur xonadonda doimiy ro'yxatda turmaganlar uy-joy bilan ta'minlanganligini, lekin u 3 nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan uy-joysiz qolib ketganligini keltirib o'tdi. Fuqaro N.Ravshanov suddan Yakkasaroy tuman hokimiyati zimmasiga Yakkasaroy tumani, Nukus ko'chasi, 40-uy buzilganligi munosabati bilan uni uy-joy bilan ta'minlash majburiyatini yuklashni so'radi. Biroq, arizachining talablari qanoatlantirish sud tomonidan rad etildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Ushbu muammoli vaziyatdan kelib chiqib ma'muriy aktga qo'yilgan talablarni tahlil qiling.

21-masala

2020-yil yanvar oyining 17-kuni Oltinko'1 tuman ma'muriy sudining raisi N.Muminova arizachi O'sarov Alisher Omonovichning javobgar Oltinko'1 tuman hokimligiga nisbatan "Oltinko'1 tuman hokimining 2018-yil 31-mart kungi №322-Q-sonli qarorini haqiqiy emas deb topish haqida"gi shikoyati bilan tanishib chiqib, quyidagilarni aniqladi:

Arizachi O'sarov Alisher Omonovich sudga shikoyat bilan murojaat qilib, javobgar Oltinko'1 tuman hokimligiga nisbatan Oltinko'1 tuman hokimining 2018-yil 31-mart kungi №322-Q-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 186-moddasida Ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) bilan sudga murojaat etish muddatlari ko'rsatilgan bo'lib,

manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida sudga berilishi mumkin deb ko'rsatilgan. Ushbu kodeksning 118-moddasi 2-qismiga ko'ra, protsessual muddatlar o'tgandan keyin berilgan arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlar, agar o'tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash to'g'risida iltimosnoma mavjud bo'lmasa, xud uni qanoatlantirish rad etilgan bo'lsa, ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Sud, arizachi O'sarov Alisher Omonovich Oltinko'l tuman hokimining 2018-yil 31-mart kungi №322-Q-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'rasa-da, mazkur Oltinko'l tuman hokimining qaroridan o'z vaqtida xabardor bo'lganligi, lekin qaror ustidan o'z vaqtida murojaat qilmay, sudga murojaat qilish muddatini uzrsiz o'tkazib yuborganligini inobatga olib, muddatni tiklashni rad qilishni hamda ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytarishni lozim topgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

22-masala

2018-yil 15-yanvar kuni Toshkent shahar Shayxontohur tumani ma'muriy sudida sherik arizachilar nomidan ishtirok etayotgan fuqaro Sh.Erkinov hal qiluv qarorini ijro etish bir nechta undiruvchi foydasiga turli joylarda amalga oshirilishiga to'g'ri kelishi tufayli suddan ishtirokchi arizachilarining har biriga alohida ijro etish joyini ko'rsatgan bir necha ijro varaqasini berishni so'radi.

Sud Sh.Erkinovning iltimosiga javoban qonunga ko'ra, sud hujjatini ijro etish turli joylarda yoxud bir nechta undiruvchi foydasiga amalga oshirilishi kerak bo'lsa, ijro etish joyini ko'rsatgan holda bir nechta ijro varaqasini berish sud undiruvchilarning iltimosiga ko'ra amalga oshirilishini ta'kidladi.

Shunda Sh.Erkinov sudga protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkinligini eslatib ayni paytda u sudda boshqa ishtirokchi arizachilar nomidan harakatlanayotganini aytib o'tdi. Sud qonun normasi maxsus qoida ekani, ya'ni bu holatda Sh.Erkinovga ishtirokchi arizachilar nomidan iltimos kiritish mumkin emasligi, aksincha har bir ishtirokchi arizachi shaxsan alohida iltimosnoma kiritishi lozimligini aytib o'tdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

23-masala

2018-yil 17-yanvar kuni fuqaro A.Komilov Samarqand viloyat Bulung'ur tumani hokimining yer ajratishni rad etish yuzasidan qabul qilgan qaroridan norozi bo'lib tuman ma'muriy sudiga murojaat qildi. Tuman sudi A.Komilovning talabini qanoatlantirish haqida hal qiluv qarorini qabul qildi. Sud hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach besh kun ichida ijro varaqasini berdi. Sudning ijro

varaçasiga asosan Samarqand viloyati Bulung‘ur tuman hokimi tomonidan A.Komilovga belgilangan muddatda yer ajratish haqida qaror qabul qilindi.

Samarqand viloyati Bulung‘ur tuman prokurori hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib Samarqand viloyati ma‘muriy sudiga kassatsiya protestini kiritdi. Samarqand viloyati ma‘muriy sudi ishni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqib tuman ma‘muriy sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun tuman sudiga qaytardi.

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani hokimiyati vakili tuman sudidan avvalgi ijro varaçasi asosida fuqaroga ajratilgan yerni qaytarib olish maqsadida sudga sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi ariza taqdim etdi. Tuman sudi hokimiyat vakiliga sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masala hal qiluv qarorini apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqib bekor qilgan sud tomonidan hal etilishi kerakligini tushuntirib viloyat ma‘muriy sudiga murojaat qilishni tushuntirdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

24-masala

2020 yil yanvar oyining 17-kuni Oltinko‘l tuman ma‘muriy sudining raisi N.Muminova arizachi O‘sarov Alisher Omonovichning javobgar Oltinko‘l tuman hokimligiga nisbatan “Oltinko‘l tuman hokimining 2018-yil 31-mart kungi №322-Q-sonli qarorini haqiqiy emas deb topish haqida”gi shikoyati bilan tanishib chiqib, quyidagilarni aniqladi:

Arizachi O‘sarov Alisher Omonovich sudga shikoyat bilan murojaat qilib, javobgar Oltinko‘l tuman hokimligiga nisbatan Oltinko‘l tuman hokimining 2018-yil 31-mart kungi №322-Q-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so‘ragan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 186-moddasida Ma‘muriy organning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) bilan sudga murojaat etish muddatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, manfaatdor shaxsga o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida ma‘lum bo‘lgan paytdan e‘tiboran uch oy ichida sudga berilishi mumkin deb ko‘rsatilgan. Ushbu kodeksning 118-moddasi 2-qismiga ko‘ra, protsessual muddatlar o‘tgandan keyin berilgan arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlar, agar o‘tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash to‘g‘risida iltimosnoma mavjud bo‘lmasa èxud uni qanoatlantirish rad etilgan bo‘lsa, ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Sud, arizachi O‘sarov Alisher Omonovich Oltinko‘l tuman hokimining 2018-yil 31-mart kungi №322-Q-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so‘rasa-da, mazkur Oltinko‘l tuman hokimining qaroridan o‘z vaqtida xabardor

bo'lganligi, lekin qaror ustidan o'z vaqtida murojaat qilmay, sudga murojaat qilish muddatini uzrsiz o'tkazib yuborganligini inobatga olib, muddatni tiklashni rad qilishni hamda ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytarishni lozim topgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

25-masala

2018-yil 15-yanvar kuni Toshkent shahar Shayxontohur tumani ma'muriy sudida sherik arizachilar nomidan ishtirok etayotgan fuqaro Sh.Erkinov hal qiluv qarorini ijro etish bir nechta undiruvchi foydasiga turli joylarda amalga oshirilishiga to'g'ri kelishi tufayli suddan ishtirokchi arizachilarining har biriga alohida ijro etish joyini ko'rsatgan bir necha ijro varaqasini berishni so'radi.

Sud Sh.Erkinovning iltimosiga javoban qonunga ko'ra, sud hujjatini ijro etish turli joylarda yoxud bir nechta undiruvchi foydasiga amalga oshirilishi kerak bo'lsa, ijro etish joyini ko'rsatgan holda bir necha ijro varaqasini berish sud undiruvchilarning iltimosiga ko'ra amalga oshirilishini ta'kidladi.

Shunda Sh.Erkinov sudga protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkinligini eslatib ayni paytda u sudda boshqa ishtirokchi arizachilar nomidan harakatlanayotganini aytib o'tdi. Sud qonun normasi maxsus qoida ekani, ya'ni bu holatda Sh.Erkinovga ishtirokchi arizachilar nomidan iltimos kiritish mumkin emasligi, aksincha har bir ishtirokchi arizachi shaxsan alohida iltimosnoma kiritishi lozimligini aytib o'tdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

26-masala

2018-yil 17-yanvar kuni fuqaro A.Komilov Samarqand viloyat Bulung'ur tumani hokimining yer ajratishni rad etish yuzasidan qabul qilgan qaroridan norozi bo'lib tuman ma'muriy sudiga murojaat qildi. Tuman sudi A.Komilovning talabini qanoatlantirish haqida hal qiluv qarorini qabul qildi. Sud hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach besh kun ichida ijro varaqasini berdi. Sudning ijro varaqasiga asosan Samarqand viloyati Bulung'ur tuman hokimi tomonidan A.Komilovga belgilangan muddatda yer ajratish haqida qaror qabul qilindi.

Samarqand viloyati Bulung'ur tuman prokurori hal qiluv qaroridan norozi bo'lib Samarqand viloyati ma'muriy sudiga kassatsiya protestini kiritdi. Samarqand viloyati ma'muriy sudi ishni kassatsiya tartibida ko'rib chiqib tuman ma'muriy sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko'rib chiqish uchun tuman sudiga qaytardi.

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani hokimiyati vakili tuman sudidan avvalgi ijro varaqasi asosida fuqaroga ajratilgan yerni qaytarib olish maqsadida sudga sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi ariza taqdim etdi. Tuman sudi hokimiyat vakiliga sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masala hal qiluv

qarorini apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqib bekor qilgan sud tomonidan hal etilishi kerakligini tushuntirib viloyat ma‘muriy sudiga murojaat qilishni tushuntirdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

27-masala

2017-yil 13-noyabr kuni “Global outlook” nodavlat ta‘lim muassasasi direktori V.Ikromov Toshkent shahar ma‘muriy sudiga Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Nodavlat ta‘lim muassasalarining chet tillarni o‘rganish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish sohasidagi faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha hududiy komissiya qaroridan norozi bo‘lib murojaat qildi.

Arizada keltirilishicha, V.Ikromov nodavlat ta‘lim muassasasi ro‘yxatdan o‘tkazilgach qonuniy faoliyatni boshlash uchun Toshkent shahar huzuridagi hududiy komissiyaga hujjatlarni topshirgan. Topshirilgan hujjatlar orasida chet tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib boruvchi o‘qituvchi S.Akbarovning mutaxassislik diplomining nusxasi ham topshirilgan edi.

Komissiya yig‘ilishida S.Akbarovning diplom nusxasi o‘rganib chiqilganda u xorijiy mamlakatda tahsil olgani, ammo, olingan diplom nostrifikatsiya qilinmagani aniqlandi. Natijada komissiya tomonidan “Global outlook” nodavlat ta‘lim muassasasiga chet tillarni o‘rganish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish sohasidagi faoliyatini litsenziyalash rad etildi.

Suddan nodavlat ta‘lim muassasasi direktori hududiy komissiyaning qarorini noqonuniy deb topish hamda uning zimmasiga nodavlat ta‘lim muassasasiga litsenziya berish majburiyatini yuklashni so‘radi.

Sud direktor V.Ikromovdan o‘qituvchi S.Akbarovning diplomining aslini taqdim etishni so‘radi. V.Ikromov besh kun avval S.Akbarov diplomini yo‘qotib qo‘ygani aytib, uning nusxasini taqdim etdi.

Biroq, taqdim etilgan nusxaning komissiyaga taqdim etilgan nusxa bilan solishtirib ko‘rgilganda ixtilofning mavjudligi aniqlandi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

28-masala

2017-yil 22-noyabr kuni fuqaro R.Rahmonova Navoiy viloyati Navbahor tumani Maktabgacha ta‘lim bo‘limi huzuridagi Davlat maktabgacha ta‘lim muassasalariga bolalarni qabul qilish bo‘yicha qabul komissiyasi qaroridan norozi bo‘lib tuman ma‘muriy sudiga murojaat qildi.

Arizada keltirilishicha, fuqaro R.Rahmonova 2017-yil 20-oktabr kuni o‘g‘li R.Sodiqovni maktabgacha ta‘lim muassasasiga joylashtirish maqsadida yo‘llanma olish uchun komissiyaga tegishli hujjatlarni topshirgan. R.Rahmonov bilan birga uning qo‘shnisi S.Salimova ham ayni shu maqsadda

hujjatlarni topshirgan. R.Rahmonovava G.Kamalova farzandlarining ayni bir muassasada tarbiya topishlari maqsadida arizada ayni bir maktabgacha ta'lim muassasasini ko'rsatib o'tganlar.

Taqdim etilgan hujjatlar qabul komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilgan. S.Sodiqovanning farzandiga nisbatan arizada ko'rsatilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasida bo'sh o'rin bo'lmagani tufayli topshirilgan hujjatlarni navbatga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan. Ayni paytda S.Salimovanning farzandiga arizada ko'rsatilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilish uchun yo'llanma berish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Sudda R.Rahmonovaa arizada keltirib o'tilgan vajlarini qo'llab quvvatladi. Uning hujjatlari G.Kamolovdan oldin qabul qilib olingani, biroq uning farzandiga yo'llanma berilmaganini ta'kidladi.

Navbahor tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi huzuridagi Davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qabul qilish bo'yicha qabul komissiyasi vakili suddan S.Sodiqovadan buni isbotlab berish uchun dalil taqdim etishni talab etishni so'radi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

29-masala

O'zbekiston "REAL AIKIDO" Federatsiyasi 20.02.2006-yilda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 626-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Keyinchalik, uning tashkiliy-huquqiy maqomi Xalqaro "Kombat Aykido" Assotsiatsiyasiga o'zgartirilib, 26.08.2011-yilda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 626p-son bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Assotsiatsiyaning Nizomiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar 22.12.2014-yilda Adliya vazirligidan 626p-son bilan qayta davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, unda Assotsiatsiya sport yo'nalishidagi ixtiyoriy ravishda birlashgan nodavlat notijorat tashkiloti ekanligi va uning tashkiliy-huquqiy shakli assotsiatsiya hisoblanishi, assotsiatsiya davlat ro'yxatdan o'tgandan so'ng yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi va tegishli yuridik shaxs huquqlaridan foydalanishi hamda O'zbekiston Respublikasi hududi va undan boshqa davlatlarda o'z faoliyatini amalga oshirishi belgilangan.

"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi, xalqaro hamda respublika miqyosidagi Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini, shuningdek Sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini tasdiqlaydi.

Mazkur Qonunning 8-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi ekani, maxsus vakolatli davlat organi xalqaro va respublika miqyosidagi Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirishi hamda manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda ularning moliyalashtirilishi va o‘tkazilishini ta’minlashi belgilangan.

Ushbu qonun talabiga ko‘ra, 12.09.2017-yilda Assotsiatsiya rahbari O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasiga (keyini o‘rinlarda Davlat qo‘mitasi), Assotsiatsiyaning 2018-yilda “kombat aykido” bo‘yicha o‘tkazilishi belgilangan tadbirlarini Respublika musobaqalarining kalendar rejasiga kiritishni so‘rab murojaat qilgan.

Assotsiatsiyaning ushbu murojaati Davlat qo‘mitasi tomonidan o‘rganib chiqilib, 22.09.2017-yilda 01-07-06-2552-sonli xat bilan, Davlat qo‘mitasi tomonidan Xalqaro federatsiya (uyushma)larning kalendar rejasi tasdiqlanmasligi, Respublika kalendar rejasiga kiritish uchun sport turlari bo‘yicha tadbirlar, Respublika sport federatsiyalari (uyushmalari, markazlari va boshqalar) tomonidan taqdim qilinishi ma’lum qilingan.

Bundan norozi bo‘lib, arizachi sudga yuqoridagi mazmundagi shikoyat bilan murojaat qilgan.

Birinchi instansiya sudi shikoyatni qanoatlantirishni rad qilish haqida xulosaga kelgan.

Sizning yechimingiz:

Sud qanday qaror qabul qilishi kerak?

- O‘zMSIYUK tegishli moddalari va boshqa qonun hujjatlaridan foydalangan holda javobingizni asoslang;

30-masala

Toshkent shahar Olmazor tumani ichi ishlar bo‘limiga muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxs Sh.V. haqida ma’lumot kelib tushdi.

Ichki ishlar organining mas’ul xodimi fuqaro Sh.V.ni reabilitatsiya markaziga joylashtirish maqsadida tegishli materiallarni to‘pladi va ularni tuman ma’muriy sudiga yubordi.

Ichki ishlar organi tomonidan iltimosnomada fuqaro Sh.V.ni reabilitatsiya markaziga 60 kunga joylashtirishni so‘radi. Bunga sabab qilib fuqaro Sh.V.ning bergan ma’lumotiga binoan aynan mazkur muddat o‘tgach uning yaqin qarindoshi chet eldan qaytib kelishi va uni o‘z bilan yashash uchun olib ketish niyatida ekanini ma’lum qildi.

Tuman ma’muriy sudi mazkur muddat ko‘p ekanini aytib fuqaro Sh.V.ni reabilitatsiya markaziga 30 sutkadan ko‘p bo‘lmagan muddatga joylashtirish haqida qaror qildi.

Sud qaroridan norozi bo'lgan ichi ishlar organining vakili sud qaroridan norozi bo'lib apellyatsiya tartibida shikoyat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

31-masala

Fuqaro B. Nodavlat o'quv markazi ochish maqsadida litsenziya olish uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga tegishli hujjatlarni taqdim etdi. Lekin Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi litsenziya berishga oid mazkur ishni ko'rib chiqib sabablarini keltirgan holda litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qildi. Fuqaro B. Litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, 7 kun ichida qayta ko'rib chiqishga taqdim etdi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan yana qayta yig'im to'lash va rad etish to'g'risida qarorda ko'rsatilmagan boshqa kamchiliklarni sabab qilib 30 kun mobaynida yana rad qilish to'g'risida qaror chiqardi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

32-masala

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida takiliy shtat tadbirlari o'tkazilishi munosabati bilan kontrakt asosida xizmat qiluvchi mayor V.Axmedovni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga ishga o'tkazish yuzasidan uning roziligi so'raldi. Bundan u bilan Ichki ishlar vazirligida yangi kontrakt tuzilishi haqida xabar berildi. Ammo u hozirgi kunda sog'lig'i taqozo etayotganligi sababli boshqa vazirlikka o'tishga rozilik bermadi. Shundan so'ng uni u vaqtincha, bir oy muddatga harbiy qism tarkibida bo'linmaga rahbarlik qilish, ish va lavozimini topshirish uchun Ichki ishlar vazirligiga xizmat safariga yuborilishi bo'yicha buyruq chiqdi. Lekin V.Axmedov xizmat safariga bora olmasligini aytib, rahbariyatga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering

33-masala

Arizachi Ochilova Gulruxsor Zakirjonovna Marahamat tumani ma'muriy ishlar bo'yicha sudga javobgar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Andijon viloyat boshqarmasiga nisbatan shikoyat ariza bilan murojaat qilib, Davlat xizmatlari agentligi Andijon viloyat boshqarmasi va uning markazlariga hamda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlariga ishga qabul qilish bo'yicha maxsus komissiyaning bo'sh lavozimlarga hujjat topshirgan nomzodlar test sinovi va suhbat natijalari hamda

bu haqidagi 2020-yil 11-iyunda tasdiqlangan dalolatnomani haqiqiy emas deb topishni soʻragan.

Vaziyatga huquqiy baho bering

34-masala

Toshkent shahri Olmazor tumanida yashovchi fuqaro K.Komilov oʻziga qarashli yer uchastkasida 6 xonadan iborat turar-joy binosi qurdi. Oradan 10 yil oʻtgach fuqaro K.Komilovning hovlisi joylashgan hududdan avtomobil` magistral yoʻli qurish loyihasi davlat dasturiga kiritildi. Mazkur holat boʻyicha hokimiyat vakili fuqaro K.Komilovga qarashli yer oʻrniga boshqa yer berilishini, uy-joy qurish uchun esa mablagʻ berilmasligini taʼkidlab oʻtdi.

Bundan norozi boʻlgan fuqaro Toshkent shahri Olmazor tuman hokimiyatiga uy qurish uchun mablagʻ taʼminlash yuzasidan murojaat qildi. Tuman hokimiyati masʼul xodimi murojaatni asossiz deb topib, sabab sifatida uyning qurilishi ruxsatsiz amalga oshirilganini maʼlum qildi.

Mazkur kazusda maʼmuriy huquq subyektlarini aniqlang. Fikringizni asoslab bering.

35-masala

2012-yil 16-martda Toshkent yuridik kolleji direktori A.Pardaevga Oʻzbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan 2-darajali adliya maslahatchisi martaba darajasi berildi. 2016-yil 11-martda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vaziri vazifasini bajaruvchi shaxs A.Olimov oʻz lavozimidan ozod etildi. 2016-yil 14-martda Oʻzbekiston Respublikasining Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vaziri etib tayinlangan A.Samadov Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 16-martdagi martaba darajasi berish toʻgʻrisidagi buyrugʻiga eʼtiroz bildirdi va uni bekor qilishni talab qildi.

Eʼtirozga asos qilib Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi barcha akademik letsiy, kollej va oliy oʻquv yurtlari Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligiga boʻysunishi lozimligini hamda ularning rahbarlariga unvon yoki martaba berish uning vakolati ekanligini taʼkidladi. 2016-yil 17-martda esa Oʻzbekiston Respublikasi adliya vaziri martaba darajasi toʻgʻrisidagi qarorni oʻzgartirganini va bunga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining eʼtirozi sabab boʻlganini bildirdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

36-masala

“Kamol” firmasi oziq-ovqat mollari sotishga ixtisoslashtirilgan savdo kompleksini qurishni rejalashtirdi. Savdo kompleksini qurilishining elektro montaj bosqichiga kelganda loyihalash va elektro montaj ishlarini amalga oshirish uchun jalb qilingan “SOFT” pudratchi firmasi obyektning energiya

ta'minoti loyiha (quvvati 10 kVtdan ortiq)siga xulosa olish uchun 2014-yil 21-sentyabr kuni ariza (boshqa talab etilgan hujjatlar bilan birga) bilan «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasining hududiy bo'limiga murojaat qildi. Ariza qabul qilingandan 12 kun o'tishiga qaramasdan «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasining hududiy bo'limi xulosa bermadi. "SOFT" pudratchi firmasi direktori mazkur holat bo'yicha 2014-yil 4-oktyabr kuni «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasining hududiy bo'limi mas'ul shaxsini loyihani tasdiqlatmagan holda qurishni montaj ishlarini amalga oshirishni boshlashligi to'g'risida ogohlantirdi va montaj ishlarini boshlab yubordi. Savdo kompleksi bir oydan so'ng to'liq bitkazildi. "Kamol" firmasi rahbari elektr o'lchagich o'rnatish va iste'molchi sifatida ro'yxatga olish bo'yicha tegishli organga murojaat qildi. Lekin, vakolatli organ savdo kompleksini montaj ishlari O'zdavenergonazorat» inspeksiyasining hududiy bo'limi tomonidan tasdiqlanmagan loyiha asosida amalga oshirilganligini asos qilib, murojaatni rad etdi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

37-masala

Arizachi "T" xususiy korxonasi sudga shikoyat ariza bilan murojaat qilib, Qo'qon shahar hokimining 02.03.2015-yildagi 101-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Qo'qon shahar hokimining 02.03.2015-yildagi 101-sonli qarori bilan Qo'qon shahri, T. Ko'chasida joylashgan 300 o'rinli Avtovokzal (Avtoshohbekat) binosi "X" futbol jamoasi balansiga berib yuborilgani aniqlangan. Mazkur hokim qarori qabul qilinishida korxonaga ogohlantirilmagani, qarz to'liq to'lab berilmaganligi inobatga olinmagan.

Vaziyatga huquqiy yechim bering.

38-masala

Samarqand viloyati Davlat soliq boshqarmasining bo'lim boshlig'i V.Samadovga amaliy ishda namoyon qilgan kasbiy, ma'naviy va ishchanlik sifatlariga qarab, unga nisbatan rag'batlantirish chorasi sifatida pul mukofoti berildi. Lekin V.Samadov xizmat vazifasini bajarishda ko'rsatilgan mardlik va jasorati, xizmat vazifasini namunali bajarganligi uchun unga idoraviy mukofotlar (ko'krak nishonlari) bilan taqdirlash yoki davlat mukofotiga taqdim etishlarini so'radi. Qolaversa, V.Samadovni fikricha, O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga asosan pul mukofotlari rag'batlantirish chorasi hisoblanmasligini aytib, uni qilgan xizmatiga munosib rag'batlantirish chorasi qo'llanilmaganligidan norozi bo'ldi.

Vaziyatga huquqiy baho bering. DSX xodimlariga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llash tartibini tahlil qiling.

39-masala

Toshkent shahri Yunusobod tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro A. tuman hokimiga 2018-yilning 4-avgustida o'zi yashaydigan turar joyga tutash bo'lgan hududda avtomobillarni yuvish joyi qurish va ushbu joyda avtomobillarni yuvish uchun suvni yer ostidan quduq qazish orqali olish maqsadida yer ajratishni so'rab yozma tarzda murojaat qildi. Oradan bir yarim oy o'tdi hamki, fuqaro A. o'zining Yunusobod tumani hokimiga qilgan murojaatiga javob ololmadi. Natijada fuqaro A. mazkur holat bo'yicha viloyat hokimiga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy yechim bering.

40-masala

Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi bo'lim boshlig'i S.Botirovna attestasiya xulosasiga ko'ra, uning faoliyati yaxshi baholanib, uni ish tajribasidan samarali foydalanish uchun rotasiya qilish maqsadida Toshkent viloyati Chirchiq shahar soliq inspeksiyasiga bo'lim boshlig'i lavozimiga ishga tayinlanishi bo'yicha Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasining buyrug'i qabul qilindi. Mazkur buyruqdan norozi bo'lgan S.Botirov uning faoliyati yaxshi baholanganligi va buning uchun unga yuqori lavozimga o'tish yoki maxsus unvonini oshirish bo'yicha buyruq chiqarilishi kerakligi, u bu lavozimda to'rt yildan berish faoliyat olib borayotgani, bundan tashqari Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi boshlig'ining bunday buyruq chiqarish vakolati yo'qligini aytib, O'R DSQ raisiga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy yechim bering.

41-masala

Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) O'zbekistonda zo'ravonlikka qarshi Nemolchi.uz loyihasi asoschisi va jurnalist Irina Matviyenko atrofida yuzaga kelgan vaziyatga izoh berdi.

3-may kuni jamoatchilik faoli O'zbekistonni vaqtincha tark etgani, bunga noma'lum shaxsdan o'lim tahdidini olgani sabab bo'lganini ma'lum qilgandi. U huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza bilan murojaat qilgan.

AOKA "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga muvofiq davlat jurnalistning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda himoyasini ta'minlashini eslatib o'tdi.

Qonunning 14-moddasiga ko'ra, jurnalistning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga tahdid, zo'ravonlik yoki tajovuz qilganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Bu kabi himoyaviy kafolatlar "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida ham o'z ifodasini topgan.

Agentlik Bosh prokuraturaga vaziyatni o'rganib, unga huquqiy baho berishni so'rab rasmiy xat yo'llagan hamda jurnalist hayoti xavfsizligi ta'minlanishi va qonunchilikka zid ravishda tahdid qilgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishiga ishonch bildirgan. Eslatib o'tamiz, vaziyat IIV Tezkor qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi tomonidan ham o'rganilmoqda.

Savollar:

1. "Nemolchi.uz loyihasi"ning huquqiy maqomini huquq nazariyasi bilimlariga asoslangan holda aniqlang.

2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza bilan murojat qilish huquqni amalga oshirishning qaysi turiga taalluqli ekanligini tahlil eting.

3. "O'lim tahdidi" uchun qanday yuridik javobgarlik va jazo turi berilishi mumkinligini qonunga asoslanib tahlil qiling.

4. "Vaziyatni o'rganib, unga huquqiy baho berishni so'rab rasmiy xat" yollash huquqiy mexanizmini tushuntirishga harakat qiling.

42-masala

O'zbekistonda Milliy gvardiya organlarining xodimlariga mayda bezorilik qilgan, sovuq qurolni yoki shunga o'xshash ashyolarni olib yurganlarga bayonnomalar tuzish va ularni ko'rib chiqish uchun sudga yuborish yuzasidan qo'shimcha vakolatlar berilmoqda.

Senatorlar "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartishlar kiritish haqida"gi qonunni ko'rib chiqib, uni ma'qulladi.

"Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlariga yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish (bayonnoma tuzish) vakolati berilmagani sababli yuqorida qayd etilgan holatlar bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarga hal etish uchun yuborilgan. Bu, o'z navbatida, ortiqcha hujjat aylanishi va, eng asosiysi, fuqarolarning sarson bo'lishiga olib kelgan", — deya so'z borgan majlisda.

Shu vaqtgacha ularning zimmasiga huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, davlat obyektlari, jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini qo'riqlash, jamoat tartibini saqlash, jamoat joylarida patrullik qilish kabi vazifalar yuklatilgan.

Milliy gvardiya organlari tomonidan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar natijasida noqonuniy saqlangan 44 ta pnevmatik va ov quroli, 3202 dona o'q-dori olib qo'yilgan.

Keltirilishicha, yangi vakolatlar voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, jamoat

joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, tilanchilik qilish hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish holatlarida ham amalga oshiriladi.

Bunda mazkur toifadagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ichki ishlar organlarida ham saqlanib, huquqbuzarlik Milliy gvardiya xodimlari tomonidan aniqlangan taqdirda, ularga jarima jazosini qo'llash huquqi berilmoqda.

Savollar:

1. “Milliy gvardiya organlarining xodimlariga ... qo'shimcha vakolatlar berilmoqda” Ushbu jarayon Huquq nazariyasining qaysi mavzisiga taalluqli ekanligini aniqlang va asoslang.

2. “fuqarolarning sarson bo'lishiga olib kelgan” degan jumlaning norasmiy sharhlashga harakat qiling.

3. “noqonuniy saqlangan 44 ta pnevmatik va ov quroli, 3202 dona o'q-dori olib qo'yilgan”. Ushbu ta'sir choralari yuridik javobgarlikning qaysi turiga taalluqli? Fikringizni asoslang.

4. IIV qatorida Milliy Gvardiya organlarining ham “qo'riqchi organ” sifatida kuchayotganligi istiqbolini qanday baholaysiz?

43-masala

“Toshshahartransxizmat” kompaniyasi boshqaruvi raisi, poytaxt transport boshqarmasi boshlig'i Anvar Jo'rayev so'nggi paytlarda “gormoshka” avtobuslar bilan bog'liq noxush holatlar yuzasidan “Gazeta.uz” muxbiriga izoh berdi.

Eslatib o'tamiz, bir kun avval Toshkent shahrining Yunusobod tumanida ajratilgan chiziq bo'ylab harakatlanayotgan ikkita yangi “King Long” avtobusi gaz ballonlarining qobig'i daraxtga urilib, gaz uskunasi avtobuslarning tomidan uchib ketgandi.

“24-yo'nalishda 18 metrli avtobus ustidagi gaz ballon uskunasi himoya korpusi tushib ketgan. Bunga sabab chinor shoxlari bo'ldi, keyin obodonlashtirish boshqarmasi bilan birga daraxtning ortiqcha shoxlarini olib tashladik, — deydi Anvar Jo'rayev. “Ammo bu daraxtning tanasi yo'lga egilib turganini hisobga olib, biz yo'l belgilarini Yo'l harakati boshqarmasi bilan birgalikda ko'rib chiqyapmiz. O'sha qismdagi yo'l tasmasini qaytadan chaproqqa surib, chizib chiqamiz. Shunda bu daraxtni chetlab o'tish va kelajakda daraxt va avtobus o'rtasida to'qnashish holatlarning oldini olish mumkin bo'ladi”.

Savollar:

1. Mas'ul shaxsning izoh berishi huquqiy munosabat hisoblanadimi?

2. Avtobus gaz ballonlarining qobig‘i daraxtga urilib, gaz uskunasi avtobuslarning tomidan uchib ketgan”ligi faktida huquqbuzarlik mavjudmi?

3. Kazusda yozilgan davlat organlarining hamkorlikdagi ushbu ishidan kimga huquqiy manfaat bor?

4. Kazusda yozilgan davlat organlarining hamkorligini amalga oshirishning huquqiy mexanizmi qanday bolishini izohlashga harakat qiling.

44-masala

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-oktabr kuni Ostona shahrida “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” formatidagi delegatsiyalar rahbarlarining uchrashuvida ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq siyosiy muloqotni rivojlantirish istiqbollari, mintaqalararo hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish masalalari muhokama qilindi. Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida yangi O‘zbekistonda qaytarib bo‘lmaydigan islohotlar strategiyasining asosiy ustuvor vazifalari – samarali bozor mexanizmlariga ega kuchli huquqiy davlat, shuningdek yuksak saviya va qulay turmush sharoitini shakllantirishga alohida to‘xtalib o‘tdi. *“Biz erishgan yutuqlarimiz bilan cheklanib qolmayapmiz va o‘zgarishlar ko‘lamini oshirish niyatidamiz. Gap, eng avvalo, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, inson huquqlari va gender tengligini, so‘z va e‘tiqod erkinligini ta‘minlash haqida bormoqda”*, — dedi davlatimiz rahbari.

Iqtisodiy yo‘nalishda tadbirkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish davom etishi, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash davom etishi, raqobatbardosh va innovatsion ishbiarmonlik muhitini rivojlantirish rag‘batlantirilishi ta‘kidlandi. Yaxshi qo‘shnichilik va mintaqaviy sheriklik kun tartibini ilgari surish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Prezidenti hamkorlikning asosiy yo‘nalishi mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash ekanini ta‘kidladi. U Yevropa Ittifoqining terrorizm, radikalizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik va boshqa umumiy muammolarga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma dasturlar doirasidagi amaliy yordamini yuqori baholadi. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, maxsus xizmatlar va huquq-tartibot idoralari o‘rtasida axborot almashish va zamonaviy tahdidlarga birgalikda qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

Savollar:

1. YEI va MO bilan shartnoma tuziladigan bo‘lsa, u huquq manbasi nuqtai nazaridan qaysi huquq manbasiga taalluqli bo‘ladi?

2. “Samarali ishlovchi bozor mexanizmlariga ega bo‘lgan kuchli huquqiy davlat” tushunchasini ta’riflab bering.

3. So‘z erkinligi va vijdon erkinligi degani nima?

4. Maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar yo‘nalishi bo‘yicha hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi davlatning qaysi funksiyasiga taalluqli hisoblanadi?

45-masala

Jurnalist Aziza Qurbonova va Toshkent shahar Uchtepa tuman hokimi matbuot kotibi o‘rtasidagi mojaroga tuman hokimligi munosabat bildirdi. Uchtepa tumani hokimligidan ma’lum qilishlaricha, jurnalist Aziza Qurbonovaning Uchtepa tumanida gaz bosimi pastligi haqidagi postiga aynan tuman hokimligi axborot xizmati rahbari To‘rabek To‘rayev qo‘pol izoh yozgan.

Ma’lum qilinishicha, tuman hokimligining Tashkiliy-kadrlar guruhi vaziyatni o‘rgangan, To‘rabek To‘rayevning emotsional fikrlari hokimlikning rasmiy sahifasi orqali tanqid qilingan.

“Tuman hokimi matbuot kotibining sohaga qo‘shgan hissasi, tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tezkor yoritib borishi, ko‘p yillik tajribasi, qator respublika va xalqaro tanlovlarda e’tirof etilgani, bundan tashqari, ilgari bunday holatlarga yo‘l qo‘yilmagani haqida tuman hokimi ogohlantirdi. Unga tuman hokimligi nomidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarda matbuot kotibi jurnalist odob-axloq qoidalariga amal qilishi shartligi tushuntirildi”, — deyiladi hokimlik rasmiy xabarida.

Eslatib o‘tamiz, jurnalist Aziza Qurbonova o‘zining Facebookdagi sahifasida o‘zi istiqomat qilayotgan hududda gaz bosimi sezilarli darajada pasayganini aytib, jamoatchilik e’tiborini shu holatga qaratgan edi. Bunga Uchtepa tumani hokimligi axborot xizmati rahbari To‘rabek To‘raev o‘z postiga izoh qoldirib, uni “odamlar nafratini qo‘zg‘atish va aqillilik”da ayblab, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari tanqidiga sabab bo‘ldi.

Savollar:

1. Tuman hokimiyatlari davlat mexanizmining qaysi qismiga taalluqli?

2. Mazkur kuzda nechta va o‘z mazmuniga ko‘ra qanday ijtimoiy munosabatlar mavjud?

3. “Tuman administratsiyasining tashkiliy-kadr guruhi”ga huquqiy baho berishga urunib ko‘ring.

4. Facebook ijtimoiy tarmog‘iga xabar joylashtirish ijtimoiy munosabat hisoblanadimi? O‘z fikringizni asoslang.

46-masala

Buenos Aires Times tomonidan berilgan xabarga asosan, 6-dekabr, seshanba kuni Argentina sudi mamlakat vitse-prezidenti va sobiq prezidenti Kristina Fernandes de Kirshnerni korrupsiyada aybdor deb topib, olti yillik qamoq jazosiga hukm qildi. Shuningdek, u umrbod siyosiy mansabdan mahrum qilindi. 2007—2015-yillarda prezident bo'lgan 69 yoshli De Kirchner “davlat zarariga soxta boshqaruv”da aybdor deb topildi. U Santa Kruz provinsiyasida do'sti va biznes sherigi Lazaro Baezga tegishli kompaniya bilan 51 ta jamoat ishlari bo'yicha shartnoma tuzganlikda ayblangan.

Siyosatchi o'ziga qo'yilgan ayblovlarni rad etadi va sud jarayonini “siyosiy jodugar ovi” deb atadi. Shuningdek, u "qonuniy mafiya" tomonidan qoralanganini qo'shimcha qildi.

Nashrning yozishicha, Kristina de Kirchner vitse-prezident va Senat rahbari sifatida daxlsizlik huquqiga ega ekanligini inobatga olsak, uni panjara ortida o'tkazishi dargumon. Bundan tashqari, u shikoyat qilish imkoniyatiga ega. Ish yuqori sudda ko'rib chiqilayotgan paytda u vitse-prezident lavozimida ishlashda davom etadi. U Argentina vitse-prezidenti lavozimida ishlayotgan davrida jinoyat sodir etganlikda birinchi marta ayblangan.

Savollar:

1. Kazus mazmuniga ko'ra Argentinada qanday boshqaruv shakli amalda?

2. Kazus mazmuniga ko'ra, Argentinada demokratik rejim hukmron deyish mumkinmi? O'z fikringizni argumentlar bilan keltiring.

3. “Davlat zarariga firibgarlik boshqaruvi” tushunchasini sharhlashga harakat qiling.

4. Sud hokimiyatining mustaqilligi tushunchasini ta'riflab berishga harakat qiling.

47-masala

O'zbekistonda 9-dekabr holatiga doimiy aholi soni 36 milliondan oshdi. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi xabar qildi.

Erkaklar soni 18,1 million, ayollar soni esa 17,9 millionni tashkil etmoqda.

Yilning birinchi uch choragi yakunlariga ko'ra (1-oktabr holatiga) doimiy aholi soni 35,821 million kishini (erkaklar — 18,024, ayollar — 17,796 million kishi) tashkil etib, yil boshidan buyon 549,7 ming kishiga yoki 1,6 foizga o'sgan edi.

2022 yil boshida doimiy aholi soni 35,271 million kishini tashkil etgandi (shu jumladan erkaklar — 17,744 million, ayollar — 17,527 million).

2021 yilda O'zbekistonda doimiy aholi soni 712,4 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi, bu — aholini ro‘yxatga olish vaqtida ma’lum bir aholi punkti yoki hududda doimiy yashovchi, shu jumladan vaqtincha yo‘q bo‘lgan aholi.

Aholi soni bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 41-o‘rinni egalladi, deya qo‘shimcha qildi Davlat statistika qo‘mitasi.

Savollar:

1. Mazkur kazusda ishlatilgan tahlil, tahlillar turlarining qaysi biriga taalluqli? O‘z fikringizni batafsil misollar bilan asoslang.

2. Davlat statistika qo‘mitasining davlat mexanizmidagi o‘rniga baho bering.

3. Davlat statistika qo‘mitasining mazkur vazifasini davlatning tegishli funksiyaga taalluqliligini aniqlang.

4. Aholi sonining ko‘payishi ijobiymi yoki salbiymi? O‘z fikringizni asoslang.

48-masala

Qozog‘iston banklari AQShning xorijiy aktivlarni nazorat qilish departamentidan (OFAC) Mir to‘lov kartalari bilan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat oldi. Bu haqda juma kuni mamlakat Moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirish agentligi ma’lum qildi.

Regulyator matbuot xizmatining aniqlik kiritishicha, ular OFACdan 8-dekabr kuni tegishli xat olgan. Shu bilan birga, AQSh departamenti Rossiyaga qarshi sanksiyalarni chetlab o‘tishda foydalanilmasligi uchun Rossiya to‘lov tizimi kartalari bilan o‘tkazilayotgan tranzaksiyalarni kuzatishda davom etishlarini ta’kidladi. “(Qozog‘iston banklari) Mir kartalari yordamida to‘lovlarni qabul qilish, pul o‘tkazmalarini qabul qilish, shuningdek jismoniy shaxslar uchun bankomatlar orqali naqd pul berish huquqiga ega”, — deyiladi agentlik xabarida.

Regulyatorning qo‘shimcha qilishicha, Qozog‘iston banklari o‘zlarining rivojlanish strategiyalaridan kelib chiqib, “Mir” to‘lov tizimini mustaqil ravishda ulash bo‘yicha qaror qabul qilishadi.

Qozog‘istonning Halyk banki sentabr oyi oxirida AQSh g‘aznachiligi Mir to‘lov tizimidan Rossiyadan tashqarida foydalanishni qo‘llab-quvvatlaganlik uchun ikkilamchi sanksiyalar xavfi haqida ogohlantirishi munosabati bilan Mir kartalarini qabul qilishni to‘xtatdi. Turkiya, Armaniston, Qirg‘iziston, Vetnam, Tojikiston va O‘zbekistonning bir qancha banklari ham Rossiya to‘lov tizimi bilan ishlashdan bosh tortgan.

Xususan, Yagona Respublika protsessing markazi (Uzcard brendi) 23-sentabrdan boshlab Rossiyaning Mir to‘lov tizimi kartalarini O‘zbekistonda qabul qilishni to‘xtatdi. Cheklov qo‘shma ko‘rsatkichli Uzcard – “Mir”

kartalariga ta'sir qilmadi, lekin ular faqat mamlakat ichida ishlaydi. Ayrim banklarning

veb-saytlarida bunday qo'shma kartalar haqidagi bo'limlar yo'qoldi.

Noyabr oyi boshida Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmuratov ikkilamchi sanksiyalar xavfi tufayli O'zbekiston banklari "Mir" kartalariga to'liq xizmat ko'rsatishni qayta tiklashga hali tayyor emasligini aytgan edi. "Gazeta.uz" so'roviga ko'ra, Markaziy bank matbuot xizmati "Mir" kartalarining O'zbekistonda to'laqonli ishlashi masalasi "hali ham o'rganilayotganini" ma'lum qildi. Uzcard hozircha so'rovga javob bermagan.

Savollar:

1. Kazusning dastlabki gapidan davlatda suverenitet yo'qligini anglash mumkinmi? Suverenitet nima ekanligini tushuntirib bering.

2. Ko'p davlatlar uchun tanish bo'lgan tushuncha: "Rivojlanish strategiyasi" nimani anglatadi?

3. AQShning siyosiy hokimiyatini davlat hokimiyatidan ustun bo'lgan butunjahon hokimiyati deyish mumkinmi?

4. "Ikkilamchi sanksiyalar" degani nima? Uni xalqaro javobgarlikning turi sifatida baholash mumkinmi?

49-masala

5-dekabr kuni Rossiya prezidenti Vladimir Putin yig'ilishlar, mitinglar, yurishlar va namoyishlar o'tkazish taqiqlangan joylar ro'yxatini kengaytiruvchi federal qonunni imzoladi, deb yozmoqda RIA Novosti hujjatga tayanib.

Shunday qilib, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining binolari va ularga tutash hududlar, aeroportlar, temir yo'l va avtovokzallar, portlar, universitetlar, maktab va kasalxonalar binolari hamda hududlarida, cherkovlar hamda boshqa inshootlar joylashgan yer uchastkalarida mitinglar o'tkazish mumkin bo'lmaydi.

Bundan tashqari, taqiq hayotni ta'minlash obyektlari, shu jumladan elektr, issiqlik, suv va gaz tarmoqlarining ishlashini ta'minlaydigan obyektlarga tutash hududlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Hozirgacha mitinglarni faqat prezident qarorgohlari, sudlar, tezkor xizmatlar va hukmlarni ijro etish muassasalari binolarida o'tkazish taqiqlanao edi.

Bundan tashqari, yangi qonun har bir mintaqa qo'shimcha ravishda yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar o'tkazish joylariga o'z taqiqlarini kiritishi mumkinligini belgilab bermoqda. Bunda ushbu chora "Rossiya Federatsiyasi

subyektining tarixiy, madaniy va boshqa obyektiv xususiyatlari”ni ifodalashi kerak bo‘ladi.

Savollar:

1. Huquq normasi nuqtai nazaridan mazkur qonunni adolatli deyish mumkinmi?

2. Mazkur kazusdagi ta’qiqlar, huquq normasining tarkibiy elementlari nuqtai nazaridan qaysi biriga taalluqli bo‘lishi mumkin? Tarkibiy elementlarning barchasini qisqacha tahlil qiling.

3. Insonning mitinglar va namoyishlarga chiqish huquqning paydo bo‘lishini tahlil qiling.

4. “har bir hudud o‘zlari qo‘shimcha ta’qiqlarni kiritishi mumkin”, mazkur norma dispozitsiyaning qaysi turiga taalluqli? O‘z fikringizni batafsil asoslang.

50-masala

3-dekabr, shanba kuni Eron bosh prokurori Muhammad Jafar Montazeriy mamlakatda uch oydan buyon davom etayotgan norozilik namoyishlari tufayli mamlakat politsiya o‘rinbosarini tarqatib yuborganini aytdi, deb xabar beradi Iran International.

Shuningdek, u Eron rasmiylari yaqin vaqt ichida hijob kiyish majburiyligi haqidagi qonunni qayta ko‘rib chiqish niyatida ekanini qo‘shimcha qildi.

Shu bilan birga, Montazeri sud hokimiyati odamlarning xatti-harakatlarini kuzatishda davom etayotganini, bu esa hijob kiyish qoidalari bekor qilinmasligini, faqat ko‘chalarda maxsus patrullar tarqatib yuborilishini anglatishi mumkinligini ta’kidladi.

Shuningdek, nashrning aniqlik kiritishicha, Montazeri bayonoti hukumat tomonidan tasdiqlangan rasmiy qarorni yoki noroziliklarga javoban hokimiyatning moslashuvchanligini namoyish qilish usulimi, aniq emas. Hozircha huquq-tartibot idoralari va Eron prezidenti ma’muriyati bunday rasmiy bayonotlar bermagan.

Vitse-politsiya Eron politsiyasining bo‘limi bo‘lib, jamoat joylarida musulmon kiyimlarini kiyishga oid qonunlarni qo‘llash bilan shug‘ullanadi.

Sentyabr oyining ikkinchi yarmida butun Eronni ommaviy norozilik namoyishlari qamrab oldi. Ularga 22 yoshli talaba Mahsa Aminining politsiya bo‘limida o‘limi sabab bo‘lgan, u hijobni noto‘g‘ri kiygani uchun axloq politsiyasi tomonidan hibsga olingan.

Savollar:

1. “Xijobni majburiy kiyib yurish to‘g‘risida”gi qonun xususiy sohaga taalluqlimi yoki ommaviy sohagami? Mazkur qonun mazmunini tushuntirib berishga harakat qiling.

2. “Sud hokimiyati odamlar hatti-harakatlarini kuzatishni davom etmoqda”, mazkur gapni tahlil qilishga harakat qiling.

3. Eron siyosiy rejimini tavsiflashga harakat qiling.

4. Boshqa davlatlar mexanizmlarida Ahloq politsiyasi kabi tuzilmalar mavjudmi?

51-masala

Fuqaro Alimov S. va Xalimov B. ismli shaxslar Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga ariza bilan murojaat qildi. Oradan 10 kun o‘tgach ariza yong‘in va sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining mavjud binolar va xonalarning yong‘in xavfsizligi talablariga va sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosalari mavjud emasligi vaji bilan rad etildi. Bundan norozi bo‘lgan Alimov S. va Xalimov B. ismli shaxs manfaatfor shaxsning zarariga qabul qilingan qaror ularning ishtiorida ko‘rib chiqilishi lozimligi hamda ma‘muriy tartib-taomillarning bir qancha prinsiplari buzilganligini ta‘kidlab sudga shikoyat qildi.

1. Kazusdan kelib chiqib ma‘muriy huquqiy munosabat tushunchasini nazariy tahlil qiling, ma‘muriy huquqiy munosabat turlarini yoritib bering.

2. Kazusdan kelib chiqib davlat boshqaruvining ma‘muriy-huquqiy shakllarini tahlil qiling.

3. Kazusda mavjud bo‘lgan ma‘muriy hujjatni aniqlang, unga qo‘yilgan talablarni hamda ma‘muriy hujjat belgilarini yoritib bering

4. Kazusdan kelib chiqib ma‘muriy yustitsiya tushunchasini yoritib bering

5. Ma‘muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

52-masala

M.Boboshev O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash bo‘yicha sertifikat olish uchun murojaat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-oktabrdagi “Yengib bo‘lmaydigan kuchlar

(fors-major) holatlarini tasdiqlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida" 625-son qaroriga binoan maqsadga muvofiq emasligi sababi bilan sertifikat berish rad etildi. Bundan norozi bo'lgan M.Boboshev Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunning bir necha qoidlari va maqsadga muvofiq emasligi qonuniy talab hisoblanmasligini ta'kidlab ma'muriy sudga shikoyat qildi.

1. Kazusdan kelib chiqib ma'muriy huquqiy munosabat tushunchasini nazariy tahlil qiling, ma'muriy huquqiy munosabat turlarini yoritib bering.

2. Kazusdan kelib chiqib davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllarini tahlil qiling.

3. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy hujjatni aniqlang, unga qo'yilgan talablarni hamda ma'muriy hujjat belgilarini yoritib bering

4. Kazusdan kelib chiqib ma'muriy yustitsiya tushunchasini yoritib bering

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma'muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

53-masala

Oltiariq tuman hokimining 2021-yil 31-yanvar kungi 105-sonli qaroriga asosan fuqaro A.Zayniyevga tumanning Sh.Qobilov SIU hududidagi tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan 338,336,339,340-konturlardan jami 31,4 ga, shundan 30,1 ga suvli yer, 1,30 ga ariq va yo'llar bilan band bo'lgan yer maydonlarini paxta-g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaligi tashkil etish uchun 45 yil muddatga ijaraga berilgan. Ushbu qarorni qabul qilishga Yer kodeksi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 30.10.2003-yildagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom asos qilib ko'rsatilgan. A.Zayniyev 05.02.2021 yilda "Nomus" fermer xo'jaligini tashkil qilib, davlat ro'yxatidan o'tkazgan. 2021-yil 5-noyabrda Oltiariq tuman hokimligi va fermer xo'jaligi o'rtasida fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasi rasmiylashtirilib, Kadastr agentligi Davlat kadastrlar palatasi Farg'ona viloyat boshqarmasi Oltiariq tuman filiali tomonidan shu kuni 769- tartib raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan. Shuningdek, 05.11.2021-yilda Kadastr agentligi Davlat kadastrlar palatasi Farg'ona viloyat boshqarmasi Oltiariq tuman filiali tomonidan fermer xo'jaligining yer maydonlari o'lchab berilib, yer maydonlarini joyida ko'rsatish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 35-moddasi 1-

qismiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari davlat ro'yxatiga olinishi kerak. Demak, fermer xo'jaligining yerga bo'lgan ijara huquqi vujudga kelgan. Oltiariq tuman prokuraturasining 17.01.2022-yilgi protestida Oltiariq tuman hokimiga 31,4 ga yer maydoni ajratish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda Yer kodeksining 53-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2003-yildagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga rioya etilmasdan berilganligi ko'rsatilgan. Shundan so'ng, Oltiariq tuman hokimi o'zining 31.01.2022-yildagi 220-sonli qaroriga asosan protestni qanoatlantirib, tuman hokimining 2021-yil 31-yanvar kungi 105-sonli qarorini bekor qilgan. Bundan norizi bo'lgan fuqaro A.Zayniyev Parlament va Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmanga murojaat qilgan.

1. Kazusdan kelib chiqib ma'muriy huquqiy munosabat tushunchasini nazariy tahlil qiling, ma'muriy huquqiy munosabat turlarini yoritib bering.

2. Ma'muriy huquqiy munosabat subyektlari va ularning huquqlarini tahlil qiling

3. Ommaviy huquqiy munosabatlarda qonuniylik va uni ta'minlash tartibini tahlil qiling

4. Prokuror nazoratini va uning o'ziga xos jihatlarini kazusga bog'lab tahlil qiling

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma'muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

54-masala

Oldindan qalin do'st tutingan tadbirkorlar T.Choriyev hamda B.To'ychiyev O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markaziga O'zbekiston Respublikasida dori vositasini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida ariza bilan murojaat qildi. Davlat markazi tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab bir ish kunidan kechiktirmay ariza beruvchi T.Choriyevga guvohnomani berish, hamda arizachi B.To'ychiyevga guvohnoma berish masqsadga muvofiq emasligi sababli rad etilganligi to'g'risida xabardor qildi. Bundan norozi bo'lgan arizachi qonundan bunday talab yo'q ekanligi hamda u bilan bir hil ariza bergan do'sti T.Choriyevning arizasi qanoatlantirilganligi vaji bilan sudga shikoyat qilishini aytdi. Vaziyatga huquqiy baho bering.

1. Kazusdan kelib chiqib ma'muriy huquqiy munosabat tushunchasini nazariy tahlil qiling, ma'muriy huquqiy munosabat turlarini yoritib bering.

2. Kazusdan kelib chiqib davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllarini tahlil qiling.

3. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy hujjatni aniqlang, unga qo'yilgan talablarni hamda ma'muriy hujjat belgilarini yoritib bering

4. Kazusdan kelib chiqib ma'muriy yustitsiya tushunchasini yoritib bering

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma'muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

55-masala

Andijon shahar hokimining 2021-yil 7-iyundagi 2215-sonli qarori bilan shaharning To'ychi mahallasi hududidagi jami 21 nafar fuqarolarning har birining 0,05 gektardan yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish hamda yakka tartibdagi uy-joy bino-inshootlariga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilgan. Qaror ilovasining 21 raqami ostida fuqaro A.Hamidov ko'rsatilgan. Mazkur qaror asosida A.Hamidovning yer uchastkasi hamda qo'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlari 2021-yil 26-noyabrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Andijon shahar hokimining 2022-yil 26-maydagi 254-sonli qarori bilan Andijon shahar hokimining 2021-yil 7-iyundagi 2215-sonli qarorining A.Hamidovga oid qismi bekor qilingan va yer uchastkasi zahiraga olingan. Qarorning qabul qilinishiga Andijon shahar Adliya boshqarmasining 2021-yil 1-dekabrda xati asos qilingan. Davlat kadastrlari palatasi Andijon shahar filialining 2022-yil 4-apreldagi 01/05-420 raqamli xatiga ko'ra, Andijon shahar hokimining 2022-yil 26-maydagi 254-sonli qarori bilan zahiraga olingan yer uchastkasi hozirgi kunda shahar hokimligi zahirasi ekanligi ko'rsatilgan.

1. Kazusdagi ma'muriy huquqiy munosabatni aniqlang va fikringizni huquqiy tahlil qiling

2. Ma'muriy munosabat subyektlari va ularning huquqlarini qonuniy tahlil qiling

3. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy hujjatni, unga qo'yilgan talablarni kazusga bog'lab tahlil qiling

4. Davlat boshqaruvida siyosiy sohani boshqarishda Adliya organlarining rolini huquqiy tahlil qiling

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma'muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

56-masala

Navoiy viloyati Konimex tumani Nurafshon ko'chasida yashovchi fuqaro K.Kosibov 2011-yilda o'z mahallasidan 10 sotih yer maydonini A.Zaripovdan sotib oldi. O'sha vaqtda yerning hech qanday xujjati yo'qligi sababli oldi sotdi qilmasdan o'zaro ishonch asosida kelishuv bo'lgan. Shundan so'ng K.Kosibov yerda yashash uchun shart- sharoitlar yaratish maqsadida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdi. 2017-yilda esa yer maydonga yashash uchun qurgan bino-inshootlar uchun kadastr xujjati olish uchun murojat qildi va kadastr hodimlarining kelib tekshirishlaridan so'ng kadastr hujjatini oldi. Shuningdek, o'tgan davrlar mobaynida yer va mol-mulk solig'ini soliq idorasi bergan talabnomaga asosan to'lab keldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.06.2018-yil 461-son qarori bilan tasdiqlangan Ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida ko'chmas mulklarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish tartibi to'g'risida Nizomga asosan Tuman hokimining 2019-yil 10-aprelda qurilgan yer uchastkasi va bino-inshootiga bo'lgan mulkiy huquqni tasdiqlash to'rsidagi qarori chiqdi. Qarorda yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi va mulkka egalik qilish huquqi K.Kosibovga berilishi aytilgan. Hamda ushbu qarordan kelib chiqib mazkur yer uchastkasi va bino-inshootiga bo'lgan huquqlarni "Yermulkkadastr" DKda 2019-yil 29-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan. Lekin oradan 6 oy o'tib, fuqoro M.Mahmudov yer unga tegishli ekanligi va unda mazkur yer uchastkasining gen planining nushasini ko'rsatib, hokimiyatga murojaat qildi. Ammo K.Kosibov yer hech qanaqasiga uniki emasligi va o'sha paytlar bu yerni qarzi evaziga M.Mahmudov tomonidan o'z xohishi bilan unga berganligini aytdi. Ma'muriy ish 10 kun ichida o'rganib chiqildi. Ish ko'rish vaqtida M.Mahmudov tegishli tarzda xabardor qilinganligiga qaramay majlisga kelmadi. Komissiya ishni o'rganib chiqib, M.Mahmudovning talablarini rad etdi. Shundan so'ng M.Mahmudov unga nisbatan chiqarilgan qarordan, shuningdek bu ish uning ishtirokisiz ko'rib chiqilganligidan norozi bo'lib, tuman prokuraturasiga murojaat qildi.

1. Ommaviy huquqiy munosabatlarda qonuniylik, uni ta'minlash choralari hamda qonuniylikni ta'minlash bo'yicha subyektlar kimlar bo'lishi mumkinligini qonuniy tahlil qiling

2. Ma'muriy munosabat subyektlari va ularning huquqlarini qonuniy tahlil qiling

3. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy hujjatni, unga qo'yilgan talablarni kazusga bog'lab tahlil qiling

4. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy yustitsion munosabatni toping va uni hal qilish tartibini huquqiy tahlil qiling

1. 5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma'muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

57-masala

2020-yil 20-mart kuni Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman hokimi do'konlari snosga tushgan bir qator tadbirkorlarga yangi do'kon qurish uchun yer berish maqsadida tadbirkorlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Tadbirkor ayol V.Vasalova ham ushbu tadbirkorlardan biridir unga buzilgan "Vafo" mahallasida bo'lgan dorixonasi o'rniga "Kattatovoq" mahallasi hududidan 110,0 kv.metr yer tanlash va ajratish haqida №1296-Q-sonli qarori chiqqan. Ammo tanlanayotgan yer bo'yicha hokimlik va tadbirkor V.Vasalova kelishuvga erisholmagan. Tuman hokimi qarori asosida "Kattatovoq" mahallasi hududidan tadbirkorga yer tanlandi. Ammo keyinchalik bu yer maydoni boshqa maqsadlar uchun ajratilgani ma'lum bo'ldi. Shundan keyin tadbirkorning o'zi istiqomat qiladigan "Vafo" mahallasidan yer ajratishga qaror qilingan. Bu yerdagi "Mahalla markazi"da qator binolar joylashgan, to'yxona, tibbiyot muassasasi, mahalla guzari va hokazo. Ma'lum bo'lishicha, tadbirkor uchun noqulay bo'lgan hududlardan yer ajratilgan. Yer ko'cha tomondan oldiga boshqa binolar tushgan. Bu yerdan tadbirkor dorixona qurganda ham binolar ortidan ko'zga tashlanmaydi. Ushbu holatda V.Vasalova tadbirkorga yer berish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari bilan yengilliklar berilganligini va unga o'zi xoxlagan joydan yer berishlari kerakligini, barcha bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar manfaatdor shaxs tomonga hal bo'lishi kerakligini tuman hokimligi mutassadi hodimlariga tushuntirdi. Tuman hokimi esa tadbirkor hokimiyat qayerdan yer ajratgan bo'lsa shuni olishi kerakligini aks holda boshqa tadbirkorga yer berilmasligini ma'lum qildi. Ushbu jarayonni o'zini blogger deb tanishtirgan fuqaro S.Salayev tasvirga olib jamoatchilik muhokamasiga qo'yish maqsadida internetda e'lon qiladi.

1. Ommaviy huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlashda Jamoatchilik nazoratini huquqiy tahlil qiling

2. Ma'muriy munosabat hamda subyektlarning huquqiy holatini tahlil qiling

3. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy hujjatni, unga qo'yilgan talablarni kazusga bog'lab tahlil qiling

4. Kazusda mavjud bo‘lgan ma‘muriy yustitsion munosabatni toping va uni hal qilish tartibini huquqiy tahlil qiling

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma‘muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

58-masala

2022-yilning 1-iyul sanasida arizachi Otabek Buxoro tumanlararo ma‘muriy sudiga shikoyat arizasi bilan murojaat qildi. Unda aytilishicha, Otabek o‘zi yoqtirgan qizi Nilufar bilan nikohni rasmiylashtirish maqsadida (ikkalasi ham hozirda Buxoro shahrida ta‘lim olishmoqda) Kogon tumani FHDYO organiga murojaat qilishgan. FHDYO organi mudirasi ularni nikohdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bunga sabab qilib esa, Otabek va Nilufarlar boshqa boshqa viloyatdan ekanliklari hamda nikohni qayd etish ariza beruvchilardan birining doimiy yashash manzilidagi FHDYO organiga berilishi kerakligini keltirgan. Bundan norozi bo‘lgan Otabek Ma‘muriy sudga FHDYO organi mansabdor shaxsining xatti-harakatini qonunga xilof deb topishni va qarorni haqiqiy emas deb topishni so‘ragan. Vaziyatga huquqiy baho bering.

1. Kazusdan kelib chiqib ma‘muriy huquqiy munosabatlarning nazariy tahlilini o‘tkazing hamda vaziyatda ma‘muriy huquqiy munosabatlar ishtirokchilari (ma‘muriy organ va manfaatdor shaxs) holatining huquqiy tahlilini o‘tkazing

2. Davlat boshqaruvining ma‘muriy-huquqiy shakllarini tahlil qiling.

3. Kazusdan kelib chiqib ma‘muriy harakat va ma‘muriy hujjat tushunchasini tahlil qiling

4. Qonuniylikni ta‘minlashda nazorat va kontrol tushunchasini yoritib bering

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma‘muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

59-masala

Andijon shahar hokimining 2022-yil 16-oktabrida 69-son qaroriga asosan Baliqchi tumani “Jartepa” MFY 24-uy (ko‘pqavatli) oldidagi bolalar maydonchasi xususiy tadbirkorga mavjud binolarni ta‘mirlash hamda o‘ziga tegishli hududning 0,06 gektar qismida qo‘shimcha ma‘muriy va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi qurishga ruxsat berilgan. Hokimning ushbu qaroridan norozi bo‘lgan Baliqchi tumani “Jartepa” MFY 24-uyda istiqomat qiluvchi bir guruh fuqarolar Andijon shahar prokuraturasiga murojaat qildi. Andijon shahar

prokuraturasi Andijon shahar hokimining qarori shaharsozlikka oid qonun hujjatlari talablariga zid hisoblab, protest keltirdi.

1. Ushbu hodisada yuzaga kelgan ma'muriy huquqiy munosabatlarning nazariy tahlilini o'tkazing va vaziyatda ma'muriy huquqiy munosabatlar ishtirokchilari (ma'muriy organ va manfaatdor shaxs) holatining huquqiy tahlilini o'tkazing.

2. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashning qanday turlari amalga oshirilganligini va ularning ahamiyatini amaliy misollar yordamida tahlil qiling.

3. Kazusda mavjud bo'lgan ma'muriy hujjatni, unga qo'yilgan talablarni kazusga bog'lab tahlil qiling

4. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura nazoratini tahlil qiling.

5. Qonun hujjatlariga asoslangan holda vaziyatga huquqiy yechim bering. Ma'muriy tartib-taomillarning qaysi prinsiplari buzilgan deb hisoblaysiz, fikringizni huquqiy jihatdan asoslab bering.

60-masala

Sudga arizachi Uchtepa tuman adliya bo'limi Z.T.Muxamadaminovning manfaatida javobgar Toshkent shaxar soliq boshqarmasining Kameral soliq tekshiruvi asosida tuzilgan 113-son xulosasini haqiqiy emas deb topishni so'rab shikoyat arizasi bilan murojaat etgan. Arizachining ta'kidlashicha Soliq kodeksiga binoan Kameral soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbari o'rinbosarining) buyrug'i asosida o'tkazilishi lozim. Buyruqda soliq to'lovchining nomi va identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, tekshiruvni o'tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr, tekshirilayotgan soliqlar va yig'implarning turlari ko'rsatilishi hamda Kameral soliq tekshiruvi Soliq kodeksining 88-moddasiga binoan da'vo muddati soliq davri uchun o'tkazilishi lozimligini ta'kidlab arizani qanoatlantirishni so'radi.

1. Mazkur vaziyatda ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning qaysi usulidan foydalanilgan, fikringizni nazariy jihatdan asoslang.

2. Mazkur vaziyatda siyosiy soxani ma'muriy-huquqiy tartibga solishda Adliya vazirligining hamda Davlat soliq qo'mitasining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.

3. Mazkur vaziyatda ma'muriy nizoni hal etishning qaysli usuli samarali ded hisoblaysiz, fikringizni asoslang.

VI. GLOSSARIY

№	O`zbekcha	Izoh	Ingliz tilida
1.	Ijtimoiy davlat	har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir	a comfortable standard of living for everyone, in particular, quality education, guaranteed health care, decent working conditions and fair wages, pensions and allowances, housing conditions, no citizen with his problems is a just state that does not stand alone.
2.	“Yaxshi boshqaruv”	davlat boshqaruvi ilmidagi zamonaviy konsepsiyalarning biri bo'lib, bunda davlatning ijro hokimiyati organlarining ochiqligiga, samaradorligiga va hisobdorligiga asoslanadigan yondashuvdir	is one of the modern concepts in the science of public administration, which is an approach based on the openness, efficiency and accountability of the executive authorities of the state
3.	Ma'muriy yustitsiya	davlat boshqaruvi organlarining hatti-harakatlari va qarorlarini tuzatishga va nazorat qilishga yuqori turuvchi ijro hokimiyati organlarining instansiyasi yoki sudning maxsus ixtisosligi	a special specialty of the court or the instance of the higher executive authorities to correct and control the actions and decisions of the state administration bodies
4.	Ma'muriy tartib-taomillar	ma'muriy organlarning ma'muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalar	procedural rules regulating the administrative-legal activity of administrative bodies
5.	KOAS RUZ	jamoat huquqi sohasida yuzaga keladigan nizoli munosabatlarni sud tomonidan hal qilishning tegishli protsessual huquqiy	an advanced legislative act that creates an appropriate procedural legal regulation for court resolution of

		reglamentini yaratadigan ilg'or qonunchilik akti	conflictual relations arising in the field of public law
6.	Ma'muriy harakatlar	ma'muriy organning jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida amalga oshirilgan, ma'muriy yoki protsessual hujjat bo'lmagan, yuridik ahamiyatga ega harakatlari (harakatsizligi)	Actions (inaction) of an administrative body with legal significance, which are not administrative or procedural documents, performed in the field of administrative-legal activity in relation to physical and legal entities
7.	Ma'muriy-huquqiy faoliyat	ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv faoliyati	management activities affecting certain natural or legal persons or a group of persons distinguished by certain private characteristics
8.	Ma'muriy akt	ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasi	a measure of influence of an administrative body aimed at creating, changing or terminating public legal relations and causing certain legal consequences for certain natural or legal persons or for a group of persons distinguished by certain private characteristics
9.	Manfaatdor shaxs	qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma'muriy hujjatga yoki ma'muriy harakatga daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs	the person to whom the administrative document or administrative action is addressed, as well as the person whose rights and legal interests are affected or may be affected by the administrative

			document or administrative action
10.	Ma'muriy huquqni qo'lash jarayoni	ijro hokimiyati organlarining qonun hujjatlarini ijro etishga qaratilgan va ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan operativ-farmoyish berish hamda huquqni qo'llash-aktlarini qabul qilish va ijro etish faoliyatidir	It is the activity of the executive authorities to issue operational orders and to adopt and execute law enforcement acts, which are aimed at the implementation of legal documents and are carried out in an administrative-procedural form
11.	Ma'muriy sud ishlarini yuritish	davlat organlari va/yoki ularning mansabdor shaxslari, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar o'rtasida ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolar bo'yicha ish yuritish	handling disputes arising from public-legal relations between state bodies and/or their officials, individuals and/or legal entities
12.	Ma'muriy nizolar	shaxslarning ommaviy ma'muriyatchilik subyektlari bilan nizolari	disputes between individuals and subjects of public administration
13.	Ma'muriy da'vo	ommaviy huquq, erkinliklar yoki ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadiganlarni himoya qilish maqsadida sudga topshirilgan protsessual hujjat	a procedural document submitted to the court in order to protect public rights, liberties or those arising from public-legal relations
14.	Ma'muriy-huquqiy munosabatlar	Huquqiy munosabatlarning ya'ni boshqaruv sohasidagi huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turidir	Legal relations are a special type of social relations regulated by law in the field of management
15.	Protsessual hujjat	ma'muriy organ tomonidan ma'muriy ish yuritish davomida qabul qilinadigan, ma'muriy ishni mazmunan hal etmaydigan hujjat	a document accepted by an administrative body in the course of administrative proceedings, which does not resolve the administrative case in substance

16.	Davlat xizmati siyosiy ma'noda	davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, davlatning maqsad va vazifalariga barcha ishlab chiqilgan siyosiy kuch orqali erishish; jamiyatdagi muvozanatning asosiy ko'rinishidir	is an activity aimed at the implementation of state policy, achieving the goals and objectives of the state through all developed political power; is the main form of balance in society
17	Davlat xizmati	huquqiy ma'noda davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish bo'lib, mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishi ta'minlanadi	in the legal sense, it is the legal establishment of state-service relations, which ensures the fulfillment of professional obligations, the powers of employees, and the competence of state bodies
18.	Davlat organi	davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma	an organizationally separate structure with the powers of state power, included in the list of state bodies and organizations
19.	Davlat tashkiloti	ommaviy manfaatlar yo'lida belgilangan vazifa va funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan davlat tasarrufidagi tashkilot	a state-owned organization designed to perform tasks and functions in the public interest
20.	Davlat fuqarolik xizmati	davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi	is a type of public service and represents the paid professional activity of citizens of the Republic of Uzbekistan to ensure the implementation of the powers of state bodies in the positions of public civil service
21.	Davlat fuqarolik xizmatchisi	Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi	A citizen of the Republic of Uzbekistan performing his activities in the

		fuqarosi - davlat fuqarolik xizmatchisidir	position of state civil service is a state civil servant
22.	Davlat fuqarolik xizmati lavozimi	davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozim	a position included in the State Register of State Civil Service Positions to exercise the powers of a state body
23.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari	davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart bo'lgan odob-axloq normalari majmui	a set of ethical norms that must be observed by civil servants of the state
24.	Malaka talablari	davlat fuqarolik xizmatining muayyan malaka darajasi berilishi va (yoki) davlat fuqarolik xizmatining muayyan lavozimini egallash uchun talabgor bo'layotgan nomzodlarga nisbatan davlat organi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar	Work experience and professional competence requirements determined by the state body for candidates who are applying for a certain qualification level of the state civil service and (or) to occupy a specific position of the state civil service
26.	Ijtimoiy munosabatlar	bu insonlararo, insonlarning tabiat va texnika vositalari bilan bo'lgan turli hil munosabatlar majmui bo'lib, ma'lum bir tartibga soluvchi vositalarga ob'ektiv ravishda zaruratga ega bo'lgan jarayondir	It is a set of diverse relationships between people, people with nature and technical means, and it is a process that objectively needs certain regulatory means
27.	Huquqiy munosabatlar	bu jamiyatdagi barcha sub'ektlar uchun amal qilinishi majburiy bo'lgan huquq normasi bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlardir	this is a social relationship regulated by the legal norm, which is mandatory for all subjects in society
28.	Inson huquqi	insonning davlat bilan munosabatdagi huquqiy holatini, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy	the concept of describing the legal status of a person in relation to the state, his

		sohalardagi imkoniyatlarini tavsiflash tushunchasi	opportunities in the economic, political and cultural spheres
29.	Yashash huquqi	fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 25-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan asosiy huquqlaridan biri. “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir”	It is one of the main rights of citizens enshrined in Article 25 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. "The right to life is the fundamental right of every human being. Attempting to kill a person is the most serious crime"
30.	Konstitutsiya	(“constitution” lotincha so‘z bo‘lib, “tuzish” degani) “qoida” va “nizom” ma’nolarini anglatadi. Konstitutsiyada jamoat va davlat tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvining asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlari aniq belgilab beriladi	("constitution" is a Latin word meaning "to make") means "rule" and "statute". The constitution clearly defines the public and state structure, the foundations of state power and management, and the basic rights and obligations of citizens
31.	Agentlik	asosiy vazifasi sifatida tegishli sohada davlat xizmatlarini ko‘rsatish va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqni qo‘llash funksiyalarini amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik tashkiliy bo‘ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi	It is the executive power body of the republic, which performs the functions of providing public services in the relevant field and exercising other rights provided for by the legislation, as well as operating under the organizational subordination of the ministry
32.	Buyruq	ma’muriy huquqda yakkaboshchilikka asoslangan	a legal document based on monopoly in

		huquqiy hujjat; muayyan tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi	administrative law; used to solve the main and daily tasks facing a particular organization
33.	Vazirlik	tegishli sohalarda yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, muayyan yo'nalishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni yakka-boshchilik asosida tashkil etadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi	is the executive body of the republic, which develops and implements the unified state policy in the relevant fields, coordinates the activities of executive authorities in a certain direction, and organizes leadership activities in the system on the basis of sole leadership
34.	Davlat boshqaruvi	(tashkiliy nuqtai nazardan) – boshqaruv subyekti (davlat, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar)ning boshqaruv obyekti (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat ta'siri; qonun asosida va uni amalga oshirish maqsadida turli sohalarda (ijtimoiy-madaniy, xo'jalik va ma'muriy-siyosiy qurilish) davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining maqsadga muvofiq tashkil etilgan, qonunosti, ijrochilik-farmoyish berish va tartibga solishga qaratilgan faoliyati	(from an organizational point of view) - the influence of power of the subject of management (the state, state bodies or officials) on the object of management (society, citizens); Based on the law and for the purpose of its implementation, the activities of the executive authorities that perform the functions of state management in various fields (social-cultural, economic and administrative-political construction) are purposefully organized, according to the law, and aimed at issuing executive orders and regulation
35.	Qo'mita	tegishli soha ichidagi tarmoq faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi	It is the executive body of the republic that coordinates and

		hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni kollegial asosda tashkil etadigan, shuningdek, vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi	regulates the activity of the network within the relevant field and organizes the leadership activities in the system on a collegial basis, as well as operates under the organizational subordination of the ministry
36.	Idoralar	vazirlik yoki davlat qo'mitasi hisoblanmagan, ijro etish va (yoki) farmoyish berish funksiyalari, shuningdek, umumiy majburiy tisdagi normativ hujjatlarni qabul qilish huquqi berilgan boshqaruvning umumdavlat organlari yoxud maxsus vakolatli boshqaruv organlari (agentliklar, komissiyalar, markazlar, boshqarmalar va boshqalar)	All-state bodies of management or specially authorized management bodies (agencies, commissions, centers, departments, etc.) that are not considered a ministry or a state committee and have the right to issue executive and/or order functions, as well as to adopt normative documents of a general binding nature
37.	Ijro hokimiyati	obstrak siyosiy-huquqiy kategoriya; davlat hokimiyati mavjudligini ko'rsatadi; qonunlarni va uning normalarini hayotga tadbiq qilish maqsadida amalga oshiriladi, davlat organlarining doimiy funksiyalanishini, insonlar-ning huquq va erkinliklarini himoya qilishni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlaydi	abstract political-legal category; indicates the existence of state power; is carried out in order to apply laws and their norms to life, ensures the continuous functioning of state bodies, protection of people's rights and freedoms, public order and security
38.	Ijro hokimiyati organlari tizimi	ijro hokimiyati organlarining yig'indisi va ular o'rtasida kompetensiyani taqsimlash asosida o'zaro munosabatlarning tizimi	a system of mutual relations based on the totality of executive authorities and the distribution of competence between

			them
39.	Inspeksiya	asosiy vazifasi sifatida tegishli soha va tarmoqlarda davlat nazorati va tekshiruvni amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi	It is the executive power body of the republic that carries out state control and inspection in the relevant fields and sectors as its main task, and also operates under the organizational subordination of the ministry

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. –T.:“O‘zbekiston”, 2017.B-48

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni//Qonunchilik ma’lumotlari milliybazasi,20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 209-modda

4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 49-son, 578-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 49-son, 611-modda

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 14.02.2017 yildagi F-4849-son farmoyishi // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 7-son, 88-modda.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi 06.11.2020 yildagi PF-6108-son Farmoni

9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xizmatlari koʻrsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi 31.01.2020 yildagi PF-5930-son Farmoni

10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son

11. “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi Qonun, 08.08.2022 yildagi OʻRQ-788-son

12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasida Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi Farmoni 08.09.2017-yil PF-5185-son

13. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi Farmoni 25.01.2023 yil PF-14-son

III. Maxsus adabiyotlar

1. Odilqoriyev X.T., Tulteev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.

2. Islamov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi/Darslik. – T.: TDYU, 2013. – 325 b.

3. Hayitboyev F.P., Najimov M.K. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari. Oʻquv qoʻllanma. – T.: TDYU, 2018. – 229 b.

4. Axmedshayeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendensiyalari. – T.: TDYU, 2019. –235 b.

5. Nematov J. Maʼmuriy huquq faniga kirish: qiyosiy-huquqiy tahlil. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma/J.Nematov.– T.: Top Image Media, 2020. – 130 b.

6. S.Muratayev. Huquq bu nima?! Ommabop risola 2022-yil. <https://t.me/academicmurataev>

7. Хамедов И.А., Хван Л.Б., Цай И.М. Административное право Республики Узбекистан Общая част. Учебник. – Т.: Konsauditinform-Nashr, 2012. – 591 с.

8. Ma'muriy huquq: Darslik / X.T. Odilqoriyev, I.Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. X.T. Odilqoriyev va B.E.Qosimovning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – 640 b.

9. F.B.Isayeva. Davlat xizmatini o‘tash: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYI, 2012. – 129 b.

10. F.Isayeva Davlat boshqaruvini isloh qilish sharoitida davlat xizmatini tashkil etish masalalari: davlat xizmatchilarining xizmat bo‘yicha harakatlanishi //“Demokratik islohotlar sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirish masalalari” mavzusidagi davra suhbat materiallari to‘plami – TDYU, 2014. - B.140.

11. F.Isayeva “O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish masalalari” // 2013 y. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to‘plami/ TDYI 2013. – B. 180-183.

12. F.Isayeva “Davlat xizmatini tashkil etishning konstitutsiyaviy asoslari” //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi to‘plami/ TDYU, 2014. – B .183-188

13. F.Isayeva “Davlat xizmatiga kirishning o‘ziga xos xususiyatlari.” //TDYI, Axborotnoma, 2009 – B. 28-30.

14. F.Isayeva “O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi.” //TDYI, Axborotnoma, 2008, – B. 28-21

15. Nematov J. Yaponiyada davlat xizmatining o‘ziga xos xususiyatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil.// O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etishning huquqiy asoslari: davra suhbat materiallari. – Toshkent: Baktria press, 2015. – B. 34-41

16. S.Muratayev, B.Musayev, D.Artikov. Ma'muriy huquq va protsess. Darslik. TDYU, 2020.-520 b.

17. Davlat xizmati: Darslik / C.Yusupov. F.Isayeva – Toshkent: TDYU. 2023. - 236 b.

IV. Xorijiy adabiyotlar

1. Зеленцов А.Б., Кононов П.И., Стахов А.И. Административно-процессуальное право России. Учебник для бакалавриата и магистратуры. – М.: Издательство Юрайт, 2016.-341с. (книга доступна в ЭБС biblio-online.ru).

2. Hart H.L.A. The Concept of Law. 3rd edition. – Oxford: Oxford university press, 2012. –333 p.

3. С.В.Кузьякин., Ю.П.Кузьякин. Административное право. Учебное пособие. Одинцова, 2015.

4. А.В.Юрковский. Административное право. Учебное пособие. Иркутск, 2018.

5. Н.Ф.Попова. Административное право. Учебник и практикум для вузов. Юрайт, 2023.

6. М.Лапина. Административное право/Административные процесс. Учебник. Юстиция, 2022.

7. Brian Y.Bix.Washington University, St. Louis, В.А. Harvard University, J.D. Balliol College, Oxford University, D.Phil. Natural Law: Modern Tradition Natural Law: Online publication date: Sep. 2012 Online publication date: Sep. 2012. Edited by Jules L.Coleman, KennehtEinarHimma, and Scott J.Shapiro.

8. Marchenko M.N.Tendensii razvitiya prava v sovremennom mire. Moskva: Prospekt, 2015.-376 s.

9. Административное судопроизводство. Учебник для студентов высших учебных заведений по направлению «Юриспруденция» (специалист, бакалавр, магистр) / Под ред. В.В.Яркова. – М. Статут, 2016. – 560 с.

10. Общее административное право: учебник в 2 ч. Част 2: Административно-деликтное право (КоАП РФ). Административное судопроизводство (КАС РФ) / Под ред.Ю.Н.Старилова; Воронежский государственный университет. 2-е изд., пересмотр. и доп. –Воронеж: Издательский дом ВГУ, 2017.-820с. (стр. стр.162-171; 555-733).

11. Marchenko M.N.Problemy obshchey teorii gosudarstva i prava (Pravo):v 2 t.-2-izd.-Moskva:Prospekt, 2019.T.2:-648 s.

12. Scott Veitch, Emilios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence. Themes and Concepts. Second ed. – London: Routledge publication, 2012.– 305p.

13. Hans Kelsen. General Theory of Law and State. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. –516 p.

V. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.senat.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.my.gov.uz>
5. <http://www.parliament.gov.uz>
6. <http://www.ziyonet.uz>

VIII. TAQRIZLAR